O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

Katta o‘qituvchi S.JALILOV

O‘ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI

fani bo‘yicha o‘quv metodtik majmua

(3-kurs bakalavriat bosqichi talabalari uchun)

NUKUS - 2012

MUNDARIJA

Ma`ruza mashg`ulotlari		
1-mavzu	Kirish.O`zbek tilining tarixiy grammatikasi fanining maqsad va vazifalari.	
1.1. 1.2.	Kursining maqsadi va vazifalari. Kursining lingvistik va nolingvistik sohalar bilan aloqasi.	
2-mavzu	Fonetika.	
1.1. 1.2.	Eski o’zbek tilining unlilar va undoshlar tizimi. Eski o’zbek tilida singormanizm va urg`u	
3-4-mavzu	Morfologiya.	
1.1. 1.2. 1.3.	Eski o’zbek tilining morfologik xususiyatlari. Ot turkumi va uning grammatik kategoriyalari. Otlarning yasalishi.	
5-mavzu	Sifat turkumi.	
1.2. 1.2.	Sifat darajalari. Sifat yasalishi	
6-mavzu	Son so’z turkumi.	
1.1. 1.2. 1.3. 1.4.	Sonning morfologik belgilari. Sonning ma’no turlari. Numerativlar.	
7-mavzu	Olmosh	
1.1. 1.2.	Eski o’zbek tilida olmosh turkumining morfologik belgilari. Olmoshning ma’no turlari.	
8-9-mavzu	Fe’l.	
1.1. 1.2. 1.3. 1.4.	Fe’l va uning grammatik kategoriyalari. Etakchi va ko’makchi fe’llar. Fe’l yasalishi. Fe’lning funktsional shakllari.	
10-mavzu	Ravish.	
1.1. 1.2. 1.3.	Ravish va uning ma’no turlari. Ravish yasalishi. Ravishlarda daraja.	
11-mavzu	Eski o’zbek tilida yordamchilar.	
1.1. 1.2. 1.3. 1.4.	Ko’makchilar. Bog`lovchilar. Yuklamalar. Undov va modal so’zlar.	
12-mavzu	Eski o’zbek tilining sintaktik qurilishi.	
1.2. 1.2.	So’z birikmasi sintaksisi. Turkiy, forsiy va arabiy izofa.	
13-mavzu	Gap.	
1.1.	Gap va uning turlari.	

1.2. 1.3.	Bir tarkibli va ikki tarkibli gaplar. Sodda va qo’shma gaplar.	
14-15-mavzu	Gap bo’laklari.	
1.1. 1.2. 1.3.	Eski o’zbek tilida bosh bo’laklar. Eski o’zbek tilida ikkinchi darajali bo’laklar. Uyushiq bo’laklar, undalma va kirishlar.	
16-17-mavzu	Eski o’zbek tilida qo’shma gap.	
	1. Bog`lovchisiz qo’shma gaplar. 2. Ergash gapli qo’shma gaplar. 3. Bog`lovchisiz qo’shma gpalar. 4. 4.Ko’chirma gaplar.	
18-mavzu	Leksika.	
	1. Eski o’zbek tilida o’z va o’zlashma qatlam. 2. Eski o’zbek tilida ko’p ma’noli so’zlar. 3. So’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari. 4. Punktatsiya.	

Ma’ruza №1. Kirish. O’zbek tilining tarixiy grammatikasi kursining predmeti, uning maqsad va vazifalari

R e j a:

1.O’zbek tilining tarixiy grammatikasi til tarixi fanlaridan biri sifatida.
2.O’zbek tili tarixiy grammatikasining manbalari.
3.O’zbek tili tarixiy grammatikasining o’rganilish tarixi.

Tayanch tushunchalar:

O’zbek tili tarixi-o’zbek tilining turkiy tillardan ajralib, mustaqil taraqqiy etishini yoritadigan fan.

O’zbek tilining tarixiy grammatikasi- o’zbek tilining fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik tizimini o’rganuvchi o’zbek tili tarixining uzviy qismidir.

O’zbek tili tarixiy grammatikasining manbalari- tarixiy grammatikada taxlili qilish, xulosa chiqarish uchun asos bo’ladigan til faktlarini tashuvchi o’zbek tilida yaratilgan yozma yodgorliklar.

O’zbek adabiy tili tarixi- o’zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini, normalari tarixini o’rganadigan o’zbek tili tarixining uzviy qismidir.

Eski o’zbek adabiy tili- XIV asrlarda shakllana boshlagan va XV asrda rivojlangan hamda to XX asrning boshlarigacha qo’llangan adabiy til nomlaridan biridir.

O’zbek tilining tarixiy grammatikasi o’zbek tili tarixi fanining bir tarmogidir. Ma’lumki, til tarixi o’zbek tili fonetik sistemasining, grammatik qurilishi va leksikasining tarixidir. O’zbek tili tarixi o’zaro bogliq bo’lgan ikki mustaqil predmetni o’z ichiga oladi. Bu predmetlar - o’zbek tilining tarixiy grammatikasi va adabiy til tarixidir. Bu ikki predmet ichki bir-biriga bogliq bo’lishiga qaramasdan, ularning o’rganish usullari, tekshirish ob`ektlari bir-biridan farq qiladi. Tarixiy grammatika tilning fonetik sistemasi taraqqiyotini, grammatik strukturasining rivojlanishini o’rganadi. Lekin til hodisalarining ijtimoiy hodisalar bilan bo’lgan munosabatini, uslublar taraqqiyotini va ularning turli ko’rinishlarini, tilning normasi kabi masalalar uning tekshirish ob`ektidan chetda qoladi. Bo’larni esa adabiy til tarixi tekshiradi.

Til tarixini o’rganish hozirgi zamon o’zbek tilini tarixiy tushunish, ya`ni bu til uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab tarixiy jarayonlar samarasi ekanini anglash imkonini tug’diradi. O’zbek tili uzoq davr va asrlarning tarixiy mahsulidir. O’zbek tili tarixda ma`lum bo’lgan boshqa tillar kabi uzoq taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi. a’ jamiyat va xalq tarixi bilan uzviy bogliq xolda urug’ tilidan qabila, qabila tilidan xalq va xalq tilidan milliy tilga qarab taraqqiy etib keldi. a’zoq davom etgan bu jarayonda o’tmish asrlardagi til hodisalari keyingi asrlardagi til hodisalaridan farqlanib qoldi. Har bir o’tmish davr, tarixiy hodisalar tilda o’z izlarini saqlab qoldi. Natijada hozirgi zamon o’zbek tili uning o’tmishidan uzoqlashib ketdi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning talablariga javob berolmagan til hodisalari asta-sekin umumtil aloqasidan chiqib ketdi. a’larning o’rnini zamona talabi bilan paydo bo’lib kelgan yangi hodisalar ishgol etdi. Shuning natijasida yuqorida aytilganidek, hozirgi o’zbek tili o’zining o’tmishidan uzoqlashib qoldi. Bu hodisalarni yozuv yodgorliklarida aks etilgan hodisalar bilan chogishtirilganda ko’rish mumkin.

Tarixdan ma`lumki, tilning struktura elementlari uzoq o’tmish davr ichida bir xilda o’zgarib kelmadi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot dastavval tilning leksikasiga o’z tasirini o’tkazadi va shunga ko’ra tilning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda uning lug’at tarkibi juda o’zgaruvchan qismdir. Xaqiqatan ham, ijtimoiy taraqqiyotning yo’nalishi va xususiyatlariga

qarab o’zbek tilining lug’at tarkibi tez-tez o’zgarib, yangilanib turdi. a’ning tarkibida zamona va taraqqiyot talablariga javob berolmaydigan so’z va iboralar chiqib ketdi. a’larning o’rnini yangi lug’at va iboralar egalladi. qator so’zlar esa aktiv lug’atdan passiv lug’atga aylanib ketdi.

XII asr boshlarida Xorazm davlatining mavqei ko’tarilib, butun Movarounnaxrni o’z ichiga oladi. Bu yer fan va madaniyat o’chogiga aylanadi. Mo’gullar xukmronligi davrida ham bu an`ana davom etadi. Bu davrda Xorazm Oltin o’rda xonligiga kirar edi. Oltin o’rdada XIII-XIV asrlar mobaynida adabiy markaz vujudga keldi. Bu erda yozilgan asarlar til jixatdan ko’proq qipchoq-o’guz qabila tillari xususiyatini o’zida ifodalaydi. O’guz urug’lari son jixatidan ko’pchilikni tashkil etib, ular Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmda joylashgan edi. Xorazmiyning «Muxabbatnoma»si, Qutbning «Xisrav va Shirin» asari, diniy harakterdagi «Roxatul- qulub», «Najxul farodis», Alining «#issai Yusuf», asarlari Oltin o’rda adabiy tilini tashkil etadi. Oltin o’rda adabiy tiliga oid asarlarning ayrimlari Misrda va Suriyada mamlyuklar davrida yaratildi.

Oltin o’rda adabiy tili qoraxoniylar davridagi adabiy til bilan boglangan edi. Oltin o’rda adabiy tili shu tilning bevosita davomi edi. Bu tillarning farqi Oltin o’rda ko’proq o’guz, qisman qipchoq urug’ tillari xususiyatlarining bo’lishi bilan o’lchanadi. Bu erda yozilgan asarlar til jixatdan ko’proq qipchoq-o’guz urug’ tillari xususiyatini o’zida ifodalaydi. Xorazmiyning «Muxabbatnoma»si, qutbning «Xusrav va Shirin» dostoni, diniy harakterdagi «Roxatul qulub», «Najxul farodis», Alining «qissai Yuauf» asari, To’xtamish va Temur qutluq yorliqlari Oltin o’rda adabiy tilini tashkil etadi.

XIV asrga kelib eski o’zbek adabiy tili shakllana boshladi. Buning vujudga kelishiga sabab faqatgina ichki faktorlar: o’zbek xalqi shakllanish jarayonining kuchayishi, Fargona va Movarounnaxr turkiy axolisi birligining yaratilishigina emas, balki Koshgarda va Orol dengizigacha bo’lgan yerni ishg’ol qilgan Oltin o’rda adabiy tillarining shakllanishi ham tasir qildi. Bu esa, o’z navbatida, eski o’zbek adabiy tilining dialektal xususiyatlarini ko’paytirar edi. Fargona va Movarounnaxrda adabiy asarlar tilidan Xorazmda yozilgan adabiy asarlar tili ma`lum dialektal farqlar bilan ajralib turadi. Eski o’zbek tilining shakllana boshlash davrida qabila va urug’ tillarining xususiyatlari adabiy asarlarda yaqqol ko’rinadi. Movarounnaxr, Fargona va Xorazmda qarluq, uygur-o’guz va qipchoq dialekt gruppalarining xususiyatlari saqlanishi bilan, ayni zamonda, ular aralashib ketgan edilar ham. «Muxabbatnoma» va «Taashshuqnoma»da o’guz dialekti xususiyati o’z aksini topadi. Demak, mavjud dialekt xususiyatlarini o’z ichiga qamrab olgan umumiy adabiy tilni shakllantirish tendentsiyasi kuchaya boradi va shu tariqa o’zbek adabiy tili vujudga keldi.

XV-XVI asrlarda Movarounnaxrda Durbek, Sakkokiy, Lutfiy va Navoiy kabi buyuk shoirlar etishib chiqdiki, ular yaratgan yodgorliklarda dialektal farqlar yo’qola borib, yagona o’zbek adabiy tili shakllandi.

Shunisi harakterliki, Navoiygacha bo’lgan shoirlarning asarlarida eski turkiy til an`analari davom ettirilishi bilan birga, ularda jonli til xususiyatlari ko’proq o’rin egallaydi.

XV asrning birinchi yarmida diniy mazmundagi bir qancha prozaik asarlar ham yaratildi. Bular «Sirajul qulub»(an’32-yil Yazd shaxrida Mansur baxshi tomonidan tuzilgan), «Tazkirai avliyo»(an’q6 yilda Mansur baxshi tomonidan tuzilgan), «Me`rojnoma», «Baxtiyornoma» v.b. Bu asarlar sodda va jonli tilga yaqindir. a’lar eski o’zbek tilining rivojlanishida katta rol` o’ynadi. Eski o’zbek adabiy tili avval qoraxoniylar davrida, keyinroq Oltin o’rda va Movarounnaxrda qo’llangan adabiy tilning davomi, uning yangi taraqqiyot bosqichi edi. Eski o’zbek adabiy tili maxalliy turkiy va qisman eron urug’lari tiliga qipchoq va o’guz tillarining tasiri va aralashishi natijasida shakllandi. Eski o’zbek adabiy tili butun o’rta Osiyoga, Qozogiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdiston, qashqar, Xirot va boshqa yerlargacha yoyiladi. Eski o’zbek adabiy tili normalari asosida yozuvchi shoir va yozuvchilar

XIX asrlargacha ijod qilib keldilar. Bu adabiy til an`analari ayniqsa she`riyatda uzoq asrlargacha davom etdi.

Alisher Navoiy asarlarida eski o'zbek adabiy tili o'z rivljining yuqori nuqtasiga ko'tarildi. Alisher Navoiy juda katta adabiy va ilmiy meros qoldirdi. a'ning «Chor devon» va «Xamsa» nomli poetik asarlari, «Mahbubul qulub», «Xamsatul mutaxayyirin», «Majolisun nafois», «Mezonul avzon», «Vaqfiya», «Muxokamatul lug'atayn», «Holoti Paxlavon Muhammad» kabi o'nlab prozaik asarlari bizga ma'lum.

Alisher Navoiydan keyin yaratilgan prozaik asarlar va ba`zi dostonlarda eski o'zbek tilining traditsion normalaridan uzoqlashish, xalq tiliga yaqinlashtirish tendentsiyasini ko'ramiz. Zaxiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari, Muhammd Solixning «Shayboniynoma», Majlisiyning «qissai Sayfulmulk» dostoni, Abdulvaxobxo'ja o'gli Poshshoxojaning «Gulzor» va «Miftoxul adl» asarlari, Nishotiyning «Xusnu dil» dostoni, Gulxaniyning «Zarbo'lmasal» asari, Fazliyning «Majmuatush shuaro» asari shunday xususiyatga egadir.

Turkiy tillar va ularning tilini o'rganishga qiziqish XI asrlardanoq boshlangan. Maxmud Qoshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida o'rta Osiyodagi turli turkiy urug'-qabilalar tilini chuqur taxlil qiladi. Keyingi davrlarda turkiy tillarning lug'atlari tuziladi, ba`zi lug'atlarda shu tillarning grammatik, fonetik, leksik taxlili ham beriladi. Zamaxshariyning «Muqaddimatul adab», Abu Xayyonning «Kitabo'l idrak lil lisanul atrak», Jamoliddin Abu Muhammadning «Kitab bo'lgatul mushtaroqi lug'atit turk val qifchaq», Tole` Xiraviyning «Badoeul lug'at», Mirza Maxdiyxonning «Sanglox» va boshqa asarlarda ana shunday taxlillar mavjud. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning «Muxokamatul lug'atayn» asarida turkiy tillar grammatikasiga oid qimmatli fikrlar bor.

Rossiyada turkiy xalqlar va ularning tillari bilan shugullanish Rossiya Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan davrlardanoq boshlangan. XIX asr boshlarida Moskva, qozon, Peterburg universitetlarida sharq tillari kafedralari tashkil etildi. qadimgi yodnomalarni nashr qilish va turkiy tillar tarixini o'rganishda rus olimlaridan V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malov, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, N.F.Katanovlarning xizmati kattadir.

O'zbek tili tarixiy grammatikasini tadqiq etish, bu fan bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalari yaratishda G.Abduraxmonov, A.Rustamov, Sh.Shukurov, F.Abdullayev, E.a'marov, S. Ashirboyev, X.Dadaboyev, B.To'ychiboyev va boshqa ko'plab olimlarning xizmati beqiyosdir. a'lar tomonidan eski o'zbek tili yodnomalari tilining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi.Til tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar to hozirgi kungacha davom etmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1.O'zbek tilining tarixiy grammatikasi fani nimani o'rganadi?
2.O'zbek tilining tarixiy grammatikasi qaysi fanlar bilan yaqin aloqada bo'ladi?
3.O'zbek tili tarixiga oid qanday asarlarni bilasiz?

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To'ychiboyevB. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza № 2. Fonetika.
Eski o’zbek tilida unli va undoshlar taraqqiyoti

Reja

- *Tarixiy fonetikaning o’rganish ob`ekti, manbalari.*
- *O’zbek tili tarixiy fonetikasining o’rganilish tarixidan.*
- *Eski o’zbek tilida unlilar tizimi.*
- *Eski o’zbek tilida unlilar cho’ziqligi.*
- *undoshlar tizimi.*
- *Tovushlar uygunligi.*

Tayanch tushunchalar

Tarixiy fonetika*- o’zbek tili fonetik tizimining taraqqiyot tarixini o’rganadigan o’zbek tili tarixiy grammatikasining bir bo’limidir.*

Eski o’zbek youvi*- arab alifbosi asosidagi o’zbek yozuvining nomlaridan biri.*

Fonetik tizim (sistema)*- o’zbek tili va uning taraqqiyoti davridagi unli va undoshlar, fonetik qonuniyatlar, urgu hamda intonatsiya kabi barcha fonetik hodisalarning jamlanmasi.*

unlilar tasnifi *- og’iz bo’shligida tilning harakati hamda ogizning ochilish darajasi, lablarning ishtirokiga ko’ra unlilarni guruxlarga ajratish.*

Yumshoq unli *- old qator unli.*

qattiq unli *- orqa qator unli.*

Singarmonizm *– unlilar uygunligi qonuni.*

Palatal singarmonizm *– unlilarning tanglay (old qator-orqa qator) uygunligiga asoslangan singarmonizmning turi.*

unlilarning birlamchi cho’ziqligi *– turkiy so’zlarning birinchi bo’ginida qayd qilinadigan unlilarning tabiiy cho’ziqligi.*

unlilarning ikkilamchi cho’ziqligi *– so’zdagi biror undosh tovushning kuchsizlanishi va tushib qolishi xisobiga yuz beradigan cho’ziqlik.*

Tarixiy fonetika o’zbek tili unli va undosh tovushlarining turli davrlardagi taraqqiyoti,har bir taraqqiyot davri uchun xos bo’lgan fonetik sistema, ayrim unli va undosh tovushlarning shakllanishi va tadrijiy taraqqiyoti, asosiy fonetik qonuniyatlar, bugin tuzilishidagi tarixiy o’zgarishlar kabi qator masalalarni urganadi va urgatadi.

Fonetik sistema tilning qurilish birliklari orasida o’zining uzgaruvchanligi bilan leksikadan keyin ikkinchi urinda turadi.Buning sababi shundaki, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari, tashqi muxit-qo’shni tillar, jamiyat va fan-texnikaning rivoji, yangi-yangi suzlarning kirib kelishi tilning fonetik qurilishiga tez tasir qiladi.

Tildagi o’zgarishlar birdaniga – bir- ikki yil orasida emas, balki asta- sekinlik bilan uzoq davr davomida sodir bo’ladi. Dastlab onda- sonda uchraydigan hodisalar, fonetik variantlar, yonma- yon qullanishlar asta-sekin qonuniyatga aylanadi. Shuning uchun har bir davrdagi til shu tilda suzlovchilar uchun uzgarmasday, barqarorday tuyuladi. Vaxolanki, tilda taraqqiyot va o’zgarish jarayoni xech qachon tuxtamaydi. O’zbek tili esa bir necha taraqqiyot davrini boshidan kechirdi va har bir davrning o’ziga xos qonuniyatlari, fonetik sistemasi bor. har bir taraqqiyot davri uchun xos bo’lgan fonetik sistemani tiklash, tasvirlash kabi masalalar ham o’zbek tilining tarixiy fonetikasida urganiladi.

O’zbek tilining turli davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar, ilmiy va badiiy asarlar tarixiy-fonetik tadqiqot uchun eng asosiy manba vazifasini utaydi, chunki har bir yozma yodgorlikda shu yodgorlik yaratilgan davr tili uz aksini topadi. har bir yozma yozma yodgorlikni atroflicha o’rganish asosida shu yodgorlik yaratilgan davrdagi o’zbek tilining xususiyatlari, jumladan, fonetik qonuniyatlarini aniqlash mumkin.

O’zbek klassik adabiyotida she`riy janrning keng rivojlanganligi, qofiyada o’zaro o’xshash so’zlarning ishlatilishi, shakldoshlikka asoslanib yoziladigan tuyuq janrining mavjudligi fonetik tadqiqotlarga ma`lum darajada imkon beradi. Turli taraqqiyot davrlarida yozilgan asarlar tilining fonetik xususiyatlarini qiyoslash asosida esa o’zbek tili fonetik sistemasining taraqqiyot yo’lini aniqlash mumkin. Lekin biz o’tmish davrlar talaffuzini bevosita kuzatish imkoniyatidan maxrummiz. O’z navbatida, yozuv ham talaffuzni to’la-to’kis aks ettirmagan, shu sababli tarixiy fonetikani o’rganish katta to’siqlarga uchraydi. Ta`kidlash lozimki, o’zbek tili tarixiy fonetikasini o’rganish jarayonida yozma yodgorliklar orasida filologik-tilshunoslik va adabiyotshunoslik asarlari beqiyos ahamiyatga ega. Chunki bunday asarlarda tadqiqotchi o’zi bilgan va tasvirlayotgan tilning fonetik xususiyatlari, u yoki bu so’zning talaffuz shaklini ma’lum darajada tasvirlab beradi. Mahmud Qoshg’ariyning «Devonu lug’atit-turk», Abu Xayyonning «Kitobo’l-idrok lil-lisonul-atrok», Alisher Navoiyning «Muxokamatul-lug’atayn», «Mezonul-avzon», Zaxiriddin Boburning «Muxtasar», Tole` Xiraviyning «Badoeul-lug’at», Mirza Maxdiyxonning «Maboniul-lug’at» grammatikasi va «Sanglox» lug’ati, Fatxali Kojariyning «Lug’ati atrokiya» kabi asarlaridagi noyob fonetik ma`lumot va izoxlar o’zbek tili tarixiy fonetikasini o’rganish uchun eng muhim manbalar sanaladi.

Yozma yodgorliklardan tashqari, o’zbek tili tarixiy fonetikasini o’rganish uchun hozirgi o’zbek shevalari, o’zbek tiliga qarindosh bo’lgan boshqa turkiy tillar, ayniqsa, qo’shni uygur, qozoq, qoraqalpoq, turkman tillarining hodisalari ham katta ahamiyatga ega. O’zbek tili fonetik sistemasidan chiqib ketgan qator hodisalar (old va orqa qator unlilarning fonologik farqi, cho’ziq va qisqa unlilar, uygunlik (singarmonizm) hodisasi, tovush almashinuvlari) o’zbek shevalarida hamda boshqa turkiy tillarda saqlangan va rivojlangan. O’zbek shevalari va boshqa turkiy tillarda saqlangan qonuniyatlar esa o’zbek tilining tarixida amalda bo’lgan deb taxmin qilish mumkin.

O’zbek tili tarixiy fonetikasi va grammatikasini bilish ona tili va adabiyot mutaxassislari uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega, chunki tarixiy fonetika hozirgi o’zbek tilidagi qator fonetik xususiyatlar (son-sana, to’la-to’lov kabi tovush almashinuvlari), bir qo’shimchaning turli fonetik variantlarda uchrashi (chiqqan, ekkan, kelgan va h.k), stilistik maqsadda qo’shimchalarning eskirgan fonetik ko’rinishlari ishlatilish sababi, fonetik o’zgarishlar zaminida so’zlarning yangi ma’no kasb etish imkoniyati (quyi va quduq, tizgin va tiygin, qishloq va qishlov) va boshqa shu kabi hodisalarni tushuntirib beradi.

Tarixiy fonetika hozirgi o’zbek shevalari xususiyatlarini tugri izoxlash va dialektal xatolarni bartaraf etishning qulay usullarini ishlab chiqishda ham aloxida ahamiyat kasb etadi.

Eski turkiy tilni amaliy ravishda o’rganishni boshlab bergan va asari bizgacha etib kelgan olim Maxmud ibn Husayn Koshg’ariydir. U o’zining «Devonu lug’atit turk» asarida turkiy adabiy tilni tasvirlash bilan cheklanib qolmay, o’zi yashagan davrdagi ko’pgina shevalar va ulardagi talaffuz xususiyatlari haqida ham atroflicha ma`lumot beradi.

Shuningdek, turkiy tillarni urganishga bagishlab yozilgan Maxmud Zamaxshariyning «Muqaddimatul-adab», Abu Xayyonning «Kitobo’l-idrok lil- lisonul-atrok», Muxannaning «Tarjumon turkiy va mug’uliy va forsiy» kabi lug’at va grammatikalarda ham turkiy tillar fonetikasiga oid qimmatli ma`lumotlar bor.

XV asrdagi eski o’zbek tili unli tovushlarining batfsil tavsifini, bu tildagi unlilar, ularning fonetik kurinishlari haqidagi muxim ma`lumotlarni Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lug’atayn» asaridan topamiz. Alisher Navoiy ijodidan keyin eski o’zbek tiliga qiziqish kuchayadi. XVI asrda Xusayn Boyqaro buyrugi bilan Tole` Xiraviy tomonidan, asosan, forsiy tilda yozilgan «Badoeul-lug’at», Mirza Maxdiyxonning «Maboinul- lug’at» grammatikasi va «Sanglox» lug’ati, Fatxali Kojariyning «Lug’ati atrokiya», usmonli turk tilida XV asrda yozilgan «Abushqa» lug’ati, Shayx Sulaymonning «Lug’ati chigatoiy va turkiy usmoniy» asarlaridagi eski o’zbek tili suzlarining talaffuz xususiyatlari haqida berilgan izoxlardan ham o’zbek tili tarixiy fonetikasi buyicha muxim ma`lumotlarni olish mumkin.

O’zbek tili tarixiy fonetikasini urganishda rus va o’zbek tilshunoslarining ham xizmati katta. V.V.Radlovning eski o’zbek tili yodgorliklari fonetikasi buyicha ishlari, K.K.Yudaxinning «Chigatoy tilining fonetik sostavi haqida materiallar», A. K. Borovkovning «Alisher Navoiy-

eski o’zbek tilining asoschisi», Tole` Xiraviyning Navoiy asarlariga lug’ati, A.M.Shcherbakning «Navoiy tili», «Eski o’zbek tili grammatikasi» kabi asarlarini qayd etish lozim.

O’zbek tilshunoslarining o’zbek tili tarixiy fonetikasi bilan qiziqishlari 60- yillardan keyin kuchaydi. Professorlar F.Abdullayev, G.Abduraxmonov, A.Rustamov, X.Doniyorov eski o’zbek tili unli va undoshlari sistemasi, ayrim fonetik hodisalar buyicha qator ilmiy ishlarni nashr ettirdilar va Alisher Navoiy asarlari ma`lumotlari asosida eski o’zbek tili unlilari sistemasi ustida tadqiqot ishlari olib bordilar. E. a’marov Tole` Xiraviy, Mirza Maxdiyxon va Kojariy lug’atlari asosida XV, XVII va XIX asrlarda o’zbek tili unlilariga oid muxim kuzatishlarni umumlashtirib e`lon qildi. G.Abduraxmonov va A. Rustamovlarning o’zbek tilida birinchi marta nashr etilgan oliy yurtlari talabalari uchun «Qadimgi turkiy til» darsligida turkiy tillar uchun mushtarak bo’lgan O’rxun-enisey yodgorliklarining fonetik xususiyatlari atroflicha bayon etildi.

O’zbek xalqi ming yildan ortiqroq davr mobaynida arab alifbosi asosidagi yozuvdan foydalanib keldi. O’zbek xalqining a920-yilgacha yaratgan tarixiy, ilmiy va badiiy yozma yodgorliklari, asosan, mana shu yozuvda etib kelgan. Yozuv va til, ayniqsa, fonetika bir- biri bilan aloqador bo’lganligi sababli eski o’bek yozuvidan xabarsiz bo’lgan shaxs o’zbek tilining tarixiy fonetikasini uzlashtirishi mumkin emas.

Turkiy xalqlar uz tarixi mobaynida qullagan bir necha yozuv- runiy, qadimgi uygur, sugd va boshqa yozuvlar ichida keng va uzoq qullanilgani arab alifbosi asosidagi yozuv bo’ldi. Malumki, arab alifbosi kam unlili va ko’p undoshli semit tillariga muljallangan. Bu tillarda cho’ziq va qisqaligi bilan farqlanuvchi uchta unli fonema bor - a, i, u. Yozuvda, asosan, cho’ziq unlilar ifodalanadi, qisqa unlilar harakatlar - ost, ust belgilari bilan beriladi va yozuvda ifodalanmaydi. Ta`kidlash joizki, turkiy (o’zbek) matnlarida qanday bo’gin bo’lishidan qat`i nazar unli harflarning yozilishi arab, fors tillariga nisbatan turgunroqdir.

Ayrim undoshlar uchun ikki xil ***t*** va h, uch xil **s,** to’rt xil **z** belgi bor. Shuningdek, arab tiliga xos bo’lgan chuqur bugiz portlovchisi va sayoz bugiz portlovchisini ifodalovchi *ayn* va *hamza* harflari bor. Bundan tashqari, arab alifbosida turkiy tillarda keng tarqalgan **p, ch, g** undoshlari uchun maxsus harflar yo’q. Keyinchalik **pe ( ), chim ( ), gof ( )** harflari turkiy til alifbosiga kiritilgan bo’lsa-da, ular juda kam ishlatilgan va qul yozma asarlarda deyarli yozilmagan.

Eski o’zbek tili haqida gapirganimizda, undagi qat`iy qoidani ta`kidlash joiz: arabcha va forscha so’zlar manba tili yozuvida qanday yozilsa, turkiy matnlarda ham shunday yozilgan. a’larning tugri yozilishiga juda katta e`tibor berilgan,arabcha suzlar yozilishini buzish qupol xato, madaniyatsizlik va savodsizlik xisoblangan.

Eski o’zbek tilidagi, umuman, o’zbek tili tarixida qo’llangan unlilarning miqdorini belgilash masalasi munozaralidir. Tadqiqotchilarning unlilarni aniqlash borasida turli tamoyillarni - unlilarning old qator-orqa qator, cho’ziq-qisqalik xususiyatlarini asos qilib olishi natijasida ularning miqdorini ayni bir xil belgilash uchun qiyinchilik tugdirib keldi. Til tarixiga oid ilmiy ishlarda eski o’zbek tilida 6 ta, hta, 9 ta unlining mavjud bo’lganligi haqida fikrlar uchraydi.

Eski o’zbek tilidagi turkiy so’zlarda singarmonizm qonunining amal qilishi, hozirgi o’zbek shevalarida kontrast juft unlilarning saqlanib qolishi eski o’zbek tilida 9 ta unli, arabcha, forscha so’zlardagi a unlisining eski o’zbek tilidagi o’rni qat`iyligini xisobga olganda a0 ta unli mavjud bo’lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, eski o’zbek tilida 10 ta unli fonema bo’lib, ular quyidagilar:

a, ə, o, o’, u, y, i, ı, e, a-.

a’nlilar harakteristikasi:

a- umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan. Manbalarda *alif* bilan beriladi, ayrim qisqa bo’ginlarda harfiy ifodaga ega bo’lmaydi.

a- arab, fors tilidan o’zlashgan so’zlarda qo’llanadi, orqa qator, quyi-keng, lablangan. YOzuvda har doim harfiy ifodaga ega va *alif* bilan berilgan.

a- aksariyat turkiy tillarda mavjud, old qator, quyi-keng, lablanmagan. Manbalarda *alif* bilan beriladi, qisqa bo’ginlarda *alif* ifodalanmasligi ham mumkin.

e- turkiy tillarda keyin paydo bo'lgan va *i* old qator unlisining varianti sifatida vujudga kelgan. Eski o'zbek tilida mustaqil unli sifatida qatnashadi, kontrast juftligi yo'q, old qator, o'rta-keng, lablanmagan unli, yozuvda so'z boshida *alifu yoy* bilan, so'z o'rtasi va oxirida *yoy* bilan yoziladi. Ayrim yodgorliklardagi qisqa bo'ginda hfhaiy ifodaga ega bo'lmasligi mumkin.

i- umumturkiy, old qator, yuqor-tor, lablanmagan. harfiy ifodasi *e* unlisiga aynandir.

i- umumturkiy, orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan, harfiy ifodasi *i* unlisi bilan aynandir.

o- umumturkiy, orqa qator, o'rta-keng, lablangan. So'z boshida *alifu vov*, so'z o'rtasi va oxirida *vov* bilan berilgan.

o'- umumturkiy, old qator, o'rta-keng, lablangan. harfiy ifodasi *o* bilan aynandir.

u- umumturkiy, orqa qator, yuqori-tor, lablangan, harfiy ifodasi *o* unlisi singaridir.

6- umumturkiy, old qator, yuqori-tor, lablangan, harfiy ifodasi *o, o',u* unlilari bilan o'xshash.

Bu unlilar o'rni bilan birlamchi va ikkilamchi cho'ziqliklarga ega bo'ladi. a'lar xuddi hozirgi o'zbek tilidagidek, uch xil xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi:

I. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra:

a.Old qator(til oldi, yumshoq) unlilar: a, *i, 6, o', e.*

2. Orqa qator(til orqa, qattiq) unlilar: *a, i, u, o, a-.*

II. Tilning vertikal holatiga ko'ra:

a.Yuqori(tor): 6, *u, i, i.*

2.o'rta(keng): o', *o, e.*

3.quyi(keng*): a,a, a.*

III. Lablarning ishtirokiga ko'ra:

a.Lablangan: *u, 6, o, o', a.*

2.Lablanmagan: *a, a, i, i, e.*

Arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvida bu unlilarning har biri uchun aloxida belgi bo'lmasa-da, so'zning o'zak va qo'shimchasi tarkibidagi q,g' o'zakdagi unlining qattiqligiga, k, g esa yumshoqligiga ishora qilib keladi: *atqa-otga; etka-go'shtga; to'rga-to'rga, (yuqoriga).*

hozirgi o'zbek adabiy tili talaffuzi va yozuvida old qator(yumshoq) va orqa qator(qattiq) unlilar keskin farqlanmaydi. Lekin eski o'zbek tilida bu farq katta ahamiyatga ega. a'nlilarning qatori old, orqa ekanligi tilning gorizontal-tishlar yoki bo'giz tomonga harakati bilan belgilanadi. Tilning tishlarga yaqinlashgan holatida talaffuz etilganda, old qator unlilar xosil bo'ladi. Orqa qator unlilar talaffuz etilganda, tilning uchi milkdan ancha uzoqlashadi.

a'nlilarning qattiq-yumshoqligi hozirgi o'zbek tilidan boshqa barcha turkiy tillarda, shuningdek, eski o'zbek tilida ham juda katta ahamiyatga ega, unlilarning qattiq-yumshoqligi so'z manolarini farqlashga xizmat qiladi: *olturdi-o'tirdi, o'lturdi-o'ldirdi;to'r-uyning to'ri, tor-to'r,tuzoq.*

O'zbek tili tarixida cho'ziq unlilar haqida so'z yuritilganda, uch masalani farqlash lozim:

a. Arab va fors tillaridan eski o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarda cho'ziq va qisqa unlilarning o'zaro munosabati.

Turkiy so'zlardagi unlilarda birlamchi cho'ziqlik.

Turkiy so'zlardagi ikkilamchi cho'ziqlik.

Arab va fors tillarida unlilar ikki xil- qisqa va cho'ziq bo'ladi. Bu tillardagi cho'ziq-qisqalikning farqi mustaqil fonologik farq bo'lib, cho'ziq va qisqa unliar aloxida fonemalarni tashkil etadi. Lekin bu tillarda unlilarning qattiq-yumshoqligi farqlanmaydi.

O'zbek tiliga arabcha va forscha so'zlar kirib kela boshlashi bilan bu so'zlarda cho'ziq va qisqa unlilarning mano farqlash vazifasi ham kirib keldi: *adam- odam; adam-yo'qlik; a* va a bilan eski o'zbek tilida mavxum otlarning birlik va ko'plik formalari farqlanadi: *adab-adab, adab-odoblar.*

Turkiy so'zlardagi birlamchi cho'ziqlik masalasi juda murakkabdir. Olimlar taxminiga ko'ra juda qadimgi yozma yodgorliklari bizgacha etib kelmagan davrlarda (umumturkiy tilda)-turkiy so'zlarda cho'ziq va qisqa unlilar farqlangan. Eski turkiy hamda eski o'zbek tilida cho'ziq va qisqa unlilarning farqlanishi, ularning fonologik ahamiyati haqida qarama-qarshi ma`lumotga egamiz. Mahmud Qoshg'ariy, Tole` Xiraviy, Mirza Maxdiyxon va boshqa tilshunoslar cho'ziq a,

ba`zan cho'ziq i unlisi haqida yozadilar. Maxmud Qoshg'ariy a unlili so'zlarni ikki alif bilan keltirgan.

Maxmud Qoshg'ariy turkiy so'zlarning unli tovushlarini tavsiflab shunday yozadi. «a'nlilarni cho'ziq yoki qisqartirib talaffuz qilish so'zga zarar bermaydi» (Mq,I,qho'). «Devon»ning boshqa bir joyida yana ham aniqroq qilib yozadi: *yigach* deyish ham mumkin, *yigach* deyish ham mumkin, *tanuq* deyish ham, *tanuq* deyish ham mumkin. (Mq,II,n'o'). Mahmud Qoshg'ariyning bu so'zlaridan bitta xulosa chiqarish mumkin: XI asr adabiy tilida cho'ziq unlilar shu davr urug'-qabila tillarida bir xil bo'lmagan, ya`ni u ayrim urug'-qabila tillari (shevalari)da mavjud bo'lgan va ayrimlarida esa qo'llanmagan. Ma'lumki, bu holat hozirgi o'zbek tilida ham shunday holatdadir. Birlamchi cho'ziq unlilar hozirgi o'zbek tilining Iqon, qorabo'loq, Forish kabi shevalarida saqlanib qolgan, boshqa shevalarda esa qo'llanmaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi turkiy tilning barcha shevalarida birlamchi cho'ziqlik umumtil harakteriga ega bo'lmagan.

Alisher Navoiy eski o'zbek tilining fonetik imkoniyatlari, she`r tuzish va qofiyalashdagi qulayliklari haqida to'xtalib, bu tildagi unlilarning qisqa ham, cho'ziq ham talaffuz etilishi she`riyat uchun qulay ekanini ta`kidlaydi. Buyuk mutafakkir, jumladan, *ara* so'zini *ara* sifatida talaffuz etib, forscha *sara, dara* so'zlari bilan ham, *ara* sifatida talaffuz qilib, cho'ziq unlili forscha *sara, dara* so'zlari bilan ham qofiyalash mumkinligini uqtiradi (ML,aan'). Alisher Navoiyning bergan ma`lumotlaridan ham qat`iy xulosa chiqarish mumkin: turkiy so'zlarda cho'ziq-qisqalik fonologik vazifani bajarmagan.

Eski o'zbek tilidagi keyingi cho'ziqlik so'zning o'rtasi va oxirida *g, g', y, h* tovushlarining tushib qolishi natijasida xosil bo'lgan: *bi:z-bigiz; ki:z-kigiz; qi:n-qiyin.* Alisher Navoiy *biz (*kishilik olmoshi*)* va *bi:z-bigiz* so'zlarini zid qo'yar ekan, mana shu keyingi cho'ziqlik haqida ma'lumot beradi (ML,aan').

a'nlilar uygunligi (*singarmonizm* - grekcha *sin*-o'xshash, *harmoni*- oxang) turkiy tillarning muxim fonetik xususiyatlaridandir. a'nlilar uygunligi deb, so'zning o'zak va qo'shimchalaridagi tovushlarning o'zaro moslashishi, uygunlashishi, bir-biriga o'xshash bo'lishiga aytiladi.

a'nlilar uygunligi *tanglay (palatal-velyar)* va *lab (labial)* kabi ikki turga bo'linadi.

Tanglay uygunligi. So'zning o'zagida orqa qator (a,i,o,u,a – a,i,o,u) unli bo'lsa, qo'shimchada ham orqa qator unli, so'zning o'zagida old qator unli (a,e,i,6,o'-a,e,i,6,o') kelsa, qo'shimchada ham old qator unli kelishi tanglay uygunligi deyiladi. Misollar: *atnin', kelgan, bargan, ishlar*

Eski turkiy va eski o'zbek tillaridagi tanglay uygunligining o'rta asr tilshunoslari tomonidan talqini ham diqqatga sazovordir. Maxmud Qoshg'ariy turkiy so'zlarni ikki guruxga *q, g'* li qattiq o'zakli so'zlar, *k,g* li yumshoq o'zakli so'zlarga bo'ladi.

Lab uygunligi. So'zning o'zagida lablangan *o,o',u,6 (i,o',u,6)* unlilardan biri kelsa, qo'shimchadagi unli tovushning ham o'zakdagi unli tovushga moslashib lablanishiga lab uygunligi deyiladi. Tanglay uygunligidan farqli o'laroq, lab uygunligi keng tarqalmagan.Misollar. *qolum, ko'zu'm, yu'zu'm, tushtum.*

Singarmonizm qisman undoshlarga ham aloqadordir. Old va orqa qator unlilarninguygunlashib kelishi so'zlardagi undoshlar variantini tanlashga olib keladi. Masalan, *boshlagan, kelgan* so'zlaridagi sifatdosh qo'shimchasining *g'* va *g* undoshlarda qatnashishi unlilar uygunligi tufaylidir. Bu,ayni zamonda, affikslarningvariantlarini ko'paytirishga xizmat qiladi (Bu xaqda morfologiya qismida baxs qilinadi).

a'ndoshlar taraqqiyoti. Eski o'zbek tilidagi undoshlar tavsifi Maxmud Qoshg'ariy tomonidan berilgan. Lekin bu tilshunos olim ko'rsatgan undoshlar to'la emas. Chunki u eski o'zbek tiliga arab va fors tillar tasiri ostida o'zlashgan *f, x, h, j* tovushlarini va ayrim boshqa tovushlarni o'z sirasiga qo'shmagan. Eski o'zbek tili undoshlari qadimgi turkiy til undoshlari bilan solishtirilganda, eski o'zbek tilida yangi undoshlar- lab-tish *v* va *f*, lab-lab *v*, lab-tish *z*, sirgaluvchi *j*, chuqur til orqa sirgaluvchi *x*, bo'giz undoshi *x* paydo bo'lganini ko'rish mumkin. Demak, eski o'zbek tilida quyidagi undoshlar amalda bo'lgan: *b, p, f, v, m, t, d, s, z, n, r, l, sh, j, j(dj), ch, k, g, q, g, n', y, x, h.*

Eski o’zbek tili undoshlarini hozirgi o’zbek tili undoshlari bilan solishtirish shuni ko’rsatadiki, o’zbek tili tarixida undoshlar keskin sifat o’zgarishlariga uchramagan. a’ndoshlarga oid o’zgarishlar, asosan, yangi undoshlarni o’zlashtirish va tovush almashinishlari bilan chegaralanadi, bu esa o’zbek tili tarixida undoshlar unlilardan ko’ra barqaror bo’lgan, deb xulosa chiqarish mumkin.

Savol va topshiriqlar.

1.Tarixiy fonetika nimani urganadi?
2.Tarixiy fonetikani urganishda qanday manbalarga tayaniladi?
3.Ulug mutafakkirlarimizning filologiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?
4.Arab yozuvining o’ziga xos xususiyatlarini sanang.
5.Old qator va orqa qator unlilarni sanang.
6.Lablarning ishtirokiga ko’ra unlilar qanday tasnif qilinadi?
7.Cho’ziq unlilar haqida gapiring.
8.Qadimgi turkiy tilga xos bo’lmagan undoshlarni sanang.
9.Manbalardagi arab va fors tilidan o’zlashgan undoshlarni toping.

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O’rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O’zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O’zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To’ychiboyevB. O’zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza № 3-4. Morfologiya. Ot so’z turkumi

Reja:

1.Morfologiya haqida umumiy ma’lumot.
2.Grammatik son kategoriyasi.
3.Egalik kategoriyasi.

Tanch tushunchalar:

***Kelishik kategoriyasi** – aslida otning fe`lga tobeligini ta`minlaydigan so’z formalari jami.*

***So’z formasi (shakli)** – leksik mano, grammatik mano va uni ifodalash usullari yigindisi.*

***Kelishik qo’shimchalarining belgili-belgisiz qo’llanishi** – kelishikning qo’shimchaga ega bo’lganligini (aslida 20-yillarda «belgi» termini «qo’shimcha» manosini anglatgan) yoki ega bo’lmaganligini bildiradi.*

***So’z turkumi** – so’zlarning leksik- grammatik xususiyati bo’lib, so’z manosi, morfologik kategoriyalarga egaligi, sintaktik vazifasi jixatdan guruxlanishidir.*

***Grammatik kategoriya** – bir tizimdagi shakl (forma)lar jami, u odatda shakllanmagan va shakllangan so’z shakllarining ziddiyatidan (oppozitsiyasidan) xosil bo’ladi.*

Hozirgi o’zbek tilida bo’lganidek, eski o’zbek tilida ham so’z turkumlarining yirik uch guruxi qayd qilinadi. Bo’lar mustaqil so’zlar, yordamchi so’zlar va undovlar. Lekin bu so’z turkumlarining ichki kategoriyalari uzoq davrlar mobaynida o’ziga xos ravishda taraqqiy etib keldi. Professor Sh.Shukurov bu tarixiy taraqqiyotni uch bosqichga ajratadi:

Birinchi bosqich. Bu bosqichni XIV asrning oxirigacha bo’lgan davr tashkil etadi. Bu davr eski o’zbek adabiy tilining shakllanish arafasi bo’lib, bu davr tilida qadimgi turkiy tilga oid ko’pgina formalar yangi formalar bilan parallel qo’llanib kelgan hamda yozma yodgorliklarda dialektal hodisalar ko’plab aks etgan. Shuningdek, bu davr tilida boshqa turkiy tillarga oid bo’lgan so’z formalari ham iste`molda bo’lgan.

Ikkinchi bosqich. Bu bosqich XIV asrning oxiri va XIX asrning g’-yarmigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davrda eski o’zbek adabiy tili vujudga keldi va ma`lum darajada adabiy me`yorga ega bo’ldi.

a’chinchi bosqich. XIX asrning g’-yarmidan boshlanadi. a’ning harakterli xususiyatlari adabiyotda demokratik oqimning paydo bo’lishi, vaqtli matbuotning vujudga kelishi, kitoblarning nashr etilishi va shularning natijasida esa adabiy til bilan xalq so’zlashuv tilining yaqinlasha borishidir. Demak, o’zbek adabiy tili xalq jonli so’zlashuv tili xisobiga boyib bordi.

Ot va uning ichki kategoriyalari.

Ma`lumki, ot predmet va predmetlik tushunchasini ifodalaydigan so’z turkumi bo’lib, u grammatik son, kelishik va egalik kategoriyalariga ega bo’ladi.

Grammatik son kategoriyasi. Eski o’zbek tilida ham hozirgi o’zbek tilidagidek, birlik son so’z negiziga muvofiq keladi. Ko’plik esa maxsus grammatik ko’rsatkichlar bilan ifodalanadi. Eski o’zbek tilida ko’plik manosini quyidagi qo’shimchalar ifodalagan:

-lar\\-lar. Bu qo’shimchaning qo’llanishi hozirgi o’zbek tilidagidek, keng bo’lgan: a’l kenddagi ***kishilar*** kelib turur (qR). ***Tashlarni*** tamam bu tagdin **eltar*lar*** (BN).

Bu qo’shimcha eski o’zbek tilida ham ayrim holat va mavxum tushunchani bildiruvchi otlarga qo’shilganda ko’plikni emas, balki kuchaytirish, ta`kidlash kabi manolarni ifodalaydi: Anin’ dushmanlari ko’p ***qaygular*** tapti (o’N). Axmad Yusuf beg ***iztirablar*** qilib aytadur kim... (BN).

Shu bilan birga, bu qo’shimcha xurmat manosida ham qo’llangan: ***Atalari*** ezgu’ kishi erdi (Taf.). **qabrlari** Balxdadur (MN).

-at\\-at. Ma`lumki, qadimgi turkiy tilda bu qo'shimcha *-t* variantida (qiyin (azob)- qiyit (azoblar)) qo'llanib, ko'plik va jamlik manolarini ifodalagan. Eski o'zbek tili yodnomalarida, xususan, «Bobirnoma»da bu qo'shimcha –at\\-at tarzida qo'llanib, xuddi shu manolarni ifodalagan. ***Maxallat, begat, tumanat, bo'u'kat, bagat.***

Shuni aytish kerakki, qadimgi turkiy tilda ***oglan, era'n*** so'zlarida uchraydigan ko'plik manosi eski o'zbek tilida ko'plik manosida emas, balki birlik manosida qo'llangan: *Yigin'iz* ***begla'ru'*** *oglanlarni (ShB).****Era'nla'r*** *ayturlar (Taf.).*

Ma`lumki, hozirgi o'zbek tili leksikasida arab so'zlari ma`lum o'rin tutadi. Bu xol eski o'zbek adabiy tilida kuchliroq bo'lgan. Shu munosabat bilan ko'plik shaklida o'zlashtirilgan so'zlar ko'plik manosida qo'llangan: *shuara (shoirlar), ulama (olimlar), salatin (sultanlar).* Ayrim xollarda bunday so'zlar birlik manosida o'qilib, ularga –lar\\-la'r qo'shimchasi qo'shilavergan: *Yolda* ***ajayiblar*** *ko'rdila'r (qR). Burungi shuara va* ***akabirlar*** *zaylida mazkur bolgaylar (MN).*

Egalik kategoriyasi. Predmet va predmetlik tushunchasining nutqdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini bildiruvchi qo'shimchalar jami egalik kategoriyasini tashkil etadi. Egalik qo'shimchalari negizning til oldi va til orqa xususiyatiga hamda negizda lablangan unlilarning qatnashishiga qarab, turli fonetik ko'rinishlarda qo'llangan.

-m qo'shimchasi. a'nli bilan tugagan har qanday negizga qo'shila oladi: *atam, akam.*

-im qo'shimchasi. a'ndosh bilan tugagan til orqa unlilari mavjud negizlarga qo'shiladi. *Furqatin'din za`faran uzra to'karmen lalalar \\ Lalalar ermaski* ***bagrimdin*** *eru'r pargalalar (Nav.).*

-im qo'shimchasi. a'ndosh bilan tugagan til oldi unlilari mavjud negizlarga qo'shiladi: ***Mexrim*** *otin xushu sabru aqlu xis yashurmadi \\ Mexri lamie` to'rt burqa` keynidin pinxan emas.*

-u'm qo'shimchasi. a'ndosh bilan tugagan va til oldi unlilari qatnashgan negizlarga qo'shiladi. *a'l labi unabgun ko'nlu'mga ekkan tuxmi mexr * ***Ko'nlu'm*** *ichra yashurun durdanadek unab ara.*

-um qo'shimchasi. a'ndosh bilan tugagan til orqa lablangan unlilar qatnashgan negizlarga qo'shiladi: *Bolmadim* ***umrumda*** *bir dam xatiri xurram bila' \\ Gar ilikdin kelsa bir damni kechu'rman' gam bila.*

I shaxs ko'pligi, II shaxs birlik va ko'pligida ham yuqoridagi qoida o'z kuchini saqlaydi. I shaxs ko'pligida egalik qo'shimchalari *–miz\\ -miz,-imiz\\ -imiz, -umiz\\ umiz va –umuz\\ -umuz tarzida;* II shaxs ko'pligida *–n'iz\\-n'iz, -in'iz\\-in'iz,-un'iz\\-un'iz,-un'uz\\-un'uz* tarzida*;* III shaxs birlik va ko'pligida – *si\\-si* (unlilardan so'ng), *-i\\-i* (undoshlardan so'ng) qo'shimchalari qo'shiladi.

Kelishik kategoriyasi

Kelishiklar gapda otning yoki otlashgan so'zning fe'`lga, ba'zan boshqa so'z turkumiga munosabatini ifodalaydigan formalardir. Eski o'zbek tilida hozirgi o'zbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli saqlangan. Turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlari uchun harakterli bo'lgan vosita kelishigi shakli XIII-XIV asrlarga oid yozma yodgorliklar tilida ham ma`lum darajada qo'llangan. XV asr va undan keyingi davrlarda vosita kelishigining qo'llanishi ancha chegaralangan bo'lib, o'zining grammatik xususiyatini yo'qotgan va kelishik kategoriyasi sifatida iste`moldan chiqqan. Shu davrdan boshlab vosita kelishigi shaklida qo'llangan so'zlar ravish kategoriyasiga o'tgan yoki o'tish jarayonida bo'lib, payt, holat kabi manolarni ifodalashga xizmat qiladi: *ax urub, faryad etr-men* ***sensizin*** *\\ bu vujudimdin qalibtur yalguz u'n (Lutfiy). Bolsa jannatda Atayi* ***sensizin****, qilgay figan (Atoiy).*

Bosh kelishik. Odatdagidek, bu kelishik maxsus ko'rsatkichga ega bo'lmaydi. a'ning asosiy sintaktik funktsiyasi ega vazifasida kelishidir: ***Sakkakiy*** *ul ay manzilina xud yeta bilmas (Sakkokiy). Anda ko'p* ***ulamalar*** *davra alib olturubturlar (Furqat).* Shu bilan birga, bosh kelishikdagi so'z kesim va ikkinchi darajali bo'lak vazifasida ham keladi.

Qaratqich kelishigi. Bu kelishik qo'shimchasi ko'p variantlidir. Negizning fonetik xususiyatiga qarab, affiksning maxsus variantlari qo'shila beradi:

-nin'\\-nin'. Mazkur qo'shimcha har qanday negizlarga qo'shila beradi: ***qoychinin'*** *iti (Tafsir).* ***Elchinin'*** *shaxdliq zaxri shi:sha'si... (hamsa).* Bu qo'shimcha XV asrgacha bo'lgan yodnomalarda tarkibida lablanmagan unlilar bo'lmagan negizlarga qo'shilgan. Keyingi davrda esa har qanday negizga qo'shilgan.

-nun' \\-nu'n'. qaratqich kelishigining bu varianti oxirgi bo'ginda lablangan unlilar qatnashgan negizlarga qo'shiladi: ***Rasulnun'*** *so'zi (Tafsir).* ***harunnun'*** *aqli (qR).* **Ko'zu'n'nu'n'** *allida nargis kelib qatig ko'zlu'g...(hamsa).* Bu qo'shimchaning yuqoridagi negizlarga qo'shilishi XV-XVI asrlargacha davom etgan. Shuningdek, bu qonuniyatdan chekinish xollari ham uchraydi: ***Ko'znin'*** *niyati (Atoiy),* ***xalqnun'*** *ranji (Tafsir).*

-in' \\-in' \\-u'n'. qadimgi turkiy tilda undosh bilan tugagan negizlarga qo'shiladigan bu qo'shimchalar eski o'zbek tilida ham uchraydi.Lekin uning qo'llanishi ayrim so'z shakllarigagina xosdir. Bu davr yodnomalaridan mazkur qo'shimcha faqat «Tafsir»da ancha keng qo'llangandir: *ul* ***elin'*** *evlari,* ***anlarin'*** *evlari.*

-u'n' qo'shimchasi. Bu qo'shimcha *kim* olmoshi bilangina qo'llangan. *Sen* ***kimu'n'*** *ogli-sen?*

qaratqich kelishigi qo'shimchasining bunday variantlari singarmonizmli turkiy tillarda va singarmonizmli o'zbek shevalarida ham uchraydi.

Bu kelishikning belgisiz qo'llanishi eski o'zbek adabiy tili uchun ham harakterli bo'lgan: *Mu'lk ikki bagi ikki alam \\ Sultanlig eru'r san'a musallam (hamsa).*

Tushum kelishigi. Eski o'zbek adabiy tilida tushum kelishigi *–ni* \\-ni \\ *-n \\-i \\-i* variantlariga ega bo'lgan.

-ni\\-ni. Bu affiks o'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida qo'llanib kelgan. ***Yolni*** *berkitayin,* ***qamugni*** *qutqarayin (qR). Bu* ***so'zni*** *kizladilar (TF).* Bu qo'shimcha «Bobirnoma» asarida qaratqich manosini bildirgan: *Bir qirgavulni* ***u'sku'nasini*** *to'rt kishi yeb tugata almaydur (BN).*

-n. Bu qo'shimcha varianti eski o'zbek tilida ancha faol qo'llangan Lekin u III shaxs egalik qo'shimchasidan keyin qo'shilgan: *qilich birla* ***bashin*** *kesti (o'N). Ismailnin'* ***evin*** *sordi (qR).* Tushum kelishigining bu qo'shimchasi she`riy asarlarda keng qo'llangan.

-i\\-i. Bu qo'shimcha I va II shaxs egalik qo'shimchalaridan keyin qo'shilgan: *Adl qulagi-la eshit* ***xalimi*** *(Muqimiy).* ***Aqlimi*** *tamam aldi tu'gmai giribanin' (Furqat).*

Tushum kelishigining belgisiz qo'llanishi ham eski o'zbek tili uchun harakterlidir: *qoymagumdur* ***etagin'*** *(Bobir).Ko'n'u'l shakar bikin* ***agzin'*** *ko'ru'p (Sakkokiy).*

Tushum kelishigininu' qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan *–g\\-g,-ig\\-ig\\-ug\\-u'g* variantlari eski o'zbek tilida uchramaydi.

Jo'nalish kelishigi. Bu kelishik qo'shimchasi eski o'zbek tilida *–qa\\-ga \\- ka \\ -ga, –a\\-a va –na \\-na k*abi variantlarga ega. Shu bilan birga, qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan *–garu\\ -garu' \\ -qaru \\ -karu', -ra \\ -ra, -ru \\-ru'* qo'shimchalari ham ayrim yodnomalarda uchraydi.

-ga\\–gga varianti unli va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi, *–qa* qo'shimchasi jarangsiz undoshlar va *g,x* undoshlari bilan tugagan negizlarga qo'shiladi: *Eykim bari she`r* ***axliga*** *sen xan yan'lig \\ She`rin' bhari* ***she`rlarga*** *sultan yan'lig (Bobir). Lala qadaxina* ***tashqa*** *urdun' \\ Jala gu'xxarini* ***bashqa urduṇ'*** *(hamsa).*

XIII-XIV asr yodgorliklarida bu tartib buzilgan, ya`ni, *-ga* o'rnida *–qa* qo'shimchasi yoki aksincha qo'llanavergan: ***Ibraximga*** ** ***Ibraximqa****,* ***avga*** ** ***avqa****,* ***otga*** ** ***otqa*** *(qR).*

-ka\\ -ga. Til oldi unlilari qatnashgan negizlarga qo'shiladi. Eski o'zbek tilida qay xollarda *–ka,* qaysi xollarda *–ga* qo'shimchasining qo'shilishini aniqlash birmuncha qiyin, chunki arab yozuvida bu ikki variant ham (kof) harfi bilan yozilgan. Shunga qaramasdan, jarangli va sonor undoshlar va unlilardan so'ng *–ga,* jarangsiz undoshlardan so'ng *–ka* qo'shimchasining qo'llanganini mushoxada qilish mumkin: **Ko'n'lu'mga** *dard kelgali...(Boburnoma).****Elikka*** *menin' yashim yeti (Sh. turk).*

-a /-a. Bu affikslar undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. Lekin uning qo'llanishi janrlar bo'yicha chegaralangan. Bu forma XIII- XIV she`riy asarlarda ham, prozaik asarlarda qo'llangani xolda, XV asr va undan keyingi davrlarda asosan she`riy asarlarda uchraydi: *Bashlarini* ***qashima*** *yetku'ru'n'u'z (Shayboniynoma). Kel, taqi* ***yurtun'a*** *ega bol (Sh.tar.). Ne*

uchun avval o'zu'n'a ashna qqildin' meni (Otoiy). Ya rabb, ne ajab yari jafakara yoluqtum \\ Ko'zi-yu qashi jadu-vu makkara yoluqtum (Lutfiy).

Qadimgi turkiy tilga oid bo'lgan *–garu/-garu'//-qaru/-karu'//-ru/-ru'* affikslari eski o'zbek tilida o'zining kelishik funktsiyasini yo'qotgan. a'lar keyinchalik eski o'zbek tilida ham ravish yasovchilarga aylanib ketgan.

Qadimgi turkiy tilga oid bo'lgan *–ra/-ra* affiksi «Tafsir»da uchraydi: *Ya Muhammad, **tashra** chiq.* Biroq keyinchalik bu affiks ham ravish yasovchiga o'tib ketgan: ***ichra** (ichkari), **asra** (pastki, quyi).*

Jo'nalish kelishigining belgisiz qo'llanishi ham eski o'zbek tili uchun harakterli bo'lgan. Misollar: *Senki **ul yan** azimat etku'n'du'r (Navoiy). Bir inisin yibaru'r boldi **Xisar** (Shayboniynoma).*

o'rin-payt kelishigi. Bu kelishikni xosil qiladigan quyidagi affiks variantlari uchraydi:

-da/-da jarangli undosh va unli bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *qayguda za`if boldi (qR). Yu'zu'n'da nuri tajalli, labin'da javhari rux (Lutfiy).*

-ta/-ta jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *Bu ishta ixtiyarim yoq turur (Atoiy). Tanimaqta magar yanilmish-sen (Navoiy).*

o'rin-payt kelishigining *–ta/-ta* affiksi «Boburnoma»da va ayrim boshqa asarlarda uchrasa ham, odatda, jarangsiz undoshlardan keyin ham *–da/-da* affiksi qo'shila bergan.

Chiqish kelishigi. Bu kelishikni xosil qiluvchi quyidagi affikslar mavjud:

-din/-din unli va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *Charx **qasridin** quyash har ku'n tu'shar alamara (Navoiy). Andijannin' **nashbatisidin** yaxshiraq nashbati bolmas (BN).*

-tin/-tin jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *Sen **bashtin** ayaq jan-sen (Muxabbatnoma), l*ekin jarangsiz undoshlar tugagan so'z negizlariga ham *–din/-din* affiksi qo'shila beradi. Aksincha jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga ham *–tin \\ -tin* affiksining qo'shilishi qayd qilinadi: ***Xojandtin** Axsiga kelu'r (Bobir).*

-dan/-dan//-tan/-tan. Bu affiks XV asrdan oldingi yodgorliklarda uchraydi va ular fakul`tativ harakterdadir: *a'ch kundin so'n' **zindandan** chiqardilar (qR).*

Chiqish kelishigining qadimgi turkiy tilga oid *–dun/-du'n//-tun/-tu'n* affikslari so'zning oxirgi bo'ginlari lab unlilari bilan kelgan negizlarga qo'shiladi. Eski o'zbek tilida bu affikslar faqat «o'guznoma»da uchraydi: *qirq **kundun** so'n', ko'p **toqo'shgudun** so'n', anun' ko'zu' **ko'ktu'n** ko'krak erdi.*

Til tarixi faktlari shuni ko'rsatadiki, chiqish kelishigi formasi keyingi davrlarda shakllangan bo'lib, uning o'rnini ma`lum davrlarda o'rin-payt kelishigi bajargan. Garchand bu xususiyat qadimgi turkiy tilga xos bo'lsa ham, eski o'zbek adabiy tilida chiqish kelishigi manosida o'rin-payt kelishigi formasi qo'llangan: *Bashini uch **yerda** yardilar(Tafsir). Bu **ishlarda** birini qqilsan'iz (qR).*

Vosita kelishigi. Yuqorida ta`kidlanganidek, bu kelishik qadimgi turkiy tilga oid bo'lgan hodisadir. Lekin u XIII-XIV asr yodgorliklarining ayrimlarida uchrab turadi: *Fasix **tilin** javab berdi (Tafsir). Ani kishilar **ko'zin** ko'rgan bar-mu?*

Vosita kelishigi XV asrga oid manbalarda, masalan, Lutfiy, Atoiy asarlarida ham uchraydi. Lekin bu davrda vosita kelishigining iste`mol doirasi chegaralangan bo'lib, manosi ham toraygan. Misollar: *Faryad etaram tu'shkali men **yalguzun** andin// xech oldi tanim, qaldi hamin yalguz u'n andin (Lutfiy). Kerakmas **sensizin,** vaallax, man'a jan minnati (Atoiy).*

Vosita kelishigi formasidagi so'zlarning bir qismi ravish kategoriyasiga o'tgan. Ravish kategoriyasiga o'tish, asosan, payt bildiruvchi so'zlar doirasida bo'lgan: ***qishin, yazin, erten, kechin***, ***tunun*** kabi. Bu so'zlar tarkibidagi *–in,-in,-un,-u'n,-n* vosita kelishigi affiksi bo'lib, keyinchalik so'zning tarkibiy qismiga aylangan va bunday so'zlar ravish sifatida shakllangan.

Eski o’zbek tilida ot asosan ikki usul bilan yasalgan. a. Morfologik usul. g’. Sintaktik usul.

Sintaktik usul bilan ot yasalishi deyaarli hozirgi o’zbek tilidan farqlanmaydi. M., Qarabash, shabshirag’, almabash, chaqirqanat, temurqanat.

Ot yasovchi affikslar qaysi so’z turkumidan ot yasashiga ko’ra quyidagi ikki guruhga bo’linadi. a. Ismdan ot yasovchi affikslar. g’. Feldan ot yasovchi affikslar.

Ismdan ot yasovchi affikslar.

Eski o’zbek tilida asosan quyidagi afffikslar bilan tsmdan ot yasaladi.*-liq/lik/lig’/lig* affiksi. Tarkibida (oxirida) lab unlisi bo’lgan so’zlaga *-luq/l6k/lug’/l6g* variantlarida qo’shiladi. M., *yoqluq, yaruqluq, ulug’lug’, man’6l6k// man’6l6g, mun’lug’, dostlug’* kabi. Bazan bu tartib buziladi. M., k6zag6lik, yaaruliq.

Eski o’zbek tilida bu affikslar bilan quyidagi otlar yasalgan.

1. Abstrakt belgini ifodalovchi ot yasaladi. M., Salamatliq bolsun sizlarga. Men’a ezg6lik qildi (Rabg’.)
2. Konkret tushunchani bildiruvchi otlarga qo’shilganda holat-munosabat, aloqadorlik, burch, vazifa kabi manolarni ifodalovchi otlar yasaladi. M., Bu ne xatunluq bolur (Rabg’.) Axbab, yigitlikni g’animiat tutun’uz (A.N.)
3. Shaxs otlari qo’shilganda, kasb-hunar, mansab manolaridagi ot yasaladi. M., Musani qoychiliqga tutdi ersa, (Taf.) Mavlana Zulaliy g’azalfurushluq qilur (A.N.)
4. *-liq/lik/lig’/lig affikslari o’rin bildiruvchi otlarga qo’shilganda, shu o’ringa aloqadorlikni, munosabatni bildiruvchi ot yasaladi. M., Mir Husayn Mashhadlig’dur.* -chi//chi affiksi. Bu affiks otga qo’shilib, kasb-hunar manosini ifodalovchi ot yasaydi. a’l qoychi anlar bila bardi.

   Navoiy -chi//chi affiksi bilan mansab, hunar manosidagi otlar yasalishi haqida gapirib quyidagi misollarni keltiradi: qorchi, suvchi, xazinachi, shavganchi, nayzashi, barsshi, qoruqshi, tamg’ashi, qazshi, turnachi va h.

   -g’u//gu affiksli harakat nomi formasiga –chi//chi affiksi qo’shilib o’zakdan anglashilgahrakatni bildiruvchi shaxs oti yasaladi. M., Biz ani saqlag’uchilarmiz. -chi//chi affiksi felga qo’shilib ot yasashit ham mumkin. Sen husn elining xani – sen-u banda tilinshi (9Lutfiy

Savol va topshiriqlar:

1.Tarixiy morfologiyaning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

2.Ko’plik manosini ifodalovchi morfologik shakllarni sanang. Arabcha ko’plik shaklidagi so’zlar lug’atini tuzing.

3.Egalik qo’shimchalarining hozirgi o’zbek tilida qo’llanmaydigan variantlariga manbalardan misol keltiring.

4.Qaratqich kelishigi qo’shimchalarini sanang.

5.Jo’nalish kelishigining qadimgi turkiy tilga xos bo’lgan qanday qo’shimchalari mavjud?

6.Kelishik qo’shimchalarining har biriga yodnomalardan misollar yozing.

7.Vosita kelishigi qanday xosil qilingan?

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O’rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O’zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O’zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To’ychiboyevB. O’zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza № 5. Sifat turkumi

Reja:

1.Sifat so’z turkumining tarixiy taraqqiyoti.

2.Sifat yasalishi.

3.Sifat darajalari va uning intensiv formalari.

Tayanch tushunchalar:

***Sifat darajalari** – sifatlarda belgi miqdorining ifodalanishini bildiruvchi grammatik shakllar jami.*

***Oddiy daraja** – belgining kamligi va ortiqligini xosil qilish uchun negiz vazifasini bajaruvchi shakl, belgi neytral aks etadi.*

***Belgining kamligi** – sifat leksemasiga xos bo’lgan asosiy belgini emas, balki boshqa sifatdagi belgining qisman aks etishini bildiradi.*

***Belgining ortiqligi(kuchliligi)** – belgining odatdagi me`yoridan ortiq ekanligini yoki kuchaytirib berilishini ifodalovchi shakl.*

XV—XIX asrlarga mansub manbalar tilida qayd etilgan sifatlar ham umuman turkiy tillardagi, xususan, o’zbek tilidagi sifatlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo’lib, bo’lardan asosiylari quyidagilar:

Narsa-predmet va hodisalarning belgisini bildirish sifatning semantik asosidir. Belgi bildirish xususiyati va tabiati jixatidan tub (asliy) va nisbiy sifatlar bir-biridan qisman farqlanuvchi uzgachaliklarga egadir:

tub sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi shu sifatning tugridan-tugri manosidan anglashiladigan rang, tus, tur, tam, maza, xajm, vazn, me`yor,satx, miqyos kabi doimiy sifatiy belgilar bilan bogliq bo’ladi, bu doimiy sifatiy belgilar konkret va abstrakt harakterda bo’lishi mumkin: aq *alma, aq ko’n’u’l, achchiq danak, achchiq dard* kabi;

nisbiy sifatda esa bslgi tushunchasi shu yasama sifatga asos bo’lgan suzdan anglashiladigan narsa-prsdmet yoki hodisa manosi bilan bogliq bo’lib, uning belgi xususiyati boshqa turdagi narsa-predmet yoki hodisaga turli darajada nisbat berilishi orqali ifodalanadi.

Turkiy tillarda, jumladan, o’zbek tilida sifat tarixan morfologik kursatkichi uncha taraqqiy etmagan suz turkumi sanaladi. Tadqiqotchilarning fikriga kura sifat dastavval mustaqil suz turkumi sifatida mavjud bo’lmagan, u sungroq ot turkumidan o’sib chiqqan va shakllanib rivojlangan.

E.V.Sevortyanning ta`kidlashicha, sifatning otdan differentsiatsiyalanish jarayoni ancha ilgarigi davrlarda boshlangan, V-VIII asrlarga kelib bu jarayon ancha keng tus olgan. Sifatning jamlanishi va kristallashishi asta-sekinlik bilan turli davrlarda paydo bo’lgan turli formalar xisobiga yuz bergan. Bu formalarning ayrimlari qadimdayoq kammaxsul bo’lgan, ayrimlari esa uz sermaxsulligini hozirgi kunlargacha saqlab qolgan va xatto yanada kengaytirgan. Ayrim formalar ot va sifat uchun mushggarak bo’lgan, ayrimlari faqat sifatgagina tegishli bo’lgan, lekin keyingi davrlarda taraqqiy qilmagan [Sevortyan a96q, o’h].

Turkiy tillar taraqqiyot bosqichining qadim davrlaridan boshlangan sifatning otdan ajralib chiqishi uzluksiz hodisa bo’lib, bu jarayon xanuz davom etmoqda. Bundan hamma sifat ham otdan ajralib chiqqan, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Chunki sifat mustaqil kategoriya sifatida ajralib chiqqandan keyin bu turkum tarkibiga yangidan qo’shilgan belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama suzlar, yasovchi affikslar mavjudki, ularning kelib chiqishi va tabiati hozircha aniqlangan emas.

Sifat turkumiga oid suzlarning katta qismini yasama sifatlar tashkil qiladi. Yasama sifatlar ikki xil yul bilan: morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) xosil qilinadi.

Morfologik usul bilan sifat yasalishi. Morfologik usul bilan sifat yasalishi uzoq tarixga ega bo'lgan asosiy usuldir.Sifat yasalishiga asos bo'lgan uzak morfema ism yoki fe`l turkumiga oid bo'lishiga qarab yasovchi morfemalar ham ismlardan yoki fe`llardan sifat yasovchi tarzida ikkiga bo'linadi.

Sifat yasovchi affikslar tarixan ko'p bo'lmagan, ular hozir ham unchalik ko'p emas. Tekshirilayotgan davr tilida ular qullanish darajasiga kura bir xil emas, ba`zilari unumli, ba`zilari esa unumsizdir.

Ismlardan sifat yasovchi affikslar. Ism turkumiga oid suzlardan sifat yasashda quyidagi affikslar qullangan:

-lig/-lig,-luq/-lug,-lu'k/-lu'k. a'shbu affiks variantlarining ishlatilishidagi fonetik sharoit quyidagicha:

Tarkibida lablanmagan unlilardan biri bo'lgan bir buginli, shuningdek, barcha yoki sunggi buginida shu unlilardan biri bo'lgan ko'p buginli qattiq negizlarga affiksning asosan lablanmagan orqa qator variantlari, yumshoq negizlarga esa old qator variantlari qo'shiladi: *agizliq, yazliq, baglig, tatliq, yashliq, qanliq, biliglig, qorganliq, atliq, yaraglig, evlik, yamagliq, kechalik.*

Lablangan unlili bir buginli, shuningdek, barcha yoki sunggi buginda lablangan unlisi bo'lgan qattiq negizlarga affiksning lablangan orqa qator variantlari, yumshoq negizlarga old qator variantlari qo'shiladi: *boyluq, qayguluq, otluq, anduxluq, ku'chlu'k, yu'zlu'k, olturushluq, ko'rklu'k, tu'rlu'g,qutluq, otlug otluq, yamgurluq, tu'klu'k, uyluk, yosunluq, su'tlu'k, ku'lgu'lu'k, ku'chlu'k, su'yu'klu'k.*

Ba`zan bu umumiy qonuniyatning buzilishi kuzatiladi; lablanmagan unlili negizlarga affiksning lablangan variantlari, shuningdek, orqa qator variantlari yumshoq uzaklarga va aksincha, old qator variantlari qattiq negizlarga qo'shilib keladi. Bu hodisa, ayniqsa, XVII — XIX asrlarda ko'proq kuzatiladi.

-li/-li,-lu/-lu'. Bu affiks variantlarining ishlatilishida ham asosan singarmonizm konuniyatiga amal qilingan: old qator variantlari yumshoq negizlarga, orqa qator variantlari qattiq negizlarga qo'shilgan: *kendli, otli, yagli, tatli, men'izli, kerakli, biligli, yarali, yaqalig* kabi. Lablangan -lu/-lu' variantlarining qullanishida boshqacharoq manzara kuzatiladi; singarmonizm qonuniga binoan tarkibida lab unlilaridan biri bo'lgan bir buginli yoki sunggi buginida shu unlilardan biri bo'lgan ikki yoki ko'p buginli kattiq negizlarga affiksning orqa kator variantlari, yumshoq negizlarga old qator variantlari qo'shilishi kerak bo'lgani xolda, bu qonuniyatga mos ishlatilish siyrak kuzatiladi: *otlu, tuglu, ko'zlu', yuzlu, ko'ru'klu'* kabi misollar kam uchraydi. Ko'p xollarda lablangan unlisi bo'lmagan suzlarga affiksning lablangan variantlari, aksincha, lablangan unlili suzlarga affiksning lablanmagan variantlari qo'shilib keladi: g*amlu, namlu, baglu, yollig, qoyli, tugli, ko'kli ko'zli* kabi.

gi/-gi, -qi/-ki affiksi qadimiy maxsuldor morfemalardan bo'lib, a'rxun-enisey, qadimgi uygur yozuvi obidalari, XI—XIV asrlarga mansub yodgorliklar tilida ham ancha keng kullangan: *Bayaqi yolga tegdila'r (qR). Javhar balchiqqa tushsa, burungi bikin nafis turur (SS). Astindaqi azaqlarina qara qo'shlarni bagladi (qR). Bu elkindaki narsalar ne turur(NF).*

-dagi/-dagi, -daqi/-daki. Bu affiks asosan otlarga qo'shilib, o'ringa va paytga mansublik manosidagi sifat yasaydi:

-siz/-siz. Bu affiks asosan otlarga qo'shilib uzakdan anglashilgan narsaga, holatga, xususiyatga ega emaslik manosini ifodalovchi sifat yasaydi: *Vasl noshi dunyada bolmas, Atayi nishsiz(Atoiy).qapugin eshiki yaragsiz turur(qR).*

Eski o'zbek tilida fors-tojik tilidan o'zlashgan quyidagi affikslar ham faol qo'llangan:

-iy. Adabiyotlarda «yoyi nisbat» deb yuritiladi va nisbiy sifat yasaydi:

Shax qilib xil`atini rayxaniy,

Rast andaq ki sarvi bostaniy

(Xamsa)

-nak. Otdan muayyan belgiga ega bo'lgan sifat yasaydi: ... *la`li atashnak* (Maxb.q), ... *ko'n'l6m gamidin ul gamnak* (Maxb.q).

-gu'n. Rang bildiruvchi sifat yasaydi:

Subxidam kim sipexri minagu'n
Yerni bayzadin etti bayzagu'n.

(hamsa).

-vash. o'xshatish manosidagi sifat yasaydi:... *shaxzadayi parivash...* (Max.q.), ... *maxvash saqiy...* (Max.q.).

-var. o'xshatish manosidagi sifat yasaydi: *buzurgvar, umidvar. ... durri shaxvar u'zu'lu'p yerga tu'shti* (Max.q.).

Bu affikslardan tashqari, *-in, -fam, -aniy* sifat yasovchi affikslari ham qo'llangan.

*Fe`ldan sifat yasovchi affikslar.* Fe`ldan sifat yasovchi affikslar unchalik ko'p emas. a'lardan faqat birgina affiks sermaxsul bo'lib, qolganlari kammaxsul va uta kammaxsul affikslardir.

a'lar quyidagilar:

*-g/-g,-q/-k(ig/-ig,-iq/-ik,-ug/-u'g,-uq/-u'k).*Affiks variantla- rining ko'pligi singarmonizm qonuni amalda bo'lganligidan dalolat beradi. Biroq yumshoqlik-qattiqlik va lab garmoniyasi qoidasining bir qadar buzilishi kuzatiladi, jarangli va jarangsiz undoshli variantlar ishlatilishida muayan qonuniyat va fonetik sharoitni belgilash qiyin. Chunki ayrim manbalarda asosan jarangsiz undoshli variantlar ishlatilsa, ularning ko'pchiligida (xatto bir suz doirasida ham) har ikkala variant baravar qullanaveradi. Lekin umumiy nisbatiga kura jarangsiz unlili variantlar aksariyatni tashkil qiladi.

Fe`dan sifat yasashda eng sermaxsul bo'lgan bu affiks yordamida yasalgan sifatlarda uzakdan anglashilgan mano bilan bogliq belgi-xususiyatga egalik tushunchasi ifodalanadi:*Demasun qorqaq (ShN). Bu rud quruq ruddur, munda hargez suv bolmas (BN).*

*-n(-in -in,-un,-u'n,-an,-a'n).*qadimiy vosita kelishigining bu affiksi o'zining birgalik manosi asosida sungroq suz yasash funktsiyasini ham kasb etgan. a' uzakdan anglashilgan belgiga egalik manosini ifodalovchi sifat yasagan: *Nedin t o l u n ay yuzun' ila' xusn talashur (Atoiy). qiyamat azabindin yaqinmu turur (TF).*

l(-il/-il). Bu affiks ayrim fe`llardan uzakdan anglashilgan harakat yoki holat belgisiga egalik manosini ifodalovchi sifat yasaydi: *Dunyanin' tugal malini bersan' (NF).*

Shu bilan birga, *-ir / -ur (Bu agir ishka' ogradimiz (qR)), -ri / -ri (quyi egriligi chindur (Lutfiy))* qo'shimchalari bilan ham sifat yasalgan.

Sintaktik (kompozitsiya) usul bilan yasalgan sifatlar sifat turkumiga mansub leksik birliklarning katta qismini tashkil qilgan. a'lar sifat va boshqa turkumlarga mansub suzlarning bir-biri bilan turli kombinatsion vositalar yordamida birikuvi, juftlashuvi, takrorlanuvi va tiziluvi orqali xosil bo'lgan. a'lar tarkibiy qismlarining birikuv tarziga kura qo'shma va murakkab sifat yasaladi.

Sintaktik usul bilan yasalgan sifatlar turgun bo'lmaydi va uko'proq uslubiy vazifa bajaradi: *qara yu'zlu'k bashi* (Navoiy), *qara tamgaliq ay* (Lutf.).

Sifat darajalari. Sifat darajalarining turkiy tillarga xos har uchala turi va har bir turning ifodalanish usullari bu davr tilida ham mavjud.

hozirgi va o'tmish lingvistik adabiyotlarda sifatning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari haqida fikr yuritib kelingan va unda rus tili qolipidan kelib chiqilgan. o'zbek tilidagi sifatlar esa bu qolipga tushmaydi, balki oddiy daraja, belgining kamligi darajasi va belgining ortiqligi – kuchaytiruv darajasini farqlash imkoniyatini beradi.

Oddiy daraja. Boshqa darajalarning xosil bo'lishi uchun negiz vazifasini bajaradi va belgi neytral darajada bo'ladi. Bu shakl "nol`" shakl bo'lib, unda affiks qatnashmaydi.

Belgining kamligi esa bir necha affikslar orqali xosil qilinadi:

-raq/-ra’k.

Kim ki ulugraq, an’a xidmat kera’k
a’l ki kichikra’k, an’a shafqat kera’k.
(Xamsa).

-mtul. qizimtul, qaramtul, yashimtul (Maboinul-lug’at).

Belgining kamligi darajasida sifatga xos bo’lgan asosiy belgining kamligini bildirmaydi, balki boshqa belgida sifat ifoda qilayotgan belgidan qisman mavjudligini anglatadi.

Belgining ortiqligi va kuchliligi darajasi. Bu daraja sifatlarni to’liq va to’liqsiz takrorlash hamda sifat oldidan ravishlarni keltirish orqali xosil qilinadi.

To’la takror: Men’izla’ri gu’l-gu’l, qabaglari ken’-ken’ (Navoiy). Ba`zan bunday sifatlarning birinchi qismida chiqish kelishigi affiksi ham qatnashadi va manoning yanada kuchaytirilishiga xizmat qiladi: *Zaxirim avqati yamandin-yaman* (Navoiy).

To’liqsiz takror. Bunda birinchi bo’gin **p,m** undoshlari ishtirokida takrorlanadi: *ap-achig, ap-aq, yup-yumalaq, chup-chuqur, yam-yashil* (Muxok.lug.).

Sifat oldidan ravish so’zlari keltiriladi: *Bagayat biyik kishi* (Navoiy), *asru ken’* (Bobir).

Ta`kidlash zarurki, *-raq/-rak* affiksli shakllarda qiyos manosi yo’q emas, balki belgining kamligi manosi bosh manodir.

Savol va topshiriqlar:

1.Sifat yasovchi eski o’zbek tiliga xos bo’lgan qo’shimchalarni sanang.
2.Eski o’zbek tilida orttirma darajadagi sifatlar qanday xosil qilinadi?
3.Belgining ortiqligi va kuchliligi formalari qanday xosil qilinadi?
4.Sifat darajalari shakllanishining hozirgi o’zbek tilidan farqli tomonlarini izoxlab bering.

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O’rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O’zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O’zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To’ychiboyevB. O’zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza № 6. *Son*

Reja:

1.Son haqida umumiy tushuncha.
2.Sonning mano turlari va ularning xosil qilinishi.
3.Eski o’zbek tilida sonlarga xos bo’lgan fonetik xususiyatlar.
4.Sonning tuzilishi jixatdan turlari.
5.Numerativ so’zlar.

Tayanch tushunchalar:

Sonning mano turlari – sanoq, tartib, dona, chama, jamlovchi, taqsim sonlar.
Sonning tuzilishiga ko’ra turlari – sodda, murakkab, kasr sonlar.
Numerativ so’zlar *– hisobni anglatuvchi so’zlar* .

Sanoq sonlar. Eski o’zbek tilida sanoq sonlar kishi, narsa hamda hodisalarning sanogini bildirgan, sanoq sonlarning birlik, unlik, yuzlik, minglik va boshqa formalari qullangan. Sanoq sonlar sodda va murakkab formalar orqali ifodalangan, arab, fors-tojik, xind tillaridan uzlashgan sanoq sonlar ham uchraydi.

Eski o’zbek tilida qadimgi turkiy tildagiga nisbatan sonlar jiddiy o’zgarishga uchragan emas, lekin o’ziga xos tizim xosil qilgan. Ayniqsa, murakkab sonlar hozirgi normalarga yaqinlashgan. Bu davr tilida *t£rt yigirmi (an’), alti elig (n’u’), otuz artuqi uch (qq)* kabi murakkab sonlar qo’llanishdan chiqqan.

Sodda sanoq sonlar eski o’zbek tilida tanglay garmoniyasi talabiga kura qattiq va yumshoq variantlarda qo’llangan.Sodda sanoq sonlar quyidagicha kurinishga ega: *bir* soni, asosan, yumshoq talaffuz qilingan: *bir biriga’ qatila berdila’r (Amiriy).* **B***i r i b i r i g a ’ baqmay (BN).*

XVIII —XIX asr yozma manbalarida bir sonini qattiq talaffuz qilish holatlari ham uchraydi: *Bir-biriga namaxram et (a’vaysiy).*

Ikki soni oldidagi unli *-e* yoki *-i* tovushlari orqali: *eki, -ikki* tarzida talaffuz kilingan. Shu bilan birga, *iki* soni tarkibidagi *-k* undoshi ba`zan tashdid orqali ifodalangan: *eki, ekki, iki, ikki* kabi. Bunday xilma-xillik she`riyatda aruzning talabi bilan yuz bergan.

XIX asrga oid ayrim yozma manbalarda *alti* soni *alta, yetti* soni *y e t t e* formasida uchraydi.

«Boburnoma»da, Gulxaniy, Munis asarlarida *bir toqquz,toqquz- toqquz* iborasi qullangan, har narsaning tuqqiztalik songa ega manosini anglatgan: *B i r t o q u z e t v a b i r toquz parcha keltura’di (BN). Men’a’ gamdin t o q u z-t o q u z tuxfa (Munis).*

Yigirma’ soni uch xil fonetik variantda iste`mol etilgan: *yigirma’ (BN)*; *yigirmi (Navoiy, MN)*; *igirmi (Sh tar.).*

Elik soni tarkibidagi *-l* undoshi dastlab ikkilanmagan, keyinchalik geminatsiyaga uchrab tashdid orqali ifodalangan: *Elik* (*Navoiy, MN), ellik (BN).*

XV—XIX asrlarga oid yozma manbalarga arab, fors-tojik hamda xind tillaridan ba`zi sanoq sonlar uzlashgan, uzlashgan sanoq sonlar uz formalarida qullangan. Fors-tojikcha: *s a d x a z a r (Lutfiy)*; *y a k –y a k (O g a x i y)* ; *du bara (Muqimiy).*

Xindcha *la’k* soni XVI—XIX asrlarga oid yozma manbalarda *q*ullangan: *Yuz min’ni l a’ k derla’r (BN)*; *min’ l a ’ k somni (Muqimiy).*

«Boburnoma»da xindcha *k o’ r u r — (un million), arb* (bir milliard), *ko’rb* (yuz milliard), *nayl* (un trillion), *padam* (milli-trillion), *san’* (eng yuqori sanoq son) sanoq sonlari qo’llangan.

*Dona sonlar***.** XV—XIX asrlarga oid yozma manbalarda dona sonlar ifodalovchi formalar kam rivojlangan, dona sonlar funktsiyasini turli son formalari bajargan. Alisher Navoiyning «Maxbubo'l qulub», «Sab`ai sayyor», Muhammad Solixning «Shayboniynoma» asarlarida bir, ikki sanoq soniga -ta affiksi qo'shilib dona son xosil bo'lgan: *b i r t a ' yarmag ikki bo'lu'b (Navoiy Mq); b i r t a ' o ' tma'kni iki bo'lu'b (Navoiy Mq).*

XV—XIX asrlarga oid yozma manbalarda sanoq sonlar dona sonlar manosida qullangan: *Y e t i agzi anin' otlar sachib (Navoiy XA). Yu'z m i n ' bayti bar va b i r qasida aytibdur (Navoiy MN).*

*Numerativ so'zlar***.** Numerativ suzlar XV—XIX asr yozma manbalari tilida ham deyarli sanoq sonlar bilan qullangan, bu davr yozma manbalari tilida numerativ suzlarni qullash qadimgi turkiy hamda XI—XIV asr yozma manbalari tiliga nisbatan kengaygan. Eski o'zbek tilida ham numerativ suzlar harakteriga kura turlicha manolarni anglatgan. Numerativ suzlar sanoq son bilan aniqlanayotgan suzlar orasida qullanib, aniqlanmish suzga nisbatan qo'shimcha aniqlik darajasini oshirgan. Shuningdek, numerativ suzlar ulush, miqdor, xajm, vosita birligi, masofa, tuda, ulchov birligi, gurux, dona kabi qator manolarni anglatgan.

Tartib sonlar. XV—XIX asrlarga oid yozma manbalar tilida tartib sonlar asosan sanoq sonlarga affikslar qo'shilishi orqali xosil qilingan. Arab, fors-tojik tillaridan uzlashgan sonlar leksik-semantik usul bilan ham tartib son manosini anglatgan, ba`zan uzlashgan tartib sonlar formasi ham qullangan.

-`nchi,-inchi,-unchi,-unchi,-nchi,-nchi affiksi variantlari asosida tartib sonlar xosil qilish keng qullangan.

-`nchi, -inchi,-unchi, -u'nchi affiksi undosh tovushlar bilan tugagan sanoq sonlarga, unli tovush bilan tugagan sanoq sonlarga *-nchi, -nchi* affiksi varianti qo'shilgan: *ikkinchi, yetinchi,u'chu'nchi, to'rtu'nchi, altinchi, onunchi.*

Tartib sonning birinchi formasi sostavli tartib sonlar tarkibida uchraydi: *yigirmi b i r i n c h i fasl* (Navoiy Mq); *birinchi maqalat* (Navoiy XA).

-lanchi (la-\-nchi),-la'nchi(la'-\-nchi) affiksi sanoq sonlarning qattiq, yumshoqligiga kura qo'shilib, tartib sonlar xosil qilingan, bu affiks bilan tartib son xosil qilish Alisher Navoiyning «Maxbubo'l qulub» asarida uchraydi, XVII asrdan boshlab *-lanchi, -la'nchi* affiksi orqali tartib son xosil qilish kengaygan: *altil a n c h i fasl (Mq), s e k i z l a ' n c h i fasl (Mq), y e t i l a ' n c h i arqada (Sh tar.), b e s h l a ' n c h i oqli (Sh tar).*

Avval so'zi *birinchi* tartib soni manosida qullangan: *a'l a v v a l qildi Gul vasfini agaz (Lutfiy), A v v a l ayagiga tu'shu'b pa'st bol (Navoiy XA).*

qadimgi turkiy yozma manbalarida ham tartib sonlar *-nch, -inch, -inch, -unch, -u'nch ham*da *-nti, -nti, -ndi, -ndi* affiksi variantlari orqali ifodalangan; *-nti, -ndi* formasi ikki soniga qo'shilgan. *Birinchi* tartib soni urnida *ilk, ilki* so'zi ham qullangan.

«Devonu lugotit turk» yozma obidasida tartib sonlar asosan *-nch, -inch, -inch, -unch, -u'nch* hamda *-ndi* affikslari bilan ifodalangan.

*Jamlovchi sonlar***.** Jamlovchi sonlar o'ziga xos xususiyatlarga ega, shuningdek, jamlovchi sonlarda umumturkiy tillarga xos belgilar ham mavjud. Jamlovchi sonlar sanoq sonlarga *-av,-av,-la,-la,-ala,-ala,-avla,-avla,-avlan,-avlan,* ba`zan *-lay, -lay; -agu, -agu'* affikslari qo'shilishi orqali ifodalangan.

-agu,-agu' affiksi orqali jamlovchi sonlar xosil qilish XIV asr yodgorliklarida faolroqdir: *alar yetagu', men yalguz* (Rabg.), *...u'chagu'si tu'n sariga bardilar* (o'N).

-av/-av affiksi orqali jamlovchi sonlar yasalishi XV—XIX asrlar yozma obidalarida harakterli bo'lgan: *ikav (Navoiy SS)*; *uchav (Navoiy FSh)*; *cherikda bir i k a v (ShN)*; har*ut ila Marut i k a v (Furqat)*.

-lay (-lagu' / -layu /- lay) affiksi «Sab`ai Sayyor», «Boburnoma» asarlarida ayrim urinlarda *iki* soniga qo'shilib, jamlovchi sonlar yasagan: *bariban ul nuqudni i k a l a y (Navoiy SS)*; *i k a l a y qorgan yavigiga (BN).*

-ala,-ala affiksi Navoiy, Bobur asarlarida sanoq sonlarga qo'shilib jamlovchi sonlar yasagan: *t o ' r t a l a s i (Navoiy MN), bu uchalasi (BN).*

-(a)vlan (agu'lan}avlan) affiksi ba`zi sanoq sonlarga qo'shilib jamlovchi sonlar yasagan: *ikavlan qachtilar (Lutfiy GN).*

*Chama sonlar***.** XV— XIX asrlarda bitilgan yozma manbalarda chama sonlar analitik, sintaktik usullar bilan xosil qilingan.

-cha, -cha affiksi sanoq sonlarga qo'shilib, chama sonlar xosil qilingan: *yuz i k i yuzcha' kishi (Navoiy XA)*; *yana b e s h m i n ' c h a kishi (ShN).*

Sanoq sonlarning juft xolda qullanishi orqali ham chama sonlar xosil bo'lgan; kichik sonlar oldin, katta sonlar keyin qullangan: *y u z - y u z e l i k o'zbakni kishisi bilan (BN)*; *t o ' r t - b e s h m i n ' kishi birla (ShN).*

Sanoq sonlardan keyin *chagliq, chagli, chaqliq* suzlari qullanib, chama son manosini anglatgan: *on y i g a c h c h a g l i q masafat (Navoiy FSh)*; *yigirma c h a g l i q kishilari o'ldi (Sh tar.).*

Sanoq sonlar *aycha, yilcha, yavuq, yaqin,artuq, artuqraq, ziyada, ko'prak,azraq* kabi suzlar bilan kelib, chama son manosini ifodalagan: *otuz y i l c h a yaqin bar (Navoiy MN), i k i y u ' z d i n k o ' p r a k uch y u ' z d i n a z r a q bolgay edi (BN).*

*Taqsim sonlar***.** Eski o'zbek tilida taqsim sonlar, asosan, *-rar,-rar,-ar,-ar* affiklari bilan xosil qilingan: *Aylarda b i r a r - b i r a r ko'ru'nu'r (Atoiy), Fusulni to'rtar ay ta`yin qilibturlar(BN), Yu ' z a r misqal kumush (BN).*

Nodira, Gulxaniy asarlarida bir soni ketma-ket takror qullanib, keyingi bir soniga *-dan,-din* affiksi qo'shilib, taqsim sonlar manosini anglatgan: *Ikki gul bargini bir birdan gaxi guftara ach (Nodira). Bir chardevar kam bolsa, o'tu'z tishni bir birdin sindirur (Gulxaniy).*

Bir va *ikki* sanoq sonlari grammatik kursatkichlarsiz ketma-ket takrorlangan xolda taqsim sonlar manosini anglatgan: *Neki ko'rgu'zdilar s a n ' a bir-bir (Navoiy SS), a g a r chun i k k i - i k k i qol tutub (Muqimiy).*

*Kasr sonlar***.** Eski o'zbek tilida kasr sonlar sintaktik usul bilan ifodalangan, maxraj hamda surat sonlar asosida xosil bo'lgan, maxraj son sanoq sonlarga chiqish hamda urin-payt kelishiklari affikslari qo'shilishi orqali ifodalangan, surat sonlar sanoq sonlardan iborat bo'lgan, shuningdek, surat sonlar grammatik kursatkichlarni ham qabo'l qilgan: *Necha o'gsam aytman m i n ' d a b i r i n (Lutfiy GN). Yu'z d i n b i r i k i ma`rakaga yetib (Navoiy Mq). Yurt malinin' ondin birin i alur (Sh turk.). Beru'rman bolsa yu'z janimu m i n ' d i n b i r xisab aylab (Munis).*

Kasr son yasalishida ba`zan maxraj va surat son orasida ayrim boglovchilar qullangan, grammatik kursatkichlar maxraj son yoki surat songa qo'shilgan, ba`zan maxraj va surat sonlar distant holatlarda uchraydi: *yuzdin g a r b i r i s i g a yetsa (Navoiy SS).*

Yarim so'zi ham kasr son manosini anglatgan. Shuningdek, kelishik hamda egalik qo'shimchalarini ham qabo'l qilgan: *Y a r i m kecha yetib tu'shtilar (Navoiy MN). Bir y a r i m qari qazsa, suv chiqar (BN).*

XVI — XIX asrlarga oid ba`zi yozma manbalarda fors-tojik tilidan uzlashgan *nim, du nim, chaxaryak, charyak* suzlari kasr sonlar manosida qullangan: *ta`rif qilgannin' yarimi balke c h a r y e k i c h a ashliq (BN)*; *oglanlarni n i m qiyat tedilar (Sh turk).*

Savol va topshiriqlar:

1. Sonning eski o'zbek tilidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
2. Sonning mano turlari, tuzilishiga ko'ra turlari qanday xosil qilinadi?
3. Eski o'zbek tilidagi sonlarning qo'llanishiga manbalardan misollar toping.
4. Sonning tuzilishi jixatdan turlari haqida gapiring.
5. Numerativ so'zlar nima?.

A d a b i y o t l a r
1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O’rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O’zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O’zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To’ychiboyevB. O’zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza №7.*Olmosh*

Reja:

1.Olmoshning ta`rifi va uning eski o’zbek tilida qo’llanish xususiyatlari.
2.Olmoshning mano turlari, turlanishi, fonetik variantlari.

Tayanch tushunchalar:

Olmosh – *ot, sifat, son va boshqa so’zlarning mavjudligini bevosita ifodalamay, ulrning mavjudligini ko’rsatuvchi mustaqil so’z turkumi.*
Kishilik olmoshlari,Ko’rsati olmoshi,o’zlik olmoshi,So’roq olmoshi,.
Belgilash olmoshi – *to’daning qismini yoki to’dani, jamlikni bildiradi.*
Gumon olmoshi – *noaniq shaxs, belgi, miqdorni bildiradi.*
Bo’lishsizlik olmoshi – *shaxs, belgi va miqdorni inkor etadi.*
Olmoshning mano turlari – *olmosh ifodalaydigan modal manolar.*

Olmosh ot, sifat, son va ba`zan boshqa so’z turkumlari o’rnida qo’llanib, predmet va unga xos bo’lgan belgining mavjudligini ko’rsatadi. Olmosh predmetlikni yoki uning belgisini doimiy emas, balki muayyan o’rinlarda ifoda qiladi. Shu jixatdan olmosh mustaqil so’z turkumi xisblansa-da, konkret manoga ega bo’lmaydi.

Eski o’zbek tilidagi olmoshlar mano xususiyatlariga quyidagi guruxlarga bo’linadi: kishilik olmoshlari, uzlik olmoshlari, kursatish olmoshlari, suroq olmoshlari, birgalik olmoshlari, belgilash olmoshlari, gumon olmoshlari, bo’lishsizlik olmoshlari.

*Kishilik olmoshlari***.** Kishilik olmoshlari leksik-semantik jixatdan ma`lum suz kategoriyasidir, hamda grammatik xususiyatlarga kura, turli affikslar bilan ifodalangan, kishilik olmoshlarining ba`zi fonetik variantlarini xisobga olmaganda, ko’pchilik qismi hozirgi o’zbek tilida foydalanilmoqda.

Kishilik olmoshlarining I shaxs birligi: ***men.***

Ko’pchilik yozma manbalarda *men* olmoshi mimu yo-yu nun orqali yozilgan, XVII — XIX asrlarga oid ba`zi yozma obidalarda mim-u nun bilan ifodalangan. *Men* olmoshining har ikki yozuv formasi tarkibida old qator urta keng *e* tovushi qullangan:

XIX asrga oid ayrim yozma manbalarda ba`zan tarixiy-dialektal hodisa sifatida *men* olmoshining *ben* formasi iste`mol etilgan.

YOdgorliklarda *men* olmoshi funktsiyasini boshqa so’zlar ham bajargan. *Banda* va *bu banda* formalari Alisher Navoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Maxmur asarlarida qullanib, tinglovchiga nisbatan kamtarlik manosida foydalanilgan: *B a n d a shafaq-tek qan yiglab ke... (Yaqiniy). B a nd a ul vaqtda Buharada edim (ShN). B a n d a bayan gar qilsam (Maxmur).*

Faqir va *bu faqir* suzlari Navoiy, Abo’lgozi Baxodirxon, Ogaxiy, Muqimiy asarlarida qo’llangan: *F a q i r alar sari barurga muvaffaq boldum (Navoiy MN). F a q i r taraf tutub yalgan aytgan bolgay-men (Sh turk)*

XV asrdan boshlab *men* olmoshi urnida *faqiri-xaqir, faqiru-xaqir* suzlari birikmasi ham qullana boshlangan, ba`zan *bu* olmoshini *faqiri xaqir* suzlardan oldin kullash Navoiy hamda Ogaxiy asarlarida uchraydi: *Faqiri-xaqir yad tuttum kim... (Navoiy MN). B u f a q i r i-x a q i r ham kim bu ulug xanadannin', qadimiy bandasi va bu baland astannin' samimiy sarafka'nda'sidu'r-men (Ogaxiy).*

XVIII — XIX asrlarga oid yozma manbalarda *faqiri-xaqir ka'mina', ka'mina', bu ka'mina', men ka'mina'* birikmalari ham *men* olmoshi urnida iste`mol qilingan: *Faqiri-xaqir ka'mina' tagan'iz Muhammad Aminxoja Muqimiy (Muqimiy). K a ' m i n a ' h a m £z ko'zu'm bila'n ko'rdu'm (Furqat).*

II shaxs birligi: *sen.* Kishilik olmoshining *sen* formasi sinu yo nun bilan yozilgan, *sen* olmoshi tarkibidagi yo asosan old qator lablanmagan urta keng *e* unlisining belgisini ifodalaydi.

XV—XVI asrlar yozma manbalarida <u>*sen*</u> olmoshi kelishik affikslari bilan turlanganda, *yo* hfhai yozilmaydi: *senin'dek (Lutfiy)*; *senin'(Amiriy).*

Sen olmoshi *sinu nun yo* orqali hamda *yo* belgisini tushirib yozilsa ham, eski o'zbek tili yozma manbalarida *sa'n* emas, *sen* shaklida talaffuz etilgan.

III shaxs birligi: <u>*ul,*</u> ba`zan <u>*u*</u>, <u>*an*</u> shakli qullangan. XV— XIX asr yozma manbalarida asosan *ul* varianti qo'llangan. *a'l* olmoshi tarkibidagi *-l* undoshining tushib qolishi orqali ba`zan *u* shakli vujudga kelgan. *a'* kishilik olmoshi «Boburnoma» hamda Xuvaydo asarlarida ba`zi urinlarda uchraydi: har *kim ne kim u n i n ' yeriga' olturdi (BN). a ' n i kim saqladi xallaq (Xuvaydo).*

III shaxs kishilik olmoshi birligining *an* varianti *(ul>al>an)* ba`zan Furqat asarlarida uchraydi: *An hama beganalarga ashnaliq shunchalar*;

I shaxs ko'pligi: *biz.*

Biz olmoshi XV—XIX asr yozma manbalari uchun umumiy harakterga ega, yumshoq talaffuz etilgan, ko'plik, birlik manolarida qullangan.

Biz olmoshi ko'plik manosida: *B i z ham kishi yiba'rdu'k (BN).B i z ikki bola'k elmiz (Sh turk.). B i z ikkimizga' musulman bol tedi (Sh tar.).*

Biz olmoshi birlik manosida ham qo'llangan: *B i z i n' bila' bolgan begla'rini ham faraxorlariga yarasha berib shafqat qildim (BN). Bizni rasvai jaxan etti yad a'yla'ma'din' (Nodira).*

Ko'plik ifodalash xususiyatini yanada oshirish uchun *biz* olmoshiga *–la'r* affiksi qo'shilgan: *Mavlana Kabo'liy b i z l a ' r n i tila'b vasiyat qildi kim, bu kecha' alamdin barur-men (Navoiy MN).Gul gunchasidur goya bizla'rga' achilmaydur (Bobur).*

II shaxs ko'pligi: *siz.*

Siz olmoshi ko'plik manoda qullangan: *Biz sizin' uchun savrulduqq (ShN). Biz bu saridin yetka'ch, s i z ichka'ridin chiqib elikin'izdin kelurini taqsir qqilman'lar (BN).*

Siz olmoshining ko'plik manosini kuchaytirish uchun *–la'r* affiksi qo'shilgan: *S i z l a' r kim qarindashlar turur-siz bizin' birla' ittifaq qilin' (Sh tar). Shadman s i z l a ' r d i n - u o'lgu'ncha' minnatdar-men (Furqat).*

III shaxs ko'pligi: *alar, ular, anlar,* ba`zan *unlar* shakli qullanilgan.

Alar olmoshi XV—XIX asrlarda yozilgan ko'pchilik yozma manbalarda keng qullangan: *A l a r n i n ' ikisin o'ltu'ru'b (Navoiy). A l a r aydilarki, o'zba'kni bir masali bardur (Gulxaniy).*

a'lar varianti Lutfiy, Bobur, Abo'lgozi Baxodurxon asarlarida uchraydi: <u>*a'lar*</u> *mendin yashurub* (BN). *a'larnin' k£n'li* (Sh.tar.).

Anlar olmoshi Lutfiy, «Nusratnoma», Abo'lgozi Baxodirxon, Gulxaniy, Furqat asarlarida iste`molda bo'lgan: *a n l a r ashyani*; *A n l a r d i n o'tu'b xavuzga sharbatlar to'ku'lu'r. A n l a r ko'p yillargacha bu aytilgan nima'rsa'la'rni beru'rla'r* (Sh.tar.).

III shaxs ko'pligi tarixiy taraqqiyotida quyidagilar ko'zga tashlanadi: XIII-XIV asrlarda <u>*ular*</u>, <u>*anlar*</u> varianti keng qo'llangan bo'lsa, XV asrdan boshlab <u>*alar*</u> varianti faollashadi. XIX asr oxirlarida yana <u>*ular*</u>, <u>*anlar*</u> varianti faollasha boshlaydi hamda keyinchalik <u>*ular*</u> varianti III shaxs ko'pligida yagona bo'lib qoladi.

Kishilik olmoshlarining turlanishida eski o'zbek tilida o'ziga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

Kishilik olmoshlarining turlanishi:

Kelishiklar	Turlanishi
Bosh kelishik	*Men, sen, ul, biz, siz, ular, anlar, alar*
qaratqich kelishigi	*Menin', senin', anin', biznin' //bizin',siznin'//sizin',ularnin' //ularin', anlarnin'//anlarin', anlarnin', bizim, sizim*
Tushum kelishigi	*Meni, seni, ani, bizni, sizni, ularni, anlarni, alarni*
Jo'nalish kelishigi	*Man'a (man'ar), san'a (san'ar), an'a,bizga', sizga', ularga(qa), anlarga(qa), alarga (manqa, sanqa), biza', siza'*
o'rin-payt kelishigi	*Menda', senda', anda, bizda', sizda', ularda, anlarda, alarda*
Chiqish kelishigi	*Mendin, sendin, andin, bizdin, ulardin, anlardin, alardin.*

XIII-XIV asrlarda, XIX asrdan keyingi yodgorliklarda ham chiqish kelishigining *–da'n/-dan, ba`zan –du'n/-dun* varianti qo'llangan.

*a'zlik olmoshi***.** Eski o'zbek tilida *£z* olmoshi faol qullangan. ¤z olmoshi dastlab ot turkumiga oid so'z bo'lgan va o'zlik, vujud, jon, rux kabi manolarni bildirgan. Eski o'zbek tilida ham *£z* olmoshining bu manolari ayrim o'rinlarda saqlanib qolgan: ¤*zu'mdin xayat baray* (Navoiy). *ey sanam, £zni (vujud) bizga' naashna taka'y* (a'vaysiy).¤z so'zi eski o'zbek tilida olmoshga o'tish jarayoni tugallangan, shaxsga taalluqliligini, xosligini, uning tarkibiy qismi ekanligini manolarini anglatgan: ¤*zinin' sha'kli birla'* (Navoiy, XA). *Meni £z xuzuriga talab qildi* (F.). ¤z *qilichinboynuma yetku'rsa'* (Navoiy, LT).

¤z olmoshi takror qo'llanishi mumkin. Bunda ish-harakat sub`ektiga qaytganlikni, ya`ni ish-harakat sub`ektning o'zi uchun tegishli ekanligi manosi anglashiladi: *Tolganmagi o'z £zina' girdab* (Navoiy), *qilur* o'*ziga' o'zi ishtibax* (Muq.).

¤z olmoshi egalik va kelishik affikslarini qabo'l qiladi. Bunda dastlab egalik affiksi, so'ng kelishik affiksi qo'llanadi: ¤*zu'mnin' ikki yaxshi kishimni chaqirdim* (Sh. tar.). ¤*zida' xushi bar adam eshitsu'n* (Furqat).

Tushum, o'rin-payt va chiqish kelishigi affikslari *£z* olmoshiga to'gridan-to'gri qo'shilgan: ¤z *d a ' y o q e r d i m* (Navoiy). ¤z*ni necha' ku'n nakam tut* (Nodira). ¤*zdin tavba aysa* (Navoiy). Bunday qo'llanishda uning olmoshlik funktsiyasi ko'proq namoyon bo'ladi.

qadimgi turkiy yozma manbalarda va eski o'zbek tilining dastlabki davrlarida *kentu'(kentu')* olmoshi qo'llangan hamda bu olmosh *£z* olmoshiga ekvivalent bo'lgan: *Kera'k bolsam an'a men, kendya kelsu'n* (Xisrav va Shirin).

Kendu' olmoshi *£z* olmoshi bilan ham qo'llanadi: ¤*zi kendu' yekra'k (yomonroq) bilu'r erdi* (Tafsir).

Kendu' olmoshi eski o'zbek tilidayoq iste`moldan chiqqan va bu olmosh *ka'ndi (kendi)* shaklida hozirgi turk tilida saklanib qolgan.

Eski o'zbek tilida *£z* olmoshi bilan birga, fors tilidan o'zlashgan *xud* olmoshi ham iste`molda bo'lgan: *Ten'ri taala xud ka'ra'm bila' gunaxin'izdin £tti* (Navoiy). *Mirzaxan xud shaxbegimnin' tuqqan nabirasi* (Bobur).

*Ko'rsatish olmoshlari***.** Eski o'zbek tili yozma manbalarida *bu, bo'l, ul, oshal, oshul, shul, ushbu, hamul,* ba`zan *u, ush, shu, shubu, hamun, hamin* kabi kursatish olmoshlari tuzilishi jixatidan sodda hamda murakkab formalardan tashkil topgan. Sodda kursatish olmoshlari: *bu, ul(u), ush* formalaridan iborat. *bo'l, shul,* (shu), *ushbu, shubu, oshal, oshul, oshu, hamul* suzlari kursatish olmoshlarining murakkab formalarini tashkil qiladi. ham*un, hamin, hamiyn* kursatish

olmoshlari fors tillaridan uzlashgan. Kursatilgan davrlarga oid yozma manbalarda har qaysi kursatish olmoshining iste`mol doirasi, leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlari turlicha bo'lgan.

Bu kursatish olmoshi keng kulamda qullangan, nutq paytida mavjud bo'lgan yaqin masofadagi kishi, narsa, hodisalarni kursatadi: b*u benava* (Lutfiy), *b u rasadni* (BN).

Olmoshlar uch xil semantik vazifa bajargan:

Deyktik vazifa, ya`ni sof ko'rsatish manosini anglatgan: *Bu baytni oqubdur* (Navoiy, MN).

Anaforik vazifa, ya`ni oldin tilga olingan shaxs, predmetni ko'rsatadi: *Bu ham yaxshi bardi* (Boburnoma).

Preprativ vazifa, ya`nikeyin tilga olinadigan predmet va shaxslarni ko'rsatadi: *Meni tanimaydur, s£ru'ptu'rkim, bo'lar qaysi sultandur* (Boburnoma).

Bu kursatish olmoshi kelishiklar bilan turlanganda va ko'plik affiksini olganda, uning tuzilishida turli fonetik o'zgarishlar yuz beradi. Bosh kelishikdan boshqa kelishiklar bilan turlanganda, so'z boshidagi *b* undoshi *m* ga o'tadi: *buni-muni, bunun'-munun'* va x.k. Shuningdek, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarida negiz va kelishik hamda ko'plik affiksi o'rtasida interkalyar «*n*» undoshi orttirilishi mumkin. Kelishiklar bilan turlanganda «*n*» undoshining orttirilishi doimiy (statik) bo'lsa, ko'plik shaklida u doimiy emas. Misollar: *Bo'lar dagi Sayyidga' kirmish* (Shayb.). *Oglanlarnin' atlari munlar turur* (Sh.tar.). *Mundin artuq qilma zar* (Lutfiy).

So'z boshida «*b*»ning «*m*»ga o'tishi ham doimiy emas: *Barcha xalq buni eshitib...*(Sh.tar.).

Bu olmoshi XVIII-XIX asrlarda *bo'l* variantida ham qo'llangan. a'ning tafsiloti quyiroqda beriladi.

a'l olmoshi so'zlovchiga masofa jixatdan uzoqroq bo'lgan predmet va uning belgisini ko'rsatish uchun qo'llangan va bu jixatdan *bu* olmoshi bilan zidlanishni (oppozitsiyani) xosil qilgan: *Gamza birla' t£kti qanim ul sanam* (Lutfiy).

a'l olmoshining *u* varianti ham iste`molda bo'lgan: *Maxsharda galibakim, u ku'n k£rma'ga'y azab* (Lutfiy).

Ilmiy adabiyotlarda *ul (u)* olmoshining *an* varianti haqida fikr yuritiladi, aslida *an* olmoshi fors tilidan o'zlashgan bo'lib, fonetik jixatdan *ul* olmoshiga aloqasi yo'q.

a'l olmoshining kelishiklar bilan turlanish xususiyatlari *ul* kishilik olmoshi bilan aynandir.

a'sh so'zi haqida. Ilmiy adabiyotlarda bu so'z olmoshlar tarkibiga kiritiladi, lekin uning matndagi qo'llanish xususiyatlari boshqa olmoshlarga quyiladigan morfologik talablarga javob bermaydi, ya`ni u kelishik va ko'plik affikslarini qabo'l qilmaydi, lekin ko'rsatish olmoshi semantikasiga mos kela oladi, demak, u grammatikaning asosiy talabi, ya`ni kategorial belgilarni qabo'l qilmas ekan, uni olmoshlar tarkibidagi masalada munozara mavjud.

a'sh so'zi hozirgi o'zbek tilidagi *mana*[1] so'ziga ekvivalentdir. Ma`lum bo'ladiki, *mana* so'zi olmosh deb e`tirof etilmayotgan ekan, *ush* so'zini ham olmosh deb qarash mumkin emas, lekin bu so'z XIII-XIV asr yodgorliklarda faol qo'llangan: *qadax evru'ldi ush bostan ichinda'* (MN). *Zulfun' dagi ul kafur ush iman aladur-la* (Lutfiy). Lekin bu so'z *ushbu, oshul, oshal, shul* olmoshlarining xosil bo'lishida qatnashgan.

a'shbu (ushqbu) olmoshi nutq momentidagi predmet va belgini ko'rsatadi: *a'shbu dam eru'r jannin' futuxi* (MN). Lekin bu so'z o'zgarishlar yuz bergan, orttirma *-n* paydo bo'lgan, *b* tovush *-m* sonoriga o'tgan: Lutfiy — *munda*; Yaqiniy — *munun'-dek.*

Oshul (ush//oshqul) kursatish olmoshi XV—XIX asrlar yozma manbalarida iste`molda bo'lgan, tinglovchiga oldindan ma`lum shaxs, narsa hodisalarni kursatadi: *Faryadim oshul yerga' yetibtur (Lutfiy). Oshul yerda' yattuq* (Sh. tar.).

[1] *Мана, ана* сўзлари Хозирги кунда кўрсатув ундовлари деб юритилмоқда.

Oshal (ush//oshqul//al) olmoshi *oshul* olmoshining variantidir: *Oshal ku'nkim meni yazdan(ollox) yaratti* (MN). *Oshal suvlarnin' aralarinda oltururlar erdi* (Sh.tar.).

Osha, oshu olmoshlari *ushbu, oshul, oshal* olmoshlarining qisqargan shaklidir: *Oshu s£z birla'* (ShN). *Osha u'stu'nda' ton' birla' muz bar turur* (o'N).

Shul (ush/osh/shqul) olmoshi *bu, u, oshul, oshal* olmoshlarining fonetik o'zgargan va qisqargan shaklidir: *Shul eru'r aybim Muqimiy, mardumi Fargana-men* (Muq.). *Shul zamankim alur a'rga'nchni ol/ salur, albatta, Xurasan sari yol* (ShN).

Shul olmoshi *bu* olmoshining *bo'l* shaklida shakllanishiga ham sabab bo'lag, chunki *shul-bo'l* analogiyasi va oppozitsiyasi uchun u qulaylik tugdirgan. Aksincha, *bu* olmoshi *shul* olmoshiga oppozitsiyada turib, uning tasirida *shu* variantini yuzaga keltirgan.

una', ma'na', muna so'zlari ham semantik jixatdan olmosh funktsiyasiga yaqin turadi, lekin ular aslida ko'rsatuv undovlaridir. *une qaddu, a'na' xusnu, a'na' xulq* (Furqat). *Muna s£zinin' javabi tedi* (Sh.turk.).

Eski o'zbek tilida fors tilidan o'zlashgan va ulardan yarim kal`ka qilingan olmoshlar ham qo'llangan. a'lar quyidagilar:

hamin olmoshi. a' *ham (ta`kid yuklamasi)qin (bu)* tarkibidan iborat bo'lgan va *ushbu* olmoshi manosiga ekvivalent bo'lgan: *Bale, yalguz hamin alamda sen-sen* (Lutf.). *Menin' xaqimda qilur-sen hamin jafa xavasin* (Atoiy).

haman olmoshi ham *hamqan(u)* so'zlaridan tarkib topgan va eski o'zbek tilida *hamin* olmoshi kabi *ushbu* olmoshiga ekvivalnt bo'lgan, ayni zamonda, uning *hamun* varianti ham qo'llangan: *Tag haman allida hamun-hamun* (Navoiy). Lekin keyinchalik *hamun* varianti iste`moldan chiqib ketdi, *haman* so'zi esa semantik o'zgarishga uchrab, ravish so'z turkumiga o'tgan.

Fors tilidan o'zlashgan yuqoridagi olmoshlar eski o'zbek tilida yarim kal`kalanib, *hamul* variantida (*hamqul*) ham qo'llangan: *qoyar erdi hamul vadiy sari yu'z// qilib qat` allida tag olsa, gar tu'z* (Nav.hamsa).

Bu olmoshlar ham keyinchalik iste`moldan chiqib ketdi.

*So'roq olmoshlari***.** Eski o'zbek tilida *kim, ne, qay* so'roq olmoshlari mustaqil qo'llangan, boshqa so'roq olmoshlari *ne* va *qay* olmoshlariga tarixan yuklama, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar qo'shilgan shakllarda qo'llangan, lekin bunday so'z va qo'shimchalar o'zining morfematik manolarini yo'qotgan hamda so'roq olmoshlarining turli modal shakllarini xosil qilgan xolos, aslida olmosh yasash uchun xizmat qilgan emas.

Kim suroq olmoshi kishilarga nisbatan qullangan: *a'lu'sh algan k i m va ul ulushni togragan k i m (Sh tar.).*

Kim suroq olmoshi otlar kabi ko'plik affiksining *–la'r* variantini qabo'l qilgan: *Arz qilali k i m l a ' r vaqe`dur (Navoiy Mq). K i m l a ' r bila'n bazm a'yla'b (Muqimiy).*

Ne olmoshi eski o'zbek tilida keng qo'llangan va uning semantik qirralari ham ko'p bo'lgan:

- belgining miqdorini aniqlash manosida qo'llangan:*Ne imkankim qarar olgay k£n'lu'ma'* (Navoiy). *a'l shax bashida ne bala fitna bar erdi* (Lutfiy).
- sof belgini bildiradi: *Xan dedi: bu ne xikayat bolgay// Ne xikayat, ne rivayat bolgay?* (ShN).
- ritorik so'roq gaplarda so'z manosini kuchaytiradi: *Bu ne k£zdu'r, bu ne kirpu'k, bu ne qash// Ki chiqti din va imandin xalayiq* (Atoiy).
- sabab-so'roq manosini bildiradi: *K£zu'n' ne bala qara bolubtur* (Navoiy). *Bilma'n ne jarima bila' Xiriydin ixraj qildi* (Bobur).

Ne olmoshi to'liqsiz fe`llar birga qo'llana olgan va fe`l tarkibiga o'tgan: *Yu'z salam aydim ne bolgay* (Nodira). *Bizin' sari kelmes-sa'n ne boldi* (Navoiy).

Ne olmoshi ko'plik affiksini, tushum, chiqish kelishigi affikslarini olgan va ularda kelishik affikslari funktsional bo'lgan, jo'nalish kelishigi affiksi esa olmosh tarkibida kristallashib qolgan. qaratqich va o'rin-payt kelishigida qo'llanishi masalasi ochiq qoladi.

Ne olmoshi negizida shakllangan so’roq olmoshlari:

Nema’. Bu so’z tarkibidagi ma’ so’zi qadimgi turkiy tilga oid yuklamadir (lekin uni E.Fozilov boglovchi deb qaraydi. qarang: Fozilov E. o’zbek tilining tarixiy morfologiyasi. – T.,a96o’,an’6-bet). Eski o’zbek tilida bu so’z *narsa* so’zi manosida qo’llangan, ya`ni xali olmosh turkumiga to’la o’tmagan: *Dagdaga boldikim, bir nima’ baglagay-men* (Bobur). Bu so’z *nima* variantida XIX asrning g’-yarmidan so’roq olmoshi sifatida mustaqil qo’llangan.

Nechu’n//nevchu’n. °chu’n ko’makchisi ishtirokida shakllangan va sabab manoli so’roq olmoshidir: *Mirza sorubturki, nechu’n £ltu’rdu’n’* (Navoiy). *Sen nevchu’n £zu’n’ni bu riyazat va ranjga saldin’* (Navoiy).

Nechu’k. Bu olmosh qadimgi turkiy tilda bir necha taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan: *neqcha’-neqcha’qka’-neqcha’qk-nechu’k.* Ikkinchi taxmin (versiya): *neqchag//neqchaq// neqcha’k-nechu’k.*

Nechu’k olmoshi ham sabab manosini ifodalaydi: *Nechu’k bolgay azmi-miz* (Navoiy). Bu olmoshning ba`zan *nu’chu’k* fonetik varianti ham qo’llangan: *Men nu’chu’k majnun ka’bi rasvai alam bolmayin* (a’vaysiy).

Nelu’k. –lik affiksining *–lu’k* varianti orqali shakllangan va u ham sabab manolidir: *Nelu’k bashimga tupraq qoymagayim* (Xisr. va Shir.).

Neta’k. –dek affiksining *–ta’k* varianti orqali shakllangan va bu olmoshbelgi manolidir: *qanlari yerga’ neta’k t£ku’lmu’sh* (ShN).

Necha’. Bu olmosh *neqchag* so’zlaridan soddalashgan. Miqdorni so’rash uchun qo’llanadi: *Necha’ yil ranju mexnat sendin artuq* (Navoiy). Bu olmosh III shaxs egalik affiksini va barcha kelishik affikslarini qabo’l qilgan.

Nega’. Jo’nalish kelishigi affiksi orqali shakllangan va sabab manosiga ega: *Bir kishi jani u’chu’n yu’z min’ jan nega’ azurda qilur* (ShN).

Bu olmoshning *neya’, na’gu’, nagu* variantlari ham qo’llangan: *emdi biz ken’a’sh qilalim, na’gu’ savab kelu’r, k£ra’lim* (Taf.). *Nagu barur-sen* (Lutfiy).

Necha’ olmoshining *na’ta’* varianti ham qo’llangan: *Neta’ maxram ayladin’* (Muqimiy).

qa(y) olmoshi (qadimgi turkiy tilda *qan*) mustaqil qo’llangan va belgi manosiga ega bo’lgan: *qay birikim bar erdi* (Navoiy).

qa(y) olmoshi negizida quyidagi so’roq olmoshlarining modal manolari xosil qilinadi:

qayu. Bu olmosh tarkibidagi *–u* formanti *–i/-i* egalik affiksining variantidir: *qayu xushdil, qayu maxzun boldi// qayu Layla, qayu Majnun boldi* (ShN).

qaysi. –si formanti III shaxs egalik affiksidir: *qaysi namurad elin’ sabr eta’giga’ urdakim murad tapmay* (Navoiy). Bu olmosh ko’plik, egalik affikslarini qabo’l qilgan.

qayu, qaysi olmoshlari belgini ajratib, ta`kidlab so’rash manosini anglatadi.

qayda (qanda), qaydin, qayan, qani. Bu olmoshlar o’rin bilan bogliq bo’lgan so’roqni bildirgan. *qayda, qaydin* tarkibidagi kelishik affikslari negizda kristallashgan. *qayan* so’zidagi *yan* o’rin oti, *qani* so’zidagi *–i* esa egalik affiksidir: *Desa’n’kim, qayda-sen, oyo Ataiy* (Atoiy). *Men dedimkim, sizla’r qaydin kela’-siz* (Boburnoma). *Yana darugadin qayan qachib barganim kishi bilma’s* (Boburnoma).

qancha. Bu olmosh *qay(n)qcha(chag,cha)* qismlardan iborat bo’lib, dastlab payt manosini, keyinchalik miqdor manosiga ko’chgan: *qancha sa’ksa’n shuncha yilqim...*(Muqimiy). Bu so’roq olmoshi o’rnida *chand, chandan* so’zlari ham qo’llangan.

qachan. Bu so’roq olmoshi *qayqchagqin (qay vaqt bilan)* so’zidan soddalashgan va payt manosiga ega: *qachan bolgayki tapqay-men xabar yar-u diyarimdin* (Furqat). *qancha, qachan* olmoshlari ba`zan kelishiklar bilan turlangan.

Belgilash olmoshlari. Aksariyat adabiyotlarda bunday olmoshlar birgaolik, birgalik-belgilash olmoshlari deb yuritilgan.

Eski o’zbek tilida ikki gurux belgilash olmoshlari qo’llangan:

1. Yakkalikni ko’rsatuvchi belgilash olmoshlari.
2. To’dani, guruxni ko’rsatuvchi belgilash olmoshlari.

Yakkalikni ajratib ko'rsatuvchi belgilash`olmoshlariga *har* va uning ishtirokida xosil qilinganolmoshlar hamda eski o'zbek tilining dastlabki davrida faol qo'llangan, lekin XV asrdan keyin passiv qatlamga o'tib ketgan *tekma'* olmoshi taalluqlidir.

To'dani, jamlikni bildiruvchi belgilash olmoshlariga arxaik *qamuq// qamug,* turkiy qatlamga xos bo'lgan *barcha, bari, barliq,* fors va arab tillariga xos bo'lgan *ba`zi, hama (hamma), tamam, jumla, jam`, majmu`* olmoshlari taalluqlidir.

har olmoshi fors tilidan o'zlashgan va eski turkiy tilda XI-XII asrlardan boshlab qo'llana boshlagan hamda eski o'zbek tilida uning keng qo'llanishi boshlangan: *har yil ani xazana qilgaylar* (Navoiy). So'roq olmoshlari bilan birga kelib murakkab belgilash olmoshlarini xosil qilgan: *har kim, har qayan, har nima', har qaysi, har necha', har nechu'k, har qachan, har qayda, har ne.*

har ne eski o'zbek tilida olmoshlik xususiyatini saqlab qolgan: M*enin' har ne xalimni bilmish edin'* (Munis). *har ne desa'm qabo'l qilgaymu-sen* (Navoiy).

har ne olmoshi hozirgi o'zbek tilida semantik o'zgarishga uchragan va modal so'zlar turkumiga o'tgan.

Tekma' asl turkiy belgilash olmoshidir. Bu olmosh ham XIV asr boshlariga qadar mustaqil qo'llana olgan: *Chiqqay xazar xalqa k£n'u'l tekma' sachtin* (Lutfiy). Bu olmosh kelishik qo'shimchalarini ham olgan: *Suchulmish tekma'la'rga' tan libasin* (Xisr. va Sh.). *Tekma'* olmoshi hozirgi turk tilida hamon qo'llanmoqda.

To'dani bildiruvchi olmoshlar.

Barcha (barqcha) birgalik olmoshi kishi, narsa va hodisalarning mavjud yigindisi manosini anglatgan: *Barcha tapilur bizga' vale yar tapilmas (Lutfiy). Tu'ga'ndi b a r c h a so'z (Navoiy FSh). B a r c h a bir yoli ypyshqa kirdi (ShN).*

Bari (barqi) olmoshi *barcha, hamma* suzlari kabi birgalik mano anglatgan: *B a r i alamga taj (Navoiy XA).Bari pari misali (ShN)* .

qamuq// qamug olmoshi eski o'zbek tilinning XV asrlarga oid yozma manbalarida iste`molda bo'lgan. Shuningdek, XVII — XIX asrltsrda bitilgal ayrim yozma manbalarda uchraydi va *barcha* olmoshi kabi mano anglatadi: *qa m u q elga' berib (Lutfiy). Bizga' boldi qamug elin' orni (Sh tar.).*

hama *(hamma}* birgalik olmoshi XV asrdan keyin yozilgan yozma manbalarda qullangan: hama *atvari xikmatga muvafiq (ShN).* X *a m a aytur Xuvayda nechu'n yiglar-sen (Xuvaydo).*

hama olmoshi ayrim adabiyotlarda *qamuq* olmoshining fonetik o'zgarishi deb izoxlanadi. Bu fikr yanglish bo'lib, aslida arab tilidagi *xum (ular)* va fors tilidagi *hama (barcha)* olmoshlarining o'zbek tiliga o'zlashishi deb qarash o'rinli bo'ladi.

Jumla birgalik olmoshi arab tilidan uzlashgan *barcha, hamma* olmoshlariga ekvivalentdir: *J u m l a alamga ishi qaxr olub (Navoiy XA). J u m l a jaxan axliga raxat yetu'ru'b (Nodira).*

Ba`zi* olmoshi arab tilidan uzlashgan, gurux, tuda manosini ifodalaydi, kelishik, egalik, ko'plik affikslarini ham qabo'l qilgan: *B a `z i d i n gaxi bira'r yaxshi bayt vaqe` bolur (Navoiy Mq). B a ` z i n i mun'a' keltu'rga'ndu'r (Navoiy MN). Ba`zilarga orun berdi (Sh tar.).

Tamam (tamamiy, tamamat) olmoshi arab tilidan uzlashgan *barcha, hamma* olmoshlari manosida qullangan: *Stunlari t a m a m i y tashtin (BN). T a m a m mogul va tatar elini la'shka'rini jam` qilib (Sh tar.).*

Jam`, jam`i olmoshi arab tilidan o'zlashgan: *Xindustannin' jam`i rudlarinin' bu xasiyati bar* (Boburnoma). *Jam` vilayatlarni musaxhar qilib...*(Sh.turk).

Majmu`* olmoshi ham arab tilidan o'zlashgan: *Majmu`in anin' qashiga qoydi (hamsa). *qildi yagma k£zla'rin' majmu`i Turkistanni* (Sakkokiy).

Gumon olmoshlari. **E**ski o'zbek tiliga oid yozma manbalarda *kimsa'(>kimqersa'r), nema'rsa'(>neqma'qer-sa'), neersa' (>neqersa'), bira'v(>bira'gu'), falan* gumon olmoshlari qullangan, ba`zan ayrim urinlarda *bira'gu' (birqa'gu'), bira'vla'n*

(birqa'vqla'n) formalari ham uchraydi. a'lar kishi, narsa va hodisalarning taxminlash, tusmol qilish kabi manolarini bildirgan.

Kimsa', kima'rsa', nema'rsa' va *neersa', falan, bira'v,bira'gu'* gumon olmoshlari tusmol qilingan kishilarga nisbatan qullangan. *Nema'rsa'* va *neersa'* olmoshlari predmet va hodisalarga nisbatan ishlatilgan.

Kimsa' gumon olmoshi eski o'zbek tilining barcha davrlarida keng qo'llangan: *K i m s a ' tazallum etma'ga'y (Lutfiy). K i m s a ' kim a'yla'ma's ashuqmagni xayal (Navoiy Mq).*

Kima'rsa' gumon olmoshi eski o'zbek tilining ilk davrlarida qo'llangan, keyingi davrlarda kam qo'llangan:*Kima'rsa' kim sen'a' egri ko'n'u'l tutar bu qadar(Sakkokiy).*

Nema'rsa' gumon olmoshi *nima'* so'roq olmoshiga *ersa'* so'zining qo'shilishi bilan xosil bo'lgan: *a'ch-to'rt n e m a ' r s a' asilib erdi (BN). Ko'p n e m a ' r s a ' berga'n turur (Sh turk).*

Bira'v gumon olmoshi *kimsa* olmoshi manosida qullangan: *B ir a' v ko'z birla' bolgay qatlin' (Navoiy LT). B i r a ' v ishq ichra' qildi qumri (Ogaxiy).*

Falan gumon olmoshi arab tilidan uzlashgan: *F a l a n kishiga', ya`ni faqir qashiga eltib (Navoiy MN). F a l a n vaqtda f a l a n ma'likin'iz mundag xiyanat qildi (Sh tar.).*

*Bo'lishsizlik olmoshlari***.** Eski o'zbek tilida ham bo'lishsizlik olmoshini fors tilidan uzlashgan x*ech* so'zi ifoda qilgan. X*ech* bo'lishsizlik olmoshi kishi, narsa, hodisalarga nisbatan qullangan.

Bo'lishsizlik olmoshining murakkab formasi esa boshqa olmosh turlari bilan yonma-yon kelishi orqali xosil qilingan: x*ech kim, xech kimsa', xech kima'rsa'* shaxsga nisbatan; x*ech ne, xech nema', xech nema'rsa', xech qayda* olmoshlari narsa va hodisalarga nisbatan qullangan. x*ech qaysi, xech qayusi* kishi va narsalar uchun aralash istifoda qilingan.

Xech olmoshi mutlaq inkor manosini ifodalagan: *qalmasa xe c h namu nishanim (Lutfiy). Ki biz ko'rdu'k, amma bilma'du'k xe c h (Navoiy FSh).* X *e ch parvayi qilmadilar (BN).*

Xech kim bo'lishsizlik olmoshi: yos*ru'kla'r ichra' ko'zu'n'a' x e ch k i m harif yoq (Lutfiy).* X*ech k i m o'z ko'n'liga' gam tila'ma's (Navoiy Mq).*X *e ch k i m bilma's alarnin' ishini (ShN).* X *e ch k i m eshitka'n va ko'rga'n yoq turur (Sh.tar.).*

Xech kimsa' (xech kima'rsa') olmoshi ham x*ech kim* olmoshiga ekvivalent bo'lgan: *Tu'shma'su'n gul mavsumi xe c h k i m s a ' janandin (Lutfiy). qilmas anin' ta'ka'llu'mini xe c h k i m s a ' rad (Nodira).*

Xech kima'rsa' bo'lishsizlik olmoshi siyrak qullangan, mano jixatidan x*ech kim, xech kimsa'* olmoshlariga uxshaydi: *Xech k i m a ' r s a ' kelma'ga'y (Lutfiy). Xech k i m a ' r s a ' qol yapmasunlar (Sh tar.).*

Xech nema' (xechqneqma') bo'lishsizlik olmoshi: *Meni tega'n kishiga' xe c h n e m a' yoq (Amiriy). An'a xe c h n e m a ' marham yerin tutmas (Navoiy Mq).*

Xech nema'rsa' olmoshi kam uchraydi: X *e ch n e m a ' r s a ' an'a majxul erdi (Navoiy MN).* X*ech n e m a ' r s a ' oqugan ema's (BN)*).

Xech qaysi bo'lishsizlik olmoshi bo'lishsiz atributiv holat manosini anglatgan: X *e ch q a y s i matla`ni ayta almadilar (Navoiy MN).*X*ech q a y s i turk tili bila' ta'ka'llu'm qila almaslar (Navoiy ML).*

Topshiriqlar:

1. Eski o'zbek tilida faol qo'llanib, hozirgi o'zbek tilida iste`moldan tushib qolgan kishilik olmoshlarini sanang.
2. Eski o'zbek tilidagi gumon olmoshlarining mano turlarini sanab ko'rsating.
3. Olmoshning har bir mano turiga manbalardan misol to'plang.

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To'ychiboyevB. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.

5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza №8-9.Fe’l (4soat)

Reja:

1. Fe`lning semantik va grammatik belgilari.
2. Fe`l yasalishi.
3. Eski o’zbek tilida mayl va zamon formalari.

Tayanch tushunchalar:

Fe`l – *ish-harakat va holat bildiruvchi so’zlar turkumini ifodalaydi.*

Fe`l aspekti – *bo’lishili va bo’lishsizlikni anglatadi.*

***Fe`l yasalishi –*** *boshqa turkumlardan so’z yasovchi affikslar orqali fe`l yasalishi jarayoni.*

Mayl – *ish-harakat (holat)ning real voqelikka munosabatini bildiradi.*

Zamon – *ish-harakatning nutq so’zlanib turgan paytga munosabatini bildiradi.*

Tuslanish – *fe`lning shaxs-son affikslari bilan o’zgarishi va paradigma xosil qilishi.*

Buyruq-istak mayli – *bir paradigma xosil qiluvchi va buyruq semasi etakchi bo’lgan fe`l mayli turi.*

Shart mayli – *bir paradigma xosil qiluvchi shart semali fe`l mayli turi.*

O’tgan zamon fe`llari – *nutq momentiga nisbatan oldin yuz bergan (yuz bermagan) ish-harakatni anglatadi.*

Hozirgi zamon fe`llari – *nutq momentida yuz bergan (yuz bermagan) ish-harakatni bildiradi.*

Hozirgi-kelasi zamon fe`llari – *nutq momentida yuz bergan va undan keyin amalga oshiriladigan ish-harakatni anglatadi.*

Kelasi zamon fe`llari – *nutq momentidan keyin amalga oshiriladigan ish-harakatni anglatadi.*

***Fe`l nisbatlari –*** *ish-harakatning sub`ekti va ob`ekti munosabatlarini bildiradi.*

***Fe`lning funktsional formalari –*** fe`lning nutqda qo’llanish shakli.

harakat nomi – ish-harakatning atamasi bo’lib, otga xos so’z o’zgarish xususiyatiga ega bo’lgan va gapda ot bajargan vazifalarni bajarishga mos bo’lgan fe`l shakli.

Sifatdosh – predmetning belgisi bo’lgan harakatni, ba`zan ish-harakatni to’gridan-to’gri anglatadigan fe`l shakli.

Ravishdosh – harakatni ikkinchi bir ish-harakat belgisi sifatida anglatadigan, gapda xol va ergash gap kesimi bo’lib kelishga moslashgan fe`l shakli.

***Sof fe`l –*** buyruq-istak, shart va ba`zan aniqlik mayllari hamda ularning zamonlari manolarini ifodalab, har doim tuslanish tizimi elementi (unsuri) sifatida yo’llanadigan, gapda faqat kesim vazifasida kelishiga mos fe`l shakli.

Fe`l barcha tillarda ham faol bo’lgan so’z turkumlaridan biridir.

Fe`l semantik doirasi keng, lekin, asosan, ish-harakat hamda ish-harakat tasavvurini beradigan holatni anglatadi, ya`ni *barmaq, kelma’k* kabi fe`llar ish-harakatni, *k£rma’k, eshitma’k oylamaq* fe`llari esa holatni bildiradi.

Fe`l turkumiga bir necha morfologik kategoriyalar xosdir: funktsional formalar, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, tuslanish, mayl va zamon.

**Fe`l aspektlari.** Ayrim adabiyotlarda fe`l aspektlariga mumkinlik va nomumkinlik shakllarini ham kiritadilar. Aslida mumkinlik-nomumkinlikni xosil qiladigan grammatik shakllar (formalar) yo'q, balki bunday semantika qo'shma fe`llar orqali xosil qilinadi. Masalan, *tarta alar – tarta almas.*

Fe`lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari fe`l aspektlari kategoriyasini xosil qiladi, chunki bo'lishsizlik *–ma//-ma'* affiksi orqali xosil qilinadi va bu affiksni olmagan so'z bilan oppozitsiyaga kirishadi: *barma, keltu'rma'* va boshqalar.

***o'timli va o'timsiz fe`llar haqida.*** o'zbek tilida uning tarixiy taraqqiyotidan qat`i nazar bunday morfologik kategoriya mavjud bo'lmagan, balki fe`lning tushum kelishigidagi so'z bilan boglana olishi qobiliyati uning semantik xususiyatidir. Demak, o'timlilik va o'timsizlik fe`l shakliga emas, balki u fe`lning semantik xususiyati bilan boglanadi.

***Fe`llarning yasalishi.*** Fe`ldan boshqa turkumlardan so'z yasovchi affikslar orqali fe`l yasalishi mumkin:

-la/-la' affiksi. Bu affiks barcha davrlarda ham faol qo'llangan. Ot, sifat, son, ravish, ba`zan olmosh turkumlaridan fe`l yasagan. Turkiy va turkiy bo'lmagan so'zlarga ham qo'shilgan: *T£sh-t£shtin pichaq**lab,** chapqu**lab** para**la**dilar* (Boburnoma). *Bir ku'n namazi peshinni guzar**la**di*...(Nav. Nas.mux.).

-da/-da' affiksi. Bu affiks *–la/-la'* affiksining fonetik variantidir. Eski o'zbek tilida sonor undoshlardan so'ng qo'llangan: *Padshax bu gulamni in**da'**di* **(**Taf.). *Yol**da**sa bu yolda Nizamiy yolum// qol**da**sa Xusrav bila' Jamiy qolum* (hamsa).

-a/-a' affiksi. Ot turkumidagi so'zlardan fe`l yasagan: *Tun**a'**di la'shka'r anda* (ShN). *Ashlarini ash**a**b va yashlarini yash**a**b, atalari keynidin ketdi* (Sh.tar.).

-y/-ay affiksi. Sifatdan fe`l yasagan: *a'l faqir qashida ulg**ay**ibdur* (Navoiy). *Barcha sag**ay**tlanib atlandilar* (ShN).

-r/-ar/-a'r affiksi. Sifatdan fe`l yasagan: *Bu nav` qara ku'n ichra' qarib// Ya`niki qara ku'nu'm aq**ar**ib* (Navoiy). *K£k**a'r**ga'n yigachlarnin' barchasi* (Sh.tar.).

-qar/-ka'r affiksi. Otdan fe`l yasagan: *Tag tuzni tu'n-u ku'n bash**qar**ib// Xayalni yol aqbasidin £tka'rib* (hamsa).

-q/-k,-iq/-ik,-uq/-u'k affiksi. Ot va boshqa turkumlardan fe`l yasagan: *Libasi ra'n'in bilma'n, yol**uq**sa, xayrattin* (Lut.). *Kim yag**iq**sa shaxi Shayabaniyga* (ShN).

-sa affiksi. Otdan fe`l yasagan: *Dilraba, abi xayat ernin' u'chu'n jan su**sa**di* (Lut.).

-sin affiksi. Ot va sifatdan fe`l yasagan: *Yiglam**sin**ur –u k£ziga' kelma's yash* (Navoiy).

Fe`lning nutqda qo'llanishga xoslangan shakllari uning funktsional (amaliy) formalaridir. Fe`lning ayrim formalari kelishik, egalik affikslarini ham qabo'l qiladi, gapda ot va boshqa suz turkumlari funktsiyasini bajarib, ega, aniqlovchi, tuldiruvchi yoki xol vazifasida ham kela oladi. Shunga kura, bunday formalar fe`lning grammatik funktsional formalari xisoblanadi. Fe`lning grammatik funktsional formalarini sof fe`l, harakat nomlari, sifatdosh va ravishdosh formalari tashkil etadi.

Fe`lning grammatik funktsional formalarida, bir tomondan, fe`lga xos belgilar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik funktsiyalari buyicha bu formalar boshqa suz turkumlariga ham yaqin turadi. Bu jixatdan sof fe`llar faqat fe`llarga, harakat nomlari otga, sifatdosh formalari sifatga, ravishdosh formalari ravishga yaqin turadi.

harakat nomi formalari. a'lar ish-harakat va holatning atamasidir. Eski o'zbek tilida harakat nomining quyidagi formalari amalda bo'lgan:

-maq/-ma'k affiksli forma. Bu forma harakat nomining asosiy kursatkichi sifatida faol iste`molda bo'lgan.

Jo'nalish kelishigining *–a,-a'* affiksi qo'shilganda, *-maq/-ma'k* affiksining oxiridagi [q], [k] undoshlari ikki unli urtasida jaranglilashib, [g], {g] undoshlariga utadi: *qachmaga yu'z evu'rdi (qR), baqmaga imkan yoq (MN).*

Egalik affiksi qo'shilganda ham *–maq/-ma'k* affiksi tarkibidagi jarangsiz [q], [k] undoshlari jarangli (g), [g] undoshlariga utishi mumkin: *Bu yazuqdan qutulmagim muxal esa',... (SS). Bir nafas s a b r e t m a ' g i yoq (SS).*

-maq/-mak affiksli harakat nomining bo'lishsizlik manosi ikki xil yul bilan ifodalangan:

a) *-ma/-ma* affiksli bo'lishsiz formadagi fe`lga *-maq/-mak* qo'shilishi bilan: *T i l a n m a m a k k a davlatindan maxrum dururlar (SS).*

b) sifatdoshning *-mas/-ma's* affiksli bo'lishsiz formasiga *-liq[-lik* affiksi qo'shilishi bilan *(-masqliq//-maz q liq)*: *Menim so'zim e s h i t m a z l i k uchun (TF). Oglan bilma'slikindin qilur (qR).*

harakat nomining *-maq/-mak* affiksli formasi ot turkumidagi suzlar kabi egalik va ko'plik qo'shimchalarini qabo'l qiladi, kelishiklar bilan turlanadi, kumakchilar bilan qullanadi:

a. *-maq/-mak* affiksli harakat nomi egalik affikslari bilan qullanganda, fe`l negizidan anglashilgan ish-harakatning qaysi shaxsga qarashli ekanligi kursatiladi: *Menim qurtulmagim anda turur (TF). Sen asru'k k e l m a k i n ' munda xata ul (XSh).*

g'. *-maq/-mak* affiksli harakat nomiga qo'shilgan *-lar/-lar* affiksi odatdagi ko'plik manosini emas, balki fe`l uzagidan anglashilgan ish-harakatning sub`ekt bilan moslashuvi uchun xizmat qiladi: *Yusufni o'l t u ' r m a k l a r i ikkidin xali erma's erdi (qR). Neta'k kim yiglamaqlarini eshittim,...(NF).*

q. Ot urnida qullangan bosh kelishikdagi *-maq/-ma'k* affiksli harakat nomi asosan ega, ba`zan kesim yoki aniqlovchi vazifasida keladi.

Egasi *–maq/-ma'k* affiksli harakat nomi bilan ifodalangan gaplarning kesimi asosan ot yoki ot turkumidagi suzlar bilan ifodalanadi: *Ibraximga qonuq t i l a m a k fariza erdi (qR).*F*i y b a t qilmaq uluq yazuqlardin turur (NF).*

-maq/-mek affiksli harakat nomi kelishik affikslari bilan qullanganda har bir kelishik formasining harakteriga muvofiq ravishda turli sintaktik vazifalarni bajaradi: *Azinlar aybini k o ' r m a k n i qoygil (XSh). Ilm o'g r a n m a k k a keldim (qR). Andin yaranlari qattiq s o ' z l a m a k d i n yigdilar (TF).*

*-sh(-ish/-ish, -ush/-u'sh***)** affiksli forma eski o'zbek tilida kam iste`molda bo'lib, ayrim yodgorliklarda uchraydi: *Yu'gu'ru'**sh**da zabunraqdur* (Boburnoma). *...bo'larnin' al**ish**i va ber**ish**i* (Boburnoma).

-v/-uv/-u'v affikli forma kam qo'llangan: *Ondin ikki kishi boldi saqla**v*** (ShN).

Sifatdosh formalari. Turkiy tillarda sifatdosh predmetning belgisi bo'lgan ish-harakat va holatni hamda bevosita ish-harakat va holatni anglatadi. Sifatdosh formalarida belgi-harakat manosi bilan birga, grammatik zamon manosi ham mavjud bo'ladi. Bu xol sifatdosh formalarining harakat nomi formalaridan farqlovchi asosiy belgisini tashkil etadi. Sifatdosh formalarini zamon nuqtai nazardan quyidagi ikki asosiy gruppaga ajratish mumkin: a) utgan zamonni ifodalovchi sifatdosh formalari. Bu gruppaga *-mish/-mish, -duq/-du'k//-tuq/-tu'k,-gan/-gan//-qan/-ka'n,-an/-an* affikslari bilan xosil bo'luvchi formalar kiradi; g') hozirgi - kelasi zamonni ifodalovchi sifatdosh formalari. Bu gruppani *-r(-ar/-ar, -up/-u'r, -up/-u'p, -yup/-yu'r), -maz/-maz//-mas/-mas, -gu/-gu'-qu/-ku', -guchi/-gu'chi//-quchi//-ku'chi, -dachi/-dachi//-tachi/-tu'chi, -gli/-gli, -asi/-asi* va boshqa affikslar bilan xosil bo'luvchi formalar tashkil etadi.

*o'tgan zamon sifatdoshlari***.** *-gan/-ga'n (-qan/-ka'n)* affiksli sifatdosh eski o'zbek tilining barcha davrlari uchun harakterli bo'lgan va faol qo'llangan.

qullanishi, mano va funktsiyalari:

a. Atributiv pozitsiyada qullanib, aniqlovchini ifodalaydi. Aniqlovchi vazifasida kelgan *–gan/-ga'n* affiksli sifatdosh atributiv o'ram tashkil etadi va ular gap transformatsiyasida bo'lishi mumkin:

a) egaqkesimdan iborat o'ramlarda *–gan/-ga'n* affiksli sifatdosh predikativ birikmani tashkil etadi: *C h e r i k t u s h k a ' n yerga' keldila'r (qR). Jumlamiz razimiz bu ikki ulugim i z s o ' z l a ' g a ' n so'zga' (NF).*

b) so'z birikmasi qolipida bo'ladi: *Rast so'zla'g a ' n x a t u n l a r burch qilsalar,... (TF). V a f a qilgan k i s h i l a ' r g a ' vafa qil (MN)*;

g’. *-gan/-ga’n* affiksli sifatdosh otlashadi va ot bajaradigan sintaktik funktsiyaslarda qullanadi: *Bu yaratilgan sizla’rda’ bolsa,... (qR). Meni yamanlagan xalak boldi (NF). Seni ko’rga’n o’zindin yat bolur (MN).*

Otlashgan *-gan/-ga’n* affiksli sifatdosh otga xos grammatik belgilarga ega bo’ladi va shunga muvofiq har xil sintaktik funktsiyalarni bajaradi:

a) *-lar/-la’r* ko’plik affiksini oladi: A*nin’ birla’ bolganlar... butga tabinurlardi (TF).* q*amug tugganlar o’ldi (qR). Yana erma’n t e g a ’ n l a ’ r zar bolgay (XSh).*

b) egalik affiksini oladi: *Men tamam alim boldum, xech b i l m a ’ g a ’ n i m qalmadi (NF). Bu siznin’ k e l t u ’ r g a ’ n i n ’ i z bizga’ yaramas (qR);*

v) kelishik affikslarini oladi: *a’l sorganin’ni keta’rgil (NF). Yiqilganlarga andin dastgirlik yetka’y (Navoiy Mq).*

q. *–gan/-ga’n* affiksli sifatdosh *uchun, son’ (son’ra),birla’, ka’bi, beru’* kabi kumakchilar bilan qullanadi: *Suv tartqan u c h u n ijrasin bera’yin (qR). Bu bir qorganni algan bila’ ne ish achilgay(BN).*

n’. *–gan/-ga’n* affiksli sifatdosh *-tek* qo’shmchasini qabo’l qiladi: *Tila’b Shavur ayitgan-tek nishanin //sorar shaxzadanin’ turgan makan`n (XSh). Muganniy musiqiy agaz qildi//atasi torbasinda yiglagan-tek (SS).*

-mish/-mish affiksli sifatdosh eski o’zbek tilining barcha davrlarida faol qullangan bo’lib, uning grammatik mano va funktsiyalarining taraqqiyot davrlari ikki bosqichga bo’linadi: birinchi bosqich XV asrdan oldingi davrlarni, ikkinchi bosqich XV asr va undan keyingi davrlarni o’z ichiga oladi.

a. o’zbek tilining oldingi davrlarida *–mish/-mish* affiksli sifatdosh formasining qadimgi grammatik manolari va funktsiyalari saqlangan, ya`ni:

a) predmetning harakat belgisini ko’rsatib, aniqlovchi vazifasida keladi: *Kelmish yollarina yandilar (Taf.). Bu qilmish ish birla’ biz zalimlardin bolur-miz (qR);*

b) egalik affikslarini qabo’l qiladi: *Agar bu aymishin’ so’z rast ersa’,..(Taf.).*

v) kelishik affikslari bilan qo’llanib, gapning ikkinchi darajali bo’laklarini ifodalaydi: *Eshitkil bu gazalda ishla’ridin// Muhammad xoja beg aymishlaridin (MN). Sham`un bo’lardin qachmishda suvsamish erdi (qR).*

g’. o’zbek tilining XV asr va undan keyingi taraqqiyot davrlarida *–mish/-mish* affiksli sifatdoshning grammatik manolari va funktsiyalari chegaralangan bo’lib, uning asosan o’tgan zamon fe`li sifatida qo’llanishi davom etgan.

o’tgan zamon sifatdoshini yasovchi *–duq/-du’k* affiksi qadimgi yodgorliklar tilida *–tuq/-tu’k* ko’rinishida ham qo’llangan. Grammatik manolari va funktsiyalarijixatidan *–mish/-mish* affiksli sifatdoshga o’xshaydi: *Makka achilduq kun boldi (Taf.). Yusufga yigladuqum ko’zu’mni aqardi (qR)*

hozir*gi - kelasi zamon sifatdosh formalari.*

-r affiksli forma. Bu affiks *-r, -ap/-a’r, -ur/-u’r,-ip/-up, -yyp/-yu’p* variantlarda qullangan bo’lib, bo’lardan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabo’l qiluvchi fe`l negizining harakteriga, uning qanday tovush bilan tugagan bo’lishiga bogliq.

a’ndosh bilan tugagan bir buginli fe`llarning bir gruppasiga *-ar/-a’r,* boshqalariga *-ur/-u’r* variantlari *(qachqar,ketqa’r, barqur, bilqu’r),* undosh bilan tugagan ikki va undan ortiq buginli fe`llarga *–yp/-u’p* variantlari qo’shiladi *(qaytarqur,eshitqu’r, urushqur, keltu’rqu’r,qaytarilqur, ko’rsa’tilqu’r* kabi). Ba`zi manbalarda undosh bilan tugagan ayrim fe`llarga *–ip/-up* formasida qo’shilishi ham uchraydi.

a’nli bilan tugagan fe`llarga *-r* yoki *-yur/-yu’r* variantlari qo’shiladi *(bashlaqr* yoki *bashla qyur, ishlaqr* yoki *ishlaqyu’r).*

YOzma yodgorliklardan ma`lum bo’lishicha, turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlarida unli bilan tugagan fe`llarga *-yur/-yu’r* variantlari qo’shilishi harakterli bo’lgan. Masalan, o’rxun-enisey va qadimgi uygur tili yodgorliklarida bunday fe`llarga asosan *–yup/-yu’p* variantlari qo’shilgan, XI- XII asrlarga oid qB, XX va boshqa manbalarda ham ko’pincha shu variantlari qo’shilgan. a’nli bilan tugagan fe`llarga *-r* yoki *-yur/-yu’r* qo’shilishi haqida Maxmud

Qoshg'ariy ham ma`lumot bergan. a'ning kursatishicha, bunday fe`llarga *-r* urnida *–yup/-yu'p* qo'shilishi XI asrda argular tili uchun xos bo'lgan.

-r affiksli sifatdoshning bo'lishsiz formasi -maz/-ma'z//-mas/-ma's affiksi yordamida xosil bo'ladi. Bu affiksning jarangli *-maz/-ma'z* variantlari uguz gruppasidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, qipchoq va qarluq gruppasidagi turkiy tillarda asosan jarangsiz *-mas[-ma's* variantlari qullanadi. o'rxun-enisey va qadimgi uygur tili yodgorliklarida ham faqat jarangli *maz/-ma'z* variantlari qullangan bo'lib, qBda *-maz[-ma'z* va *-mas/-ma's* variantlari parallel iste`molda bo'lgan.

-r affiksli sifatdoshning qullanishi, mano va funk-tsiyalari:

a) aniqlanmish vazifasida kelgan suz *-r* affiksli sifatdosh ifodalagan ish-harakatning sub`ekti bo'ladi: *Bu a q a r arig kim, sen'a' berdim,... (TF). Ko'ra' bi l m a ' z k i s h i bagrin tilin'iz (XSh). Ko'n'ul berm a ' k o ' n ' u l b e r m a ' s k i s h i g a ' (SS)*;

b) *-r* affiksli sifatdosh anglatgan ish-harakatning sub`ekti aniqlanmishdagi egalik affiksi orqali ifodalanadi: *Tugrur a g p i g i kirdi ersa', Maryam qax tutdi (TF). Ko'ni so'zl a ' y u ' r ko'n'lu'n bar ersa', aygil (qR).*

g'. *-r* affiksli sifatdosh ot urnida qullanganda otga xos grammatik belgilarga ega bo'ladi va shunga muvofiq har xil sintaktik funktsiyalarni bajaradi:

a) egalik affikslari bilan qullanadi: *Lek mumkin durur dava qilurum//sa`y etib xajatin' rava qilurum (Navoiy SS). Jaxanda sendin o'zga' yoq ti l a ' rim (XSh)*;

b) kelishik affikslari bilan qullanadi:*Senin' ishqin'da sayrarga harazmiy... (MN). Biznin' kelu'rimizni eshitib, qachib bu aytilgan uch yurtga bardilar (Sh.tar.).*

q. *-r* affiksli sifatdosh kumakchilar bilan qullanadi: *Olturur uchun qabil yer erdi (BN). ¤lma'sdin burun achib ko'zu'mni..(Navoiy FSh).*

-gu/-gu' (-qu/-ku') affiksli sifatdosh. qullanishi, mano va funktsiyalari:

a. Atributiv pozitsiyada qullanib, aniqlovchini ifodalaydi, Bunda *-gu/-gu'* affiksli sifatdosh atributiv oborotni tashkil etadi va bunday oborotlarda sifatdosh formasidagi fe`ldak anglashilgan ish-harakatning sub`ekti ikki xil yul bilan ifodalanadi:

a) aniqlanmish vazifasida kelgan suz *-gu/-gu'* affiksli sifatdosh ifodalagan ish-harakatning sub`ekti bo'ladi: *Menim ilkimdin k e l m a ' g u ' ish bilgu'rdi (TF). Tuzub yettila'r av a v l a g u yerga' (XSh)*;

b)-gu/-gu' affiksli sifatdosh anglatgan ish-harakatning sub`ekti aniqlanmishdagi egalik affiksi orqali ifodalanadi: *S o ' z l a ' g u ' k u ' c h u ' m yoq (qR). Senin' y e g u ' ashin' seni Xizr yalavach tabaru bashlagay (TF).*

g'. *-gu/-gu'* affiksli sifatdosh ot urnida qullanganda otga xos grammatik belgilarga ega bo'ladi va shunga muvofiq har xil sintaktik funktsiyalarni bajaradi: *qayda bargusini bilma'ga'yla'r (TF). Na qilgusi bilma's boldi (NF).*

-guchi/-gu'chi (-quchi/-ku'chi) affiksli forma *-gu/-gu'* affiksli sifatdoshga shaxs otini yasovchi *-chi/-chi* affiksi qo'shilishi bilan xosil bo'ladi. Shuning uchun ham bu formada fe`llik xususiyati kuchsizlanib, ot turkumiga yaqin turadi: *K u c h qilguchi zalim erdi (TF). qquyashnin' esiz ko'zni Qaytarguchi qudrati bar (qR). Oshul tag qazguchi Farxadni ko'rsu'n (XSh);*

-dachi/-da'chi (-tachi/-ta'chi) affiksi bilan yasalgan sifatdosh ham qadimgi yodgorliklar tilida faol qo'llangan bo'lib, o'zbek tilida XV asrga qadar qo'llanib kelgan: *Men senin' to'ru'ttachin', yarattachin'-men (Taf.). Biz yerni ko'kni to'ru'ttachi tan'riga tabinur-miz (Taf.).*

-gli/-gli affiksli sifatdosh ham eski o'zbek tilining ilk davrlarida keng qo'llangan bo'lib, mano va funktsiyalari buyicha *-dachi/-dechi* affiksli sifatdoshlarga uxshaydi: *Kima'rsa' man'a raxm qilmagli yoq (qR). Tushinda' ko'rdi kim, k e l i g l i keldi (NF).*

-adurgan/-a'du'rga'n affiksli sifatdosh. Bunday sifatdoshlar XV asrdan keyin qo'llangan: *Meni shayda qiladurgan bu k£n'u'ldu'r, bu k£n'u'l, xar-u rasva qiladurgan bu k£n'u'ldu'r, bu k£n'u'l* (Lutfiy). *Kabo'ldin ku'ch kela'du'rga'n jixatidin sultanga qoshula almaydurlar* (Boburnoma).

Ravishdosh formalari. Eski o'zbek tilida quyidagi affikslar bilan ravishdosh xosil qilingan:

-b(-ib/-ib,-ub/-u'b) affiksli ravishdosh. qullanishi, mano va funktsiyalari quyidagicha:

a. Shaxsli fe`ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish holatini kursatib, ravish xolini ifodalaydi. Bunda ravishdosh ifodalagan ish-harakat bilan shaxsli fe`l ifodalagan ish-harakat urtasidagi vaqt munosabati quyidagicha ikki xil bo'ladi:

a) ravishdosh ifodalagan ish-harakat shaxsli fe`l ifodala-gan ish-harakatdan oldin bajariladi. Bunday xollarda ravish-dosh asosan harakat manosini ifodalovchi fe`llardan iborat bo'ladi: *Buyurdilar kim, xujrasin buzub, tufragin xanaqaxdin tashqaru tashlasunlar (Navoiy MN). Buxaradin qavun keltu'ru'b, bir majlisda kestu'rdu'm (BN).*

b) ravishdosh ifodalagan ish-harakat shaxsli fe`l ifodala-gan ish-harakat bilan bir vaqtda bajariladi. Bunda har ikkala ish-harakat ham odatda takrorlanuvchi, davomli bo'ladi: *Chiqtilar qorganiga chapqillashib (ShN). qayda ko'rsa'm na`l naqshini o'pa'r-men yuz su'ru'b (Furqat).*

g'. Shaxsli fe`ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish vaqtini kursatib, payt xolini ifodalaydi yoki payt ergash gap-ning kesimi vazifasida keladi: *Yaxuda bir so'zni eshitib uru qobdi (qR). Axsham n a m a z i qilib evinga' kirdi (NF).*

q. Shaxsli fe`ldan anglashilgan ish-harakatning yuzaga keli-shidagi sababni kursatib, sabab xolini ifodalaydi yoki sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Andin qopqyb bashim aqardi (qR). Agar aysam bashimdin kechmishin men//ta n i r k a b barmagin tishla'ga'y-sen (XSh).*

n'. *-b* affiksli ravishdosh ifodalagan ish-harakat keyingi fe`ldan anglashilgan ish-harakatning aksini kursatadi, ya`ni ravishdosh ifodalagan ish-harakat bilan keyingi fe`ldan ang-lashilgan ish-harakat bajarilishi nuqtai nazardan biri ikkinchisiga zid bo'ladi. Shuning uchun bunday xollarda keyingi fe`l ko'pincha bo'lishsiz formada qullanadi: *Siz kelib, ani keltu'rma'sa'n'iz,sizga' daqi bugday berma'z-men (qR). Bu bugday k o ' r g a ' z i b , arpa satar ul (XSh).*

o'. Ravishdoshning *-b* affiksli formasi boglovchilik vazifa-sini ham bajaradi, ya`ni gapda uyushib kelgan fe`llarning ol-dingisi (yoki oldingilari) shu ravishdosh formasida kelib, uyushiq bo'laklar urtasidagi boglanishni kursatadi: *Bu yalganchilar meni t u t u b , agzimga qan surtub, sen'a' kelturdila'r (qR). Ani taxt uza' k e c h i r i b , bashina taj qoyub, mamlakatni an'a taslim qilin'iz (SS).*

*-a/-a'(-y***)** affiksi bilan yasalgan ravishdosh quyidagi xususiyatlarga ega:

a. Yakka xolda qo'llanadi. Bunda shaxsli fe`l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini bildiradi: *Bir kun Ismail avqa barmish erdi, Ibraximni ko'ra' keldi (qR). Yu'zu'n'din emdi an'a ashna tila'y keldim (Lutfiy).*

g'. qo'shma fe`lning komponenti bo'lib keladi: *Yol bashinda tura qaldi Mirza (ShN). Ittifaq qila almay, parishan barib...(BN).*

q. Ko'pincha takror qo'llanadi. Bunda ham shaxsli fe`l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holati ko'rsatiladi: *Firaq otina yana-yana keldim (Lutfiy). Tamshiy-tamshiy ani qilay n£sh (Navoiy ML)*

*-u/-u'(*unlidan keyin *–yu/-yu')* affiksi bilan yasalgan ravishdosh qadimgi yodgorliklarda keng qo'llangan bo'lib, eski o'zbek tilida XV asrga qadar ancha aktiv iste`molda bo'lgan, manosi, funktsiyasi bo'yicha *–a/-a'(-y)* affiksli ravishdoshga yaqin turadi.

Misollar: *Ko'z yashi yiglayu, tusha'yin der ayaqina (Sakkokiy). An'a qarshu turu bilma'di (qR). qarindashlari ani avga alu bardilar (qR). Kishila'r Musa yalavachqa ka'lu' bashladilar (TF).*

Ravishdosh yasovchi *–ban/-ba'n* (undoshdan keyin: *-iban/-iba'n//-uban/-uba'n*) affiksi *–b* (*-ib/-ib//-ub/-u'b*) affiksiga *–an/-a'n* qo'shilishi bilan xosil bo'lgan.Eski o'zbek tilida she`riy asarlarda ishlatilgan bo'lib, funktsiyasi ham chegaralangan. Bu ravishdosh shakli shaxsli fe`l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini, sababini ko'rsatadi.Misollar: *Chiqti ul min'cha kishi atlaniban// ish qilurga barisi qatlaniban (ShN). quchuban yigladim atam ayagin (Furqat). a'l anda qoldisa aziz qadashim//ham birga' keliba'n bolub yoldashim (XSh).*

-gali/-ga'li//-qali/-ka'li affiksi bilan yasalgan ravishdosh ham turkiy tillarda qadimdan keng qo'llanib kelgan bo'lib, eski o'zbek tilida ham aktiv iste`molda bo'lgan. hozirgi o'zbek tilida bu affiks *–gani(-qani/-kani)* ko'rinishida ishlatiladi.

Bu ravishdosh shaxsli fe`l ifodalagan ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni bildiradi. Misollar: *a'l xanaqaxga oynagali kirdila'r (Nav. MN). Malik anlarni o'ldu'rga'li qasd qildi (Taf.). Yusufni ko'rga'li zindanga kelu'r erdila'r (qR).*

-gach/-ga'ch/-qach/-ka'ch bilan yasalgan ravishdosh qadimgi yodnomalarda uchramaydi. Eski o'zbek tilida, asosan, XVasrlardan boshlab kuzatiladi.

Bu ravishdosh payt manosini bildiradi, ya`ni bu ravishdosh ifodalagan ish-harakat tugashi bilan shaxsli fe`l ifodalagan ish-harakat boshlanadi. Misollar: *Yana sham olgach, oldilar bari mast (Nav. SS). Achilgach kelib erta'si xujrasi//qilur jan-u janjal har erta'si (Muq.).*

-guncha/-gu'ncha'//-quncha/-ku'ncha' affiksi bilan yasalgan ravishdosh eski o'zbek tilida ancha keng iste`molda bo'lib, qadimgi yodgorliklarda kam qo'llangan.

Bu ravishdosh ham payt manosini bildiradi, ya`ni ravishdosh ifodalagan ish-harakat boshlangunga qadar shaxsli fe`l ifodalagan ish-harakat yuzaga chiqqan bo'ladi yoki davom etgan bo'ladi. Misollar: *Xan yetku'ncha' ani quladilar (ShN). Lutfiy miskindin o'lgu'ncha' dua bolsun sen'a' (Lutf.).*

Eski o'zbek tilida mayl va zamon formalari

O'zbek tilida, shu jumladan, turkiy tillardagi mayl va zamon formalari, mayl va zamon formalari munosabati munozarali masalalardan xisoblanadi. Turkiy tillardagi mayl va zamon formalari uchun maxsus affikslarning yo'qligi bunday munozaraga sabab bo'lmoqda.

Ma`lumki, mayl ish-harakatning voqe`likka munosabatini ifodalab, fe`ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish xususiyatini, imkoniyatini, ya`ni, real voqelikka, sharoitga boglanganligini bildiradi. Masalan, *bordi* fe`li ish-harakatning real bajarilganligini, *ishla* fe`li ish-harakatning bajarilish haqidagi buyruqni ifodalaydi.

Grammatik zamon esa ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabatini ifodalaydi. Demak, mayl kategoriyasi zamon kategoriyasiga nisbatan kengdir. Lekin hamma mayl formalarida ham grammatik zamon manosi bir xilda mavjud bo'la bermaydi. Masalan, aniqlik maylida har uchala zamon, buyruq-istak va shart maylida esa faqat kelasi zamon formalari mavjud bo'ladi.

o'zbek tilidagi mayl va zamon formalari haqida tuslanish tushunchasisiz fikr yuritib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan tuslanish tarixi va uning xususiyatiga to'xtalamiz.

Eski o'zbek tilida mayl formalari quyidagi uch turkumga bo'linadi: *buyruq-istak, shart-istak, aniqlik.*

Turkiy tillarda fe`l tuslanishi tarixan sifatdosh ( keyinchalik ravishdosh) formalari asosida, ya`ni mayl va zamon formalari sifatdosh formalari asosida asosida shakllangan (buyruq-istak mayli bundan mustasno). Keyinchalik bunday formalar tarkibidagi sifatdosh affikslarining ayrimlari sezilmas darajaga kelib qolgan. Masalan, *-duq/-du'k//-tuq/-tu'k* sifatdosh affikslari *–di/-di//-ti/-ti* affiksiga aylangan, ayrimlari esa hozirgi o'zbek tilida juda kammaxsul affiksga aylangan.

Eski o'zbek tilida tuslovchi affikslarning uch tipi qo'llanishda bo'lgan. Bo'lar quyidagilar:

I tip tuslovchilar yoki to'la tuslovchilar:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	-men	-biz, -miz
II shaxs	-sen	-siz
III shaxs	-	-

II tip tuslovchilar yoki qisqargan tuslovchilar:

I shaxs	-m	-q/-k
II shaxs	-n'	-n'iz/-n'iz/-n'uz/-n'u'z/
III shaxs	(-si/-si)	- -

III tip tuslovchilar fe`lning buyruq-istak maylida qo'llanadi.

To'la tuslovchilar sifatdosh va ravishdosh formalariga hamda *–gay/-ga'y//-qay/-ka'y,-maqda/-ma'kda'* affiksli formalariga qo'shiladi. qisqargan tuslovchilar *–di/-di//-ti/-ti* affiksli affiksli, shart formadagi fe`llarga va *–gu/-gu'//-qu/-ku'* affiksli formalarga qo'shiladi.

Shuni aytish lozimki, to'la tuslovchilar qadimgi turkiy yodgorliklarda *–di/-di//-ti/-ti* affiksli formadan keyin ham qo'llangan. Masalan, *basdimiz, buzdimiz (KT).* Bu holat eski o'zbek tilining dastlabki yodgorliklarida ham qo'llangan: *Eshittimiz taqi bildimiz tedila'r (qR).*

Shaxs-son affikslari tarixan kishilik olmoshlarining rivojlanishidan paydo bo'lgan. Buni M.Qoshg'ariyning ma`lumotidan ham bilsa bo'ladi. XI asrda o'guzlar, qipchoqlarning ayrimlari o'tgan zamon manosini ifodalash uchun *–duq/-du'k/-tuq/-tu'k* affiksini ishlatib, ular oldidan kishilik olmoshlarini qo'llash ularning qaysi shaxsda ekanligini bildirgan: *Men ya qurduq (men yoy qurdum), biz ya qurduq, ol keldu'k (u keldi), olar evga' kirdu'k (ular uyga kirdilar).*

Keyinchalik kishilik olmoshlari fe`ldan keyin ham keltiriladigan bo'lgan: *men barduq men (men bordim), sen barduq sen (sen bording)* kabi. Bunda shaxs-son manosini ifodalash uchun kishilik olmoshlarini ikki marta keltirishga zarurat bo'lmay qolgan. Shuning uchun fe`l oldidan kelgan kishilik olmoshlari ko'pincha tushirib qoldiriladigan bo'lib, keyingisi saqlangan va shaxs-son ko'rsatkichi sifatida tasavvur qilingan.

Buyruq-istak mayli formalari. Buyruq-istak mayli formalarida ham buyruq, ham istak manolari mavjud, ya`ni, I shaxs formalarida istak, II shaxs formalarida buyruq, III shaxs formalarida esa ham istak, ham buyruq manolari mavjud.

Eski o'zbek tilida buyruq-istak mayli ko'p formali bo'lib, ular quyidagicha xosil bo'ladi:

I shaxs birlik formalari:

-(a)yin/-a')yin. Bu forma barcha davrlarda keng qo'llangan: *Ku'chu'm yetmishcha' ko'p xidmat qilayin (MN). Kimga' izxar a'yla'yin (Munis).*

-(a)y/-(a')y. XIV asrdan keyingi yodgorliklarda qo'llanadi: *Gu'l keldi yu'zu'n' davridakim, xusn satay deb (Lutfiy). Men qashin' mexrabina a'lta'y duadin iydliq (Atoiy).*

-gayin/-ga'yin//-gayim/-ga'yim. XV asrdan oldingi yodgorliklarda uchraydi: *Kimga' dega'yim nechu'k qilayim, bilma'n, men buyla yiraqda, ul yaqinraq jandin (Sayfi Saroiy). Karam qilib, qulaq tutsan', javab aygayim (Sayfi Saroiy).*

-(a)yim/(a')yim. XV asrdan oldingi davrlarda qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda esa ayrim yodgorliklarda ba`zan uchrab qoladi: *Men qarindashlarim birla' ken'a'sha'yim (qR). Senin' u'chu'n shaharda bir yaxshi imarat qilayim (Sayfi Saroiy).*

Yuqoridagilardan tashqari, «qissasi Rabguziy», «Tafsir», «Xisrav va Shirin» asarlarida *–gam/-ga'm* affiksi ham I shaxs buyruq-istak mayli formasini xosil qilgan: *Fazl qilgam va an'a artuq berga'm (Tafsir). Birini qurban qilgam (qR).*

I shaxs ko'plik formalari. Buyruq-istak maylining I shaxs ko'pligi quyidagi affikslar bilan xosil qilingan:

-galim/ga'lim,-ggalin'/-ga'lin',-(y)alim/-(y)a'lim. Bu affikslar XV asrdan oldingi davr yodnomalarida uchraydi: *Ey rabb, bizga' farman bergil, ko'kka' aggalim (Tafsir).Siz on qoy keltu'ru'n', bishu'ru'n', etini yega'lin' (qR). Xalimiz ezgu' bolmaz, neta'k qilalim (qR).*

Bu affiks ba`zan lab unlisi bilan *–alum/-a'lu'm* formasida ham keladi: *Bu er ulug so'z so'zla'yu' turur, keta'lu'm tedila'r (qR).*

-gali/-ga'li. XVI-XVII asr yodnomalarida uchraydi: *Xech yamanliq an'a yavutmagali// seni telmurtub ani tutmagali (ShN). Biz seni tutub berma'ga'li tedila'r (Sh.tar.).*

-(a)lin'/(a')lin'. XVIII asrgacha bo'lgan yodnomalarda uchraydi: *Asbab qurun'lar,Eran shaxrina baralin' (Tafsir). Ne bolsa bolsun, ush bashdin kecha'lin'//Bu surat razidin parda achalin' (XSh).*

-(a)li/(a')li affiksli forma XV-XVII asrlar uchun harakterli bo'lib, bu davrda buyruq-istak mayli I shaxs ko'plik manosini ifodalashning asosiy formasi sifatida yodgorliklarda keng qo'llangan: *Emdi so'znin' asliga shuru` qilali (Navoiy Mq).Andijanga cheka'li bizla'r lashkar//tu'za'li ul sari axan'i safar (ShN).*

*-(a)liq/(a')lik.*XIV asrdan boshlab qo'llanadi: *Xasmliq qilsa, qilaliq fani (ShN). ¤zimizni axvalimizni alayiq (Sh.turk).*

-(a)yliq/(a')ylik. XIX asrdan boshlab keng qo'llana boshlagan: *Bera'ylik ikkimiz ham an'a la'shka'r/ bolub ja'n' a'yla'su'n sardari a'ska'r (Furqat). Ey yaxshilar, kela'ylik, bir jayga yigilishayliq, oynayliq, ku'la'ylik, aman bolayliq (Muqimiy).*

*II shaxs birlik formalari.*Buyruq-istak maylining II shaxs birlik manosi eski o'zbek tilida asosan *–gil/-gil//-qil/-kil* affiksi bilan yasalgan forma orqali ifodalangan: *Eshitkil emdi ham bir xush xikayat (MN). Barib ul xanni salamat tutqil (MN).*

Buyruq-istak maylining II shaxs birlik formasi eski o'zbek tilida *–gin/-gin//-qin/-kin* affiksi bilan ham yasalgan. Bu affiks *–gil/-gil//-qil/-kil* affiksining fonetik varianti bo'lib, nisbatan keyingi davrlarda paydo bo'lgan: *Kelgin ke, firaqin' otida qalmadi xalim (Lutfiy).Men dedim kim, rast aytqin (BN). Baqqin, ekin pisha'r-mu aftab ko'rma'y (Muqimiy).*

Ma`lumki, hozirgi o'zbek tili va boshqa turkiy tillarda buyruq-istak maylining II shaxs birligi ko'pincha affikssiz qo'llanadi, ya`ni formal jixatdan fe`l negiziga to'gri keladi. Bu holat eski o'zbek tilida ham keng kuzatiladi: *Taqi yuz min' altun keltu'r (qR).qaraqchi ko'zla'rin'din bir qiya baq (Atoiy). Adl qulagi-la eshit xalimi (Muqimiy).*

She`riy asarlarda buyruq-istak mayli II shaxs birligi affikssiz qo'llanganda, ba`zan *–u/-u'* unlisi orttiriladi. Bu xol Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaro she`rlarida uchraydi: *Ey saba, avvara ko'n'lu'm ista'yu' har yan baru// Vadi-yu tag-u biyabanlarni bir-bir axtaru. Axtarurda tapsan' ul ko'n'lu'mki, majnun shivadur// har nechu'k bolsa a'da'm saxrasi sari bashqaru.*

Misollardagi *baru, axtaru,bashqaru* fe`llari *borgin, axtargin, boshqargin* manosini ifodalaydi.

Buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik formalari.

Eski o'zbek tilida buyruq-istak maylining II shaxs ko'pligi uchun quyidagi formalar qo'llangan:

-n'(undoshdan keyin: *-in'/-in'//-un'/-u'n'*). Eski o'zbek tilining barcha davrlarida keng qo'llangan: *Ey pari ruxsarlar, bizga' nigax a'yla'b otin'//bir nazar birla' gadani padshax a'yla'b otin' (Lutfiy).¤zga' qilman' bu dega'n so'zu'mni (ShN).*

-n'iz/-n'iz(undoshdan keyin: *-in'iz/-in'iz//-un'iz/-un'iz//-un'uz/-u'n'u'z*).Bu forma eski o'zbek tilida nisbatan kam qo'llangan: *Axbab, yigitlikni ganimat tutun'uz//o'zni qariliq mexnatidin qorqutun'uz (Navoiy Mq). Bu kishiga' ul chaqli nima'rsa' berin'iz (Sh.tar.)*

-n'lar/-nla'r(undoshdan keyin: *-in'lar/--in'la'r//-un'lar/-u'n'la'r*) affiksi bilan yasalgan forma eski o'zbek tilida kam qo'llangan: *Anda barib, otav suqub kelin'la'r (Sh.tar.). Xizmatimi yaxshi qqilin'lar bilib (Muqimiy).*

-n'izlar/-n'izla'r (undoshdan keyin: *-in'izlar/-in'izla'r*) affiksi bilan yasalgan forma ham eski o'zbek tilida kam qo'llangan: *Atayi xaqin anda ista'n'izla'r (Atoiy). Faryad qilib aytib turur: meni o'tka'zin'izla'r teb (Sh.tar.).*

III shaxs formalari. Buyruq-istak maylining III shaxs birlik formasi eski o'zbek tilida *–sun/-su'n* affiksi bilan xosil qilingan (*barsun, kelsu'n*), ko'plik formasi esa birlik formasiga *–lar/-la'r* affiksini qo'shish bilan xosil bo'ladi (*barsunlar, kelsu'nla'r*). Bu affiksning *–sin/-sin* formasi o'tmishda o'guz va qipchoq gruppasidagi turkiy tillar uchun harakterli bo'lib, o'zbek tilida asoan XIX asrdan boshlab uchraydi.

Alisher Navoiy asarlarida buyruq-istak maylining III shaxs birlik manosi fe`l negiziga *–dik* qo'shilishi bilan ham ifodalangan.Bu affiks faqat yumshoq variantda bo'lib, singarmonizm qonuniga bo'ysunmaydi: *Chekibtu'r sa`y etib bisyar-bisyar/ yu'dik bashtin ayaq zinxar-zinxar. Yugandin son' suyub ayvandin aldik/ haririn suvga yaxud otga saldik* (Farxod va Shirin).

Keltirilgan misollardagi *yudik, aldik, saldik* fe`llari *yuvsin, olsin, solsin* manosini ifodalaydi.

Shart mayli. Shart mayli formasining yasalishida eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q.

Shart mayli affiksi eski o'zbek tilida *–sa/-sa'* ko'rinishida qo'llangan: *barsa,kelsa'* kabi. Bu affiks dastlab *–sar/-sa'r* formasida qo'llangan: *barsar, kelsa'r* kabi.

Shart mayli formasiga shaxs-son qo'shimchalarining qo'shilishi quyidagicha bo'lgan:

a. Shart mayli affiksi *–sar/-sa'r* formasida qo'llanganda, shaxs-son affikslarining faqat to'la variantlari qo'shilgan: *barsar-men,kelsa'r-sen,barsar-biz* kabi.

g'. *–sa/sa'* formasida qo'llanganda, shaxs-son affikslarining qisqargan variantlari qo'shilgan: *barsam, kelsa'm, barsalar* kabi.

XI-XIV asrlarda esa to'la variantlari ham qo'shilgan: *barsa-men, kelsa'-sen* kabi.

Shart fe`lining analitik formalari:

-sa/-sa' erdi: Tapsam erdikim,nedur andin murad (Navoiy LT). Kashki Yusufni ko'rma'sa' erdim (qR).

-di/-di//-ti/-ti ersa': qoydum ersa' bu mashaqqat janima (Navoiy LT). Idris shagirdi birla' mun'a tapindi ersa', biz ham tapinur-biz (qR).

-mish/-mish ersa'. Kel, menin' bagrimni ko'r, yuz para har bir dagida// ko'rmish ersa'n' bagara gar lalai sadbarg kam (Munis).

Eski o'zbek tilida mayl va zamon formalari

Aniqlik mayli. o'tgan zamon fe`llari.
hozirgi va kelasi zamon fe`llari.
Fe`l nisbatlari.

Aniqlik maylida har uchala grammatik zamon mavjud: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon. Aniqlik maylidagi har bir zamon bir necha formani o'z ichiga oladi va bu formalar shu zamon chegarasida turli mano ottenkalarini ifodalashga xizmat qiladi.

*o'tgan zamon fe`llari.* o'tgan zamon fe`li tuzilishi jixatidan dastavval quyidagi ikki gruppaga bo'linadi: a) o'tgan zamon fe`lining sodda (sintetik) formalari; g') o'tgan zamon fe`lining analitik formalari. Shuni aytish lozimki, o'tgan zamon fe`llari *–di/-di/-ti/-ti* affiksli fe`l formalari va fe`lning sifatdosh, ravishdosh shakllariga tuslovchi affikslarning qo'shilishidan xosil bo'ladi.

o'tgan zamon fe`li sodda (sintetik) formalari eski o'zbek tilida quyidagichaxosil qilinadi:

-di/-di//-ti/-ti affikli forma. Bu forma eski o'zbek tilining barcha davrlarida keng qo'llangan va u ushbu affiksga qisqargan tuslovchilarni qo'shish bilan xosil qilinadi: *Elchi bu so'zla'rnin' barchasin aytdi (Sh.tar.). Vidalashib murajiat marasimini ada qilduq (Furqat).* Tuslanish paradigmasi: *bardim, bardin',bardi// barduq, bardin'iz, bardi(lar).*

-mish/-mish affiksli forma ham turkiy tillarda qadimdan aktiv qo'llangan bo'lib, eski o'zbek tilida ham ancha keng iste`molda bo'lgan: *Aruqni ul tash u'sku'nda' yolda unutmish-men (qR). Furqatin'din bolmisham zar-u zaif (Lutfiy).*

-duq/-du'k affiksli forma. o'tgan zamon sifatdoshining *–duq/-du'k* affiksli formasi qadimgi yodgorliklar tilida keng iste`molda bo'lib, o'tgan zamon fe`li funktsiyasida ham qo'llangan. Bu sifatdosh o'tgan zamon fe`li funktsiyasida XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklardan «Tafsir»da ham qo'llangan bo'lib, unga ko'pincha *turur* holat fe`li qo'shilib kelgan: *Munda aytur qildim teb, valekin qilmaduq turur. Xech ko'z andag ko'rma'du'k tururlar,xech ko'n'u'l anin'-dek sanmaduq bolur.*

-gan/-ga'n//-qan/-ka'n affiksli o'tgan zamon sifatdoshining o'tgan zamon funktsiyasida qo'llanishi asosan XIII-XIV asrlardan boshlab kuzatiladi: *Taqi xaqiqatda men qorqutgan-men (Tafsir).Aql-u jan alamiga ishq otini salgan-sen (Lutfiy).*

*-b(-ib/-ib/-ub/-u'b) affiksli ravishdosh asosida yasalgan o'tgan zamon fe`li.* Bu fe`l shakli eski o'zbek tilida quyidagicha uch xil qolipda qo'llangan:

a) *barib turur-men.* Bu forma asosan XV asrgacha qo'llangan bo'lib, ba`zan XV asrga oid yodgorliklarda ham uchraydi: *Ibraxim teva'din inma'kka' ant ichib turur-men, tedi (qR). qachan ko'rsa'la'r ani kim, va`da qilib tururlar (Tafsir);*

b) *baribtur-men/baribdur-men.* a'ning qo'llanishi XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuzatiladi: *Bolubtur-men bu kun beganalar-dek (Atoiy). a'chgali par chiqaribtur ko'n'lu'm (Munis).*

v) *barib-men* tipidagi forma XV asrdan boshlab keng qo'llangan: *Bagayat ko'n'lu'mizni shad etib-sen (Navoiy FSh). Siz ham tuna kun urushub basturub-siz (BN).*

o'tgan zamon fe`lining analitik formalari.

Eski o'zbek tilida o'tgan zamon fe`li analitik formalarining quyidagi turlari qo'llangan:

-mish/-mish erdi. Bu forma eski o'zbek tilida XV asrga qadar keng qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda kam uchraydi: *Menin' har ne xalimni bilmish erdin' (Munis).Bir kun Ismail avqa barmish erdi, Ibraximni ko'ra' keldi (qR).*

-gan/-ga'n//-qan/-ka'n erdi. Bu forma XIV asrdan boshlab kuzatiladi: *qiynagan erdu'k anlarni, kufr keltu'rdila'r (Tafsir). Astrabadda aytqan ikki matlai tuga'nma'y qalgan erdi (Navoiy MN).*

-di/-di//-ti/-ti erdi. Bu forma qadimgi yodgorliklar tilida keng qo'llangan, eski o'zbek tilida XV asrga qadar keng iste`molda bo'lgan: *Yusufni otagda qoyduq erdi, biz kelgincha' Yusufni b£ri yemish (qR). Anlar qachtilar erdi, malik Daqyunus yarin bildi qachmishlarini (Tafsir).*

-duq/-duk erdi. Bu forma XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklardan «Tafsir»da ancha keng qo'llangan: *Men butlarni ko'rma'du'k erdim, turdum, Makkaga bardim, ko'rdu'm.*

-b turur erdi formasi XIII-XIV asrlarda keng qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda uchramaydi: *Sizge nazara qilib turur erdim (qR). Taqi anda kim, siz kizlenib turur erdin'iz (Tafsir).*

-a/-a'(y)turur erdi, -a/-a'(y)dur erdi. Bu formalar bir fonemaning ikki xil ko'rinishi bilan farqlanadi, xolos.

-a/-a'(y) turur erdi formasi XIII-XIV asr yodgorliklarida qo'llangan: *La'shka'rnin' son'ida kela' turur erdim (Sh.tar.).*

XIII-XIV asr yodgorliklarida bu formada *–a/-a'(y)* affiksi bilan birga, *-u/-u',-yu/-yu', -ya/-ya'* affiksi ham ishtirok etgan: *Bir oglan bila' kelu' turur erdim (Rab.). ...yilqilar ku'ta'ya' turur erdi (a'N).*

-a/-a'(y)dur erdi formasining qo'llanishi XV asrdan boshlab kuzatiladi: *a'mrumizda muncha faragat qilmaydur edu'k (BN). Bu fursatta kim, «Mubayyin»ni nazm qiladur edim (BN).*

*-r(-ar/-a'r//-ur/-u'r) erdi.*Bu forma *–r(-ar/-a'r//-ur/-u'r)* affiksli hozirgi-kelasi zamon fe`liga *erdi* to'liqsiz fe`li qo'shilishi bilan xosil bo'lgan: *Bashlarin quyi salib kelu'rla'r erdi (BN). Yana to'rt yuz qul birla' satig qilurlar erdi (qR).*

-gay/-ga'y//-qay/-ka'y erdi formasi ham eski o'zbek tilida keng qo'llangan: *Biznin' ku'chu'miz yetsa', bu teva'ni o'ltu'rga'y erduk (qR). Agar burunraq aytilmish bolsa erdi, faqir hargez o'z matlaimni aytmagay erdim (Navoiy, MN).*

*hozirgi zamon fe`li.* hozirgi zamon manosini ifodalovchi formalar va ularning yasalish usullari bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida ma`lum o'zgachaliklar mavjud. hozirgi o'zbek tilidagi *–yap, -yotir, -yotib*_affikslari eski o'zbek tilida qo'llanmagan. *–moqda* affiksi ayrim yodgorliklarda uchraydi.

Eski o'zbek tilida hozirgi zamon fe`li manosi asosan *–a/-a'(y)* affiksli ravishdosh asosida yasalgan formalar bilan ifodalangan.

Bara turur men qolipidagi forma XIII-XIV asrlarda keng qo'llangan bo'lib, ba`zan XV asrga oid yodgorliklarda ham uchraydi: *Sordi: bu ne u'n turur? Ayttilar: Omayya quli Bilalga azab qila turur (Tafsir). a'l vaqtdin ta bu ku'nga'gcha' barcha turkma'nla'r ul kitabnin' masalalariga amal qila tururlar (Sh.tar.).*

Baradur-men qolipidagi forma eski o'zbek tilida keng qo'llangan bo'lib, XIV asrlardan boshlab kuzatiladi*: Bu yurtta xabar keldi kim, Mansurnin' qizi Yusuf zaynin' mali bila' kela'du'r (BN).*

Bara-men formasi asosan XV asrdan boshlab kuzatiladi: *Mun'a ne uchun ruxsat bera'-siz? Bizni az ko'ru'b, qizilbashga qoshulmaqqa bara turur (Sh.turk).*

-maqda/-ma'kda' affiksli forma yozma yodgorliklarning ayrimlarida uchraydi: *Ayni inayatin'din xalimga qil nazara//o'lma'kda'-men gamin'din, dardimga a'yla' chara (Munis).*

*hozirgi-kelasi zamon fe`li.* hozirgi –kelasi zamon fe`li eski o'zbek tilida *–r(*undoshdan keyin: *-ar/-a'r//-ur/-u'r)* affiksi bilan xosil qilingan. Shaxs-son affikslarining to'la varianti qo'shilgan: *barur-men, kelu'r-sen* kabi. Lekin I shaxs formalarini xosil qilishda shaxs-son affikslarining qisqa variantlari ham qo'shilgan: *qashi uchun jan berura'm dostlar// tag qoparin'iz yasaganda mazar (Lutfiy).*

a'nli bilan tugagan fe`llardan hozirgi-kelasi zamon fe`li *–yur/-yu'r* affiksi orqali xosil qilingan: *Sen-mu bizga' bu so'zni so'zla'yu'r-sen? (qR).*

*Kelasi zamon fe`llari.* Eski o'zbek tilida kelasi zamon fe`lining quyidagi formalari qo'llangan:

-gu/-gu'//-qu/-ku'. Eski o'zbek tilida kelasi zamon fe`lini xosil qiluvchi asosiy forma xisoblangan: *Bu kitabni oquguchi va tin'laguchi, albatta, tu'rk bolgusi turur (Sh.tar.). Omar bildi kim, Rasulga barib, andin shikayat qilgusi turur (qR).*

-asi/-a'si. XIII-XIV asrlarga oid ayrim yodgorliklarda uchraydi: *Bu shaharga bir paygambar xijrat qilasi turur, ya`ni kela'si turur (Tafsir).*

-gay/-ga'y//-qay/-ka'y. Bu forma XI asr yodgorliklari va qadimgi uygur tili yodgorliklarida ham keng qo'llangan: *Muqarrar boldi kim, tan'lasi bolgan nokar-u sardar, mal-u jixati bila'n chiqib, qorganni tapshurgay (BN).*

*Fe`l nisbatlari*. Eski o'zbek tilida ham fe`l nisbatlarining quyidagi turlari mavjud: *aniqlik, o'zlik, majxul, birgalik, orttirma nisbatlar.*

Aniqlik nisbati uchun eski o'zbek tilida ham maxsus affikslar qo'shilmaydi.

o'zlik nisbat –n(undoshdan keyin*: -in/-in//-un/-u'n)* affiksi bilan xosil qilingan: *Kuydi, orta'ndi gam otinda ichim tashim menin' (Atoiy). Oguz xanga baqinmadi (Sh.tar.).*

o'zlik nisbat manosi ba`zan majxul nisbat affiksi *–l(-il/-il//-ul/-u'l)* bilan ham ifodalanadi: *Bu vasila bila' xayal qilildi kim,..(Navoiy, MN).*

Majxul nisbat –l(-il/-il//-ul/-u'l) affiksi bilan yasaladi: *qulluq arzadasht yekshanba kuni bitildi (Navoiy,MN).*

Birgalik nisbat –sh(undoshdan keyin*: -ish/-ish//-ush/-u'sh)* affiksi bilan yasaladi: *Ikki qashi bash bir qilib, bilma'n, ne so'z so'zla'shtila'r (Lutfiy). Bir-ikki qatla ul taraf bu tarafdin qilich alishtilar (BN).*

Orttirma nisbat quyidagi affikslar bilan yasalgan:

-t(-it/-it//-ut/-u't): Oxshatti qqamatin'ga sanavbarni bagban (Navoiy, MN).

-r(-ur/-u'r//-ar/-a'r): Kechu'rga'y ushbu daryadin meni (Atoiy). Shaydaliqqa bash chiqarur (Navoiy, Mq).

-tur/-tu'r//-dur/-du'r: Xajr oti bu kun ichimni ku'ydu'ru'r (Sakkokiy). Altun uyni tiktu'rdi (Sh.tar.).

-gur/-gu'r//-qur/-ku'r//-qar/-ka'r: Ne muncha yazguradur shayxi parsa bizni (Atoiy). Insafsiz aduvni yamanliqdin o'tka'ru'r (Navoiy, Mq).

-guz/-gu'z//-qaz/-ka'z: Allida bir necha'ni turguzdi (ShN).Meni otka'zin'izla'r, teb,..(Sh.tar.).

-iz/-iz: tamizdi, aqizdi (Sanglox).

-ca't: Kema'ni nechu'k yasarin ko'rsa'tti (Sh.tar.).

Savol va topshiriqlar:

1. O'tgan zamon fe`lining sodda formalari qanday xosil qilingan?
2. O'tgan zamon fe`lining analitik formalariga misollar keltiring.
3. Hozirgi zamon fe`llarining ifodalanishi jixatidan hozirgi o'zbek tili bilan eski o'zbek tili o'rtasida qanday tafovutlar bor?
4. Kelasi zamon fe`l formalariga misol keltiring.
5. Mayl deb nimaga aytiladi?
6. Zamon tushunchasiga izox bering.
7. Eski o'zbek tilidagi tuslovchilarning guruxlari va xususiyatlarini aytib bering.
8. Buyruq-istak maylida qaysi affikslar ishtiroketadi?
9. Shart mayli formalariga manbalardan misol keltiring.
10. Eski o'zbek tilida harakat nomi qanday qo'shimchalar bilan xosil qilingan?
11. Sifatdosh shakli xosil qiluvchi qo'shimchalarni sanang.
12. Ravishdoshning hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydigan qanday shakllari mavjud.

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.

2. O’rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O’zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O’zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To’ychiboyevB. O’zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza №10.Ravish

Reja:

1.Ravish haqida umumiy ma`lumot.
2.Ravish yasalishi.
3.Ravishning mano turlari.

Tayanch tushunchalar:

Ravish – *harakatning (holatning) belgisini ifodalovchi suz turkumi.*
Yasama ravishlar – *boshqa suz turkumlaridan turli vositalarda ravish yasalishidir.*
Ravishning mano turlari – *ravishning holat, payt, urin, daraja-miqdor, chegaralov, uxshatish manolarini ifodalashidir.*

Eski o’zbek tilida ham ravish kategoriyasi so’z o’zgartiruvchi affikslar qabo’l qilmasligi bilan harakterlanadi. Bu xol ravish turkumining boshqa mustaqil so’z turkumlaridan farqlovchi o’ziga xos belgisini tashkil etadi. Gapda ravishlar boshqa so’zlar bilan bitishuv yo’li bilan boglanadi.Ayrim ravishlarning tarkibidagi kelishik affikslari esa o’zining grammatik xususiyatini yo’qotib, so’zning tarkibiy qismiga aylanib qolgan.

Eski o’zbek tilida iste`molda bo’lgan ravishlarning va ravish manosida qo’llanuvchi so’zlarning ma`lum qismi boshqa sistemadagi tillarda o’zlashtirilgan. Bunday so’zlarning ko’pchiligi eron tillariga, ayrimlari arab tiliga mansub: **a***xista aytduqimizni ham eshitu’r (Tafcsir). Men hargiz almishim yoq (qR). yochra’di nagax raqibi (Lutfiy). Daima mastu bexabar ko’ru’nu’r (Atoiy).*
Eski o’zbek tilida iste`molda bo’lgan ravishlarning asosiy qismi yasama so’zlardan iborat bo’lib, ular morfologik va sintaktik usullar bilan xosil bo’lgan.

Asli o’zbekcha tub ravishlar juda kam sonni tashkil etadi. Bo’lardan quyidagilarni ko’rsatish mumkin: *Biznin’ atalarimiz kim, ashnu £ldilar, (Tafsir). Bat bol, bashin’ al, qach (Atoiy).* Eski o’zbek tilida tub so’z sifatida tasavvur qilingan ayrim ravishlar aslida yasama ravish bo’lgan. Masalan, *naru* (nari), *beru* (beri) ravishlari uzoqlikni anglatuvchi *na* va yaqinlikni anglatuvchi *be* so’zlariga qadimgi jo’nalish kelishigi affiksi *–ru* qo’shilishi bilan xosil bo’lgan.

Eski o’zbek tilida quyidagi affikslar bilan turli so’z turkumlaridan ravish yasalgan:

-cha/-cha’ affiksi bilan yasalgan ravish ish-harakatning holati, miqdori, darajasi kabi manolarni ifodalaydi yoki biror harakat belgisining boshqa harakat belgisiga o’xshashligini ko’rsatadi. Bu affiks turli so’zlarga qo’shilib ravish yasaydi:

1. Otga qo’shiladi: *Alar ham tu’rkcha’ ayturlar (Navoiy ML).*
2. Kishilik va ko’rsatish olmoshlariga qo’shiladi: *Dunyada bar-mu eka’n mencha’ yaman (ShN). Xech kimga’ sencha’ berma’di, ayyar, qash-u ko’z (Lutfiy).*

q. Sifatga qo’shiladi: *Padshaxzadalarnin’ ulugina ulugcha va kichigina’ kichikcha’ berdi (Sh.tar.).*

–gacha/-ga’cha’/-qacha/-ka’cha’ affiksi jo’nalish kelishigiga *–cha/-cha’* affiksi qo’shilishi bilan xosil bo’lgan qo’shma affiks bo’lib, ot, sifat, olmosh, ravish turkumidagi so’zlardan ravish

yasaydi: *Tu'nga'cha' urmaq edi ko'ksiga' tash (Navoiy,Mq). a'shbu xaftagacha yoq erdi xabar (ShN).*

-tek/-dek affiksi o'xshatish, qiyoslash kabi manolarni ifodalovchi ravish yasaydi: *Sakkakiy ko'z yashin yaz yamguri-tek yagdurur (Sakkokiy). K£rma'ga'n bir sen-dke axli rozgar (Navoiy).*

-la/-la' affiksi payt manosidagi otlarga, asosan, *tan', tun* so'zlariga qo'shilib payt ravishi yasaydi: *Tu'nla'-oq yetti oshul qorganga (ShN). Emdi tan'la bu so'z Abid xanga yeta'r (Sh.turk).*

-ana affiksi otga qo'shilib, o'xshatish, qiyoslash manosidagi ravish yasaydi. o'zbek tiliga bu forma eron tillaridan o'zlashtirilgan: *Seni men o'ltu'ru'r-men, teb aytti turkana (Sakkokiy). Xeyli mardana yigit edi (BN).*

-an affiksi eski o'zbek tilida kam iste`molda bo'lgan: *a'lugligi taxminan on qari bolgay (BN).*

Sintaktik usul bilan ravish yasalishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. qo'shma ravishlar quyidagi so'zlar ishtirokida xosil bo'ladi:

Bir so'ziga payt, makon, va shunga o'xshash manolarni bildiruvchi so'zlarni qo'shish bilan: *Bir laxza sensiz sabr yoq (Lutfiy). Meni bir yerda' muqim etku'sidu'r (ShN).*

har belgilash olmoshiga payt yoki makon bildiruvchi so'zlarni qo'shish bilan: *har kun salamga barur erdim (Tafsir). har yerda' barsan'iz qullugda bolur-siz (BN).*

a'l, bu, oshal kabi olmoshlarga payt yoki makon bildiruvchi so'zlarni qo'shish bilan: *Ko'n'lu'm ul yan tartadur (Lutfiy). Bu qish qar bisyar ulug tushub erdi (BN).*

Xech, qay olmoshlariga payt yoki makon bildiruvchi so'zlarni qo'shish bilan: *Xech zamanda xech kim eshitka'n va' ko'rga'n yoqtur (Sh.tar.).*

Eski o'zbek tilidagi ravishlarni ham mano jixatdan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

holat ravishlari: axista, ravan, asan, agax, tu'rkcha', ashiqana.

Payt ravishlari: tu'nla', hargiz, nagax, hamisha, damadam, dambadam, har dam, har laxza, avval, xala.

a'rin ravishlari: har sari, bu yer, bunda, anda.

Daraja-miqdor ravishlari: az, k£p, bu'rgu'tcha', mencha', ulugcha, gayat, bagayat.

Chegaralov ravishlari: xaftagacha, k£kka'cha', Gaznigacha, axshamgacha, xususan, bataxsis.

a'xshatish ravishlari: laladek, burungidek, inangudek, yegu'tek, paritek.

Juft ravishlar. Eski o'zbek tilidagi juft ravishlarning ko'pchilik qismi ot turkumidagi so'zlarning ravishga kuchishidan xosil bo'lgan: *Yana tun-kun bardilar (Tafsir). qazar erdi arigni kecha-kunduz (Navoiy,FSh).*

Savol va topshiriqlar:

1. Eron tillaridan o'zlashgan ravishlarga misol yozing.
2. Arab tilidan o'zlashgan ravishlarga misol yozing.
3. Ravish yasovchi qo'shimchalarni sanang.
4. Ravishning mano turlarini sanab bering va manbalardan misollar keltiring.

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To'ychiboyevB. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza №11*Yordamchi so’z turkumlari*

Reja:

1.Eski o’zbek tilida ko’makchilar.
2.Boglovchilar.
3.Yuklamalar.
4.Modal so’zlar.

Tayanch tushunchalar:

Ko’makchilar – *ot yoki otlashgan suzning fe`lga tobeligini ta`minlaydigan suz turkumi.*
Sof kumakchilar – *aynan kumakchilardir.*
Funktsional kumakchilar – *aslida boshqa suz turkumiga oid bo’lib, funktsional jixatdan kumakchilarga transpozitsiyalashgan suzlardir.*
Boglovchilar – *gap va gap bo’laklarini boglashda qatnashadigan yordamchi suz turkumidir.*
Yuklamalar – *atash vazifasi, lekin voqelikni (modal) ifoda qiladigan yordamchi suz turkumidir.*
Modal suzlar – *suzlovchining uz fikriga munosabatini hamda fikrni tasdiqlash, inkor etishni ifodalaydigan yordamchi suzlardir.*

Ko’makchilar. Eski o’zbek tilida qo’llanishda bo’lgan ko’makchilar xuddi hozirgi o’zbek tilidagidek, ikki guruxga bo’linadi: *a) sof ko’makchilar; b) funktsional ko’makchilar.*

Sof ko’makchilar. Eski o’zbek tilida quyidagi sof ko’makchilar iste`molda bo’lgan:

yochu’n. Bu ko’makchi bosh kelishikdagi so’zlar bilan qo’llangan. quyidagi manolarni ifodalaydi:

a) atalganlikni bildiradi: *Bu xikayat el u’chu’ndu’r bari// bu rivayat el u’chu’ndu’r bari (ShN);*

b) sababni bildiradi: *Xindustandin o’zga’ yerda’ bolmas u’chu’n muni taqrib bila’ zikr qildim (BN);*

v) maqsadni bildiradi: *Ilm taxsili u’chu’n shaxrga kelibtu’r (Navoiy,MN).*

Birla’ (birla’n // bila’ // bila’n). Bu ko’makchi dastlab *birla’* formasida qo’llangan bo’lib, qolgan formalari keyinchalik vujudga kelgan. quyidagi manolarni bildiradi:

a) birgalik manosini: *Besh yu’z er birla’ atlanur boldi (qR).*

b) vosita manosini: *Butlarina nayzanin’ uchi birla’n sanchdilar (Sh.tar.)*

v) holat, sabab manosini: *Yetmish yil boldi ne`mat birla’ umr kechu’rdu’m (qR)*

g) payt manosini: *Bir manzilga tunla’ birla’ yettila’r (Tafsir).*

Kibi/ka’bi. Bu ko’makchi o’xshatish, qiyoslash manolarini ifodalaydi: *qilay Majnun kibi ko’n’lu’mni xali (Navoiy FSh). ¤zga’ xanlar kibi majlis qurmas (ShN).*

Bikin. Bu ko’makchi XIV-XV asrlarga oid yodgorliklarda uchraydi. Yuqoridagi ko’makchi kabi o’xshatish, qiyoslash manolarini ifodalaydi: *To’ku’lga’y axiri andin qan yer u’zra’ suv bikin qanim (Lutfiy).*

Yan'lig (yan'liq). Bu ko'makchi ham o'xshatish, qiyoslash manolarin ifodalaydi: *Guncha yan'lig chak bolmagan giriban qalmadi (Sakkokiy).*

a'zra' (uza'). Asosan she`riy asarlarda qo'llangan. Ish-harakatning biror narsa-predmet ustida, yuzasida bo'lishini ko'rsatadi: *Sunbo'l gul uza' saya salibdur-mu yaxud// har yan achilibdur-mu yu'zu'n' uza' kulala? (Munis).*

Ichre ko'makchisi ish-harakatning biror narsa-predmet ichida sodir bo'lishini ko'rsatadi: *Chara budur ki, k£xisar ichra'// vatan etka'y qarangu gar ichra' (Navoiy SS).*

Sari ko'makchisining yozma manbalarda aks etishi XIII-XIV asrlardan boshlab kuzatiladi. Bu ko'makchi ish-harakatning yo'nalishini ko'rsatadi: *Anin'-dek urdi yu'z shaxzada sari//ki sarsar savsani azada sari (Navoiy FSh).*

Taba, tabaru. Bu ko'makchi XV asrgacha iste`molda bo'lgan, ish-harakatning yo'nalishini bildiradi: *Falastin taba barur boldilar ersa', yolda ajayibatlar ko'rdila'r (qR).*

Tegi ko'makchisi XV asrgacha bo'lgan yodgorliklarda uchraydi, ish-harakatning payt yoki o'ringa nisbatan chegarasini bildiradi: *qiyamatqa tegi aram qilgay (Xisrav va Shirin).*

Tegru' (degru') ko'makchisi ham ish-harakatning paytga yoki o'ringa nisbatan chegarasini bildiradi: *a'ch yilga tegru' taxsil qildim (Furqat).*

Sayi//sayin ko'makchisi ish-harakatning davomiyligini ko'rsatadi: *Seni ko'rga'n sayin allax der-men (Lutfiy).*

Funktsional ko'makchilar. Funktsional ko'makchilar ham xuddi hozirgi o'zbek tilidagidek, uch guruxga bo'linadi: a) ot-ko'makchilar; b) ravish-ko'makchilar; v) fe`l-ko'makchilar.

Eski o'zbek tilida quyidagi ot-ko'makchilar iste`molda bo'lgan:

Ald: Toshni anin' aldinda qoydilar (Sh.tar.).

Yan: Yana Samarqandnin' quyi yanida Bagi Shamal va Bagi Bexishttur (BN).

qat: Chiqiban begla'r anin' qatidin// yetdila'r qara ko'lga' ilgar (ShN).

qash: Chun bu so'z xan qashida aytildi (ShN).

On': Fatima taqi tekma'la'ri on'inda bira'r etma'k qoydi (Xisrav va Shirin).

Ich: Shax Malik el ichiga' keldi (Sh.tar.).

Orta: Baliq anda tirildi, suv ortasina kirdi (Tafsir).

Ara: Yaman katib manzili qalamdani-dek chax ara bolsun (Navoiy, Mq).

a'st: Andin son' Kashmir ustiga' yu'rdi (Sh.tar.).

Bash: Chax bashida qoydi bir kishini (Navoiy, SS).

Ast: Menim qudratim astinda qalgay-siz (Tafsir).

Tub: Bira'gu' ul tam tu'binda' kecha'rda' ul qavushdin tonina suv tamdi (qR).

Babida: Samarqanddin qachib kelga'n kishi babida so'zla'r bitilib erdi (Navoiy,MSh).

Shu bilan birga, eski o'zbek tilida *haqida, taraf, tegra, togri, art, ket, yu'z,barasida, xususida, vasfida, jixatidin, xizmat* kabi ot turkumiga oid suzlar funktsional kumakchi vazifasini bajargan. Ayniqsa, *xizmat* so'zining semantikasi o'ziga xos bo'lgan, ya`ni o'zbek tilidagi *old* kumakchisi ifodalagan manoni ifoda qilgan: *Bu baytni Abduraxman Jamiy xizmatida oqubdur (BN).*

Ravish-ko'makchilar asosan chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanib, payt manosini ifodalaydi. Eski o'zbek tilida quyidagi ravish-ko'makchilar iste`molda bo'lgan:

Burun: Ani ko'rga'ch, figani jandin burun chiqqay (Navoiy, MN).

Ilga'ri/ilga'ru': Bu kitabni aytqandin on yetti yil ilga'ri bizga' yagi bolub erdi (Sh.tar.).

Ashnu, on'. Ilga'ru', ilga'ri kumakchisiga sinonimdir: *adamni yaratmazda ashnu yer yu'zinga' xalifa yaratur-men (Rabg.). Fatima atan'ga bu ku'ndin £n' emga'k tegma'ga'y (Najx.F.).*

*Keyin: yo*ch-to'rt ku'ndin keyin zaxm bila'-oq bardi (BN).

Son': Zulayxa Yusufni zindanga salmishtan son' zindan qapugina barur erdi (qR).

Son'ra: Yana bir necha' qadam bargandin son'ra shayx muridga yana aytti (Navoiy, Mq).

Beri: Andin beri bu badiyani «Xadarvesh» derla'r (BN).

Nari/naru: a'l vaqtda tu'rkma'ndin nari tarafinda oturgan ella'r ko'p erdi (Sh.tar.).

Otru: Bu ma`nidin otru alayxissalamqa Mustafa at berildi (Najx. F.).

Tashqari: Shaxruxiyadin tashqari Xaydar beg salgan bagda xanga mulazamat qildim (BN).

Shuningdek, eski o'zbek tilida *bashqa, £zga', gayri* ravish kumakchilari, XIII-XIV asrdagi manbalarda *azin* kumakchisi ham qullangan.

Ayru: Sendin ayru ne kera'k bizga' (ShN).

*Fe`l-ko'makchilar.* Eski o'zbek tilida *–a/-a'* affiksli ravishdosh formasidagi fe`llar qo'llanish o'rniga qarab ko'makchi funktsiyasini ham bajargan. a'lar quyidagilar:

Ko'ra': Va anin' qiymati javhariga ko'ra' zaxir bolur (Navoiy,Mq).

Yarasha: Ma'ska'niga' yarasha tushti nur//ximmatiga yarasha tapti xuzur (ShN).

Baqa: a'l damanadin ko'chu'b, garbqa baqa yu'ru'b, suvsiz ko'lda' tushuldi (BN).

Boglovchilar. Eski o'zbek tilida ham boglovchilar vazifasiga ko'ra ikki guruxga bo'linadi: a)teng boglovchilar; b) ergashtiruvchi boglovchilar.

Teng boglovchilar mano va vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) biriktiruv boglovchilari; b) zidlov boglovchilari; v) ayiruv boglovchilari; g) inkor boglovchilari.

quyidagi biriktiruv boglovchilari iste`molda bo'lgan:

-u (-yu,-vu) boglovchisi fors tiliga mansub bo'lib, eski o'zbek tilida keng qo'llangan: *Jaxanda tapmagay hargiz kishi nam-u nishanim (Sakkokiy).Tinma'dila'r suv ichinda' tun-u kun (ShN).*

Va boglovchisi arab tiliga mansub bo'lib, eski o'zbek tilida keng qo'llangan: *Joji xan o'ldi va yurt ogli Sayi xanga qaldi (Sh.tar.) Fransuzcha va almancha xat va lisan bilu'rni o'zla'riga' lazim bilurla'r (Furqat).*

ham boglovchisi uyushgan bo'laklar yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar oldidan takrorlanib kelgan: *Mavlana Ali Shixab ham ravan, ham puxta aytur eka'ndu'r (Navoiy, MN).*

Taqi/dagi boglovchisi qadimgi yodgorliklar tili uchun harakterli bo'lib, eski o'zbek tilida ham keng qo'llangan: *Tagni eritur axim, asar qilgusi bir kun/ko'n'lu'm necha' kim bolsa temur tash dagi polad (Lutfiy).*

Ya'ma', ma XIII-XIV asrlargacha bo'lgan yodnomalarda uchraydi: *Bu qissa ya'ma' tuga'l sharx qilinmish turur (qR).*

Ayiruv boglovchilari. quyidagi ayiruv boglovchilari qo'llangan:

Ya. a'yushgan bo'laklarning yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ning birini ikkinchisidan ajratib ko'rsatish uchun qo'llangan: *Shakardur ul agiz ya pista, bilma'n (Lutfiy).*

Yaxud. qo'llanishi va manosi bo'yicha *ya* boglovchisiga o'xshaydi: *Sunbo'l gul uza' saya salibdur-mu yaxud//har yan achilibdur-mu yu'zu'n' u'zra' kulala (Munis*).

Gax. Bu boglovchi ko'proq takrorlanib qo'llanadi: *Gax sachin sila'r edi, gax yu'zin// gax qashin saylar edi, gax k£zin (ShN).*

*Zidlov boglovchilar.*a'lar quyidagicha bo'lgan:

Amma: Xob aytib edi, amma men razi bolmadim (BN).

Lekin: Atlanib yol sari mayil boldi// lekin ul shaxr cherikidin toldi (ShN).

Lek: Yardin o'zga' harna deb mani//eshitib, lek an'lamay ani (Navoiy, SS).

Valekin: Senin' ishqin'da Xarazmiy yoqaldi// valekin yer yu'zinda' ati qaldi (MN).

Valek: qazar-men uyla ki Farxad dard-u gam tagin// valek tirnagim oldi qazarda tesha' man'a (Munis).

Vale: Barcha tapilur bizga', vale yar tapilmas (Lutfiy).

Eski o'zbek tilida ham *ne* inkor yuklamasi qo'llangan: *Ne keyin yanib, ne ilga'ri yu'ru'b, so'zni bir yerga' qoyalmay kelu'rla'r (BN).*

Ergashtiruvchi boglovchilar. Eski o'zbek tilida quyidagi ergashtiruvchi boglovchilar qo'llangan:

Kim: a'l taglarda rasmdurkim, tashlarda abyat bitib qazurlar (BN). Xan xukm qildikim, xech kim mendin qalmasun teb (Sh.tar.).

Ki: Andaq xatun ne yerdin tapilurki, kelib anan'nin' ornin tutqay (Sh.tar.).

Agar: Agar kishi padshax yasagliqdur, ishi ilga'ri baruri inayatqa bagliqdur (Navoiy, Mq).

Agarchi: Faqir ani agarchi ko'rma'y-men, amma Mavlana Muhammad Badaxshaniydin eshitmish-men (Navoiy, MN).

Agarchand, garchand: qayu shaxridakim bolsa xunarmand// hama keldi, yiraq erdi garchand (Furqat).

harchand: harchand sa`y qildikim, Astrabadni inisiga' berma'kka' riza bolmadi (BN).

Chun, chu: a'mid ulkim, chun darvish kishi erdi, ba`zi mustajab bolmish bolgay (Navoiy, MN).

Chunkim, chunki: Vasli xajrin qissasin bir kun san'a sharx a'yla'ga'y// chunki vaqifdur menin' yaxshi-yamanimdin ko'n'u'l (Atoiy).

Ta: Yaxshilarini tutub £ltu'rsu'n, ta yamanlari xukmga boyun qoygay tedi (Sh.tar.).

Taki: Boldilar dushman anin' xaniga// taki kirga'yla'r anin' qaniga (ShN).

Teb/deb: a'l oglan agach ichinda' tugdi teb, atin qipchaq qoydilar (Sh.tar.).

Yuklamalar. Eski o'zbek tilida quyidagi yuklamalar qo'llanishda bo'lgan:

-mu: Shayx janabi muridga ayttikim, senda xech ma`lum bar-mu? (Navoiy, Mq).

-oq: Sahar-oq qal`a uza' mindila'r (ShN).

-la: Toyni tashlab keledur-la oglun'// gamni tashlab kela'du'r-la oglun' (ShN).

*-gina/-gina':*Bugina masalni yaxshigina baglagan uchun umid ulkim,..(Navoiy, MN).

Modal suzlar. Ma`lumki, modal suzlar suzlovchining aytilayotgan fikrga turli qo'shimcha munosabatini ifodalaydi. Eski o'zbek tilida quyidagi modal suzlar qullangan:

Magar: Magar el ani mayparast etka'y// razini an'lagay chu mast etka'y (Navoiy, SS).

Kashki: Yerga' kirsa'm kashki, chun yetma's ul ayga elik (Lutfiy).

Shayad: Shayad uyqu ko'zimga' mayl etka'y// andin asayishi man'a yetka'y (Navoiy, SS).

Balki (balkim): Derla'rkim, she`rga andaq mash`ufdurkim, ku'nda' on gazal, balki artuq aytur ermish (Navoiy, MN).

Mabada: Ki anda Avliya xaja mabada, otirgan bolsa, qilma ashkara (Furqat).

Basharti: Xech bir sormasmu-di, nakam davranlar £ta'r// qullari ichra' basharti e`tibarim bar erdi *(Muq.).*

Bavujudi: Bavujudi, bu jamal ista'r vafasindin k£n'u'l *(Atoiy).*

Shuningdek, mavjud, lozimlik, nomavjudlik va xokazolarni bildiruvchi *bar, yoq, lazim, kera'k, darkar, dema'k* va boshqa modal suzlar ham faol qullangan.

Savol va topshiriqlar:

1.Hozirgi o'zbek tili va eski o'zbek tilidagi ko'makchilarni qiyoslab chiqing, ulardagi fonetik o'zgarishlarni izoxlang.

2.Boglovchilarni sanab kursating, ularning qullanish xususiyatlariga e`tibor bering.

3.Yuklamalar va modal suzlarning mano va vazifalarini izoxlab bering.

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To'ychiboyevB. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza №12. Eski o’zbek tilining sintaktik qurilishi

Reja:

1.Tarixiy sintaksis haqida maalumot.
2.So’z birikmasi.
3.Turkiy, forsiy va arabiy izofa.

Tayanch tushunchalar

So’z birikmalari
Tobe birikmalar, teng birikmalar
Boshqaruv, moslashuv, bitishuv, izofa

Qadimgi turkiy til va so’nggi davrlar tilining sintaktik tuzilishi bilan hozirgi zamon tili sintaktik tuzilishini qiyoslar ekanmiz, o’zbek tili sintaksisida ham jiddiy o’zgarishlar bo’lganini ko’rish mumkin. Shunisi harakterliki, sintaksisdagi o’zgarishlar ko’pincha morfologiya va leksikada bo’lgan o’zgarishlar tufayli ro’y bergan. Masalan, vosita kelishigining iste`moldan chiqishi so’zlarning boshqaruv munosabatini o’zgartiradi va xol doirasini kengaytiradi. Sintaksis taraqqiyotidagi ikkinchi omil- boshqa tillarning tasiridir. Tarixda o’zbek tiliga ayniqsa fors-tojik tilining tasiri sezilarli bo’lgan. Bu tilning tasiri bilan yangi so’z birikmalari, ergash gaplar vujudga keldi.

Ma`lumki, so’z birikmalari ikkiga bo’linadi: tobe birikmalar, teng birikmalar. Teng birikmalarda so’zlar o’zaro teng munosabatga kirishsa, tobe birikmalarda so’zlar o’zaro tobe-xokim munosabati orqali boglanadi.

Tobe birikma tarkibidagi bosh va ergash so’zlar qanday vositalar bilan boglanishiga qarab, uch turga bo’linadi: boshqaruv, moslashuv, bitishuv.

Boshqaruv munosabatida ergash so’z bosh so’zning talabi bilan biror grammatik formada shakllanadi. Boshqaruvning ikki turi mavjud: kelishikli boshqaruv va ko’makchili boshqaruv. Kelishikli boshqaruvda bosh so’z va ergash so’z o’zaro tushum, jo’nalish, o’rin-payt va chiqish kelishigi yordamida boglanadi. Ko’makchili boshqaruvda bosh so’z bilan ergash so’z ko’makchilar yordamida munosabatga kirishadi: *Va’xm bila’ uyganib, kaxinla’rni tila’b, bu tu’shnin’ ta’`birini tila’di (Navoiy NM). Va’ bir az fursatdin son’ra ma’liki Rayan ham alamdin chiqti (Navoiy NM).*

Moslashuvli birikmada bosh so’z bilan ergash so’z shaxs-sonda o’zaro mos bo’ladi. a’lar o’zaro qaratqich kelishigi yordamida boglanadi: *...ul navaxinin’ cheriki bila’..(BN). Menin’ ganimim qorganda edi (BN).*

Bitishuv munosabatiga kirgan so’zlar faqat oxang yordami bilan boglanadi. Bunday munosabat sifat bilan ot, son bilan ot, olmosh bilan ot o’rtasida bo’ladi: *Bu tu’shu’kni teshib, ul suvni icha’du’rla’r (BN). Ottiz-qirq ba’rg shaxinin’ u’chida’ bir yerdin-oq irikra’k pa’nja’ uradur (BN).*

Izofa. Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvidir. Izofa arab va fors tillariga xos bo’lib, turkiy tillardagi moslashuvli birikmaning o’zidir. o’zbek tili leksikasining juda katta qismini arab va fors so’zlari tashkil etgani uchun bu tillardan izofiy birikmalar ham juda ko’plab o’zlashgan. Misollar: *Xaki pay, abi xayvan (Lutfiy), gunchayi xandan, bo’lbo’li bostan (Xorazmiy), shayxul islom, Va’ xazrat Shayxnin’ «Maxzanul asrar»iga javab aytibtur (Navoiy, MN).* Arab va fors tillaridagi aniqlovchi-aniqlanmishning joylashuvi bilan o’zbek tilidagi aniqlovchi-aniqlanmishning o’rinlashuvi o’rtasida jiddiy farq mavjud. Arab va fors tillarida avval aniqlanmish keyin aniqlovchi kelsa, o’zbek tilida avval aniqlovchi so’ng aniqlanmish keladi.

Savol va topshiriqlar:

1. *So’z birikmsi nima?i*

Tobe birikmalarga misollar keltiring.
3.Tteng birikmalar misollar keltiring
4.Boshqaruv, moslashuv, bitishuvli aloqalarga misollar keltiring.
5.Iizofa nima?

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To'ychiboyevB. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma'ruza №13. *Gap.*

Reja:

1. Gap va uning turlari.
2. Bir tarkibli va ikki tarkibli gaplar.
3. Sodda va qo'shma gaplar.

Tayanch tushunchalar

Gap
Bir tarkibli va ikki tarkibli gaplar
Boshqaruv, moslashuv, bitishuv, izofa
Sodda va qo'shma gaplar

Bir bosh bo'lakli gaplar ikki bosh bo'lakli gaplardan kura nutqiy tejamli sintaktik tuzilmadir. Bunday gaplar biron hodisa yoki uta ahamiyatli bo'lgan axborot (harakat, holat, belgi, predmet va hodisalar)ni aktuallashtiradi. Bu esa ikki bosh bo'lakli gaplar singari tarkibiy va mano xususiyatlarni ifoda qilishda tilda teng xizmat qila olishini kursatadi.

Turkiy tilshunoslikda ham bir bosh bo'lakli gaplar til taraqqiyotining barcha davrlariga xos bo'lgan sintaktik hodisadir. Bunga turkiy xalqlarning eng qadimgi yodgorligi bo'lgan «Kul tigin» bitigtoshidan ko'plab misol keltirish mumkin: «... ilga'ru' ku'n togsiqqa, birga'ru' ku'n ortusingaru, qurigaru ku'n batisin'a, yirgaru tun ortusingaru, anta ichra'ki buduni qop m(ancha ka'ru'r, anch)a budun qon etdim». Bunday gaplar yodgorliklarda ko'p uchraydi.

Bir bosh bo'lakli gaplar turkiy tilshunoslikda ancha mukammal tadqiq qilingan, lekin ularning ichki tasnifida har xilliklar uchraydi. V.N.Xangel`din bir bosh bo'lakli gaplarni egali gap, egasiz gap, infinitiv gap, predikativli gap, atov gap, so'z–gap kabi turlarga ajratsa (Xangel`din V.N., a9o'9), M.Z.Zakiev bir bosh bo'lakli gaplar bosh bo'lagining qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab fe`lli, otli va so'z – gaplarga ajratadi (Zakiev M.Z., a96q, q9-o'g'). I.Jakipov esa egasiz gap, egasiz shaxsli gap, shaxsi noaniq egasiz gap, shaxsi umumlashgan egasiz gap kabi turlarga ajratadi (Jakipov I, a9o'9, g'n'6), lekin qozoq tilshunoslari bir bosh bo'lakli gaplar sirasida shaxsi aniq gapni sanab o'tmaydilar va *shaxsi noaniq gap* hamda *shaxssiz gap*larnigina qayd qiladilar, shuningdek, *atov gap*, *undov gap* tiplarini bir bosh bo'lakli gap sifatida qaramaydilar (qarang: qozoq tilining grammatikasi, a967, ag'6).

o'zbek tilshunosligida ham G.Abduraxmonov, A.Gulomov, Asqarova M, A.Safoev, A.X.Sulaymonov, S.a'smonov, E.Shodmonov, B.o'rinboev, X.Gofurov, I.Rasulovlarning

tadqiqotlarida bir bosh bo'lakli gaplar va ularning nazariy asoslari yoritib berilgan. Ayniqsa, I.Rasulov bir bosh bo'lakli gaplarni shakliy jixatdan chuqur taxlil qilib bergan.

Eski o'zbek tilida ham bir bosh bo'lakli gaplarning quyidagi turlari qo'llangan:

Shaxsi aniq gaplar. Ma`lumki, shaxsi aniq gaplarning kesimi orqali uning grammatik egasini tiklash mumkin. Kesim orqali eganing qaysi shaxs va sonda ekanligi aniq ko'rinadi. Ba`zi adabiyotlarda bunday gaplar kesim orqali ega anglashilib turganligi uchun ikki sostavli gaplarga, ba`zi adabiyotlarda esa to'liqsiz gaplarga ham kiritiladi. Lekin aksariyat adabiyotlarda shaxsi aniq gaplar sifatida e`tirof etiladi. G.Abduraxmonov ham bu tip gaplarni bir bosh bo'lakli gaplarning bir turi sifatida qaramaydi (Abduraxmonov G., a996).

Aksariyat adabiyotlarda shaxsi aniq gaplarning kesimi birinchi va ikkinchi shaxs shaklida bo'ladi, uchinchi shaxs shaklidagi kesimlar esa shaxsi noma`lum gaplarga xos deyiladi. A.Gulomov shunday yozadi: «shaxsi aniq bir sostavli gap uchun kesimning birinchi va ikkinchi shaxs formasida kelishi ko'p uchraydi» (Gulomov A., Asqarova M., a9h7, aqo').

Ma`lumki, birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxs olmoshlari o'z manosi bilan bir-biridan farq qiladi. Birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlari insonni ko'zda tutadi, uchinchi shaxs olmoshi esa konkret uchinchi shaxsdan tashqari, har qanday shaxs yoki predmetni ifoda qilishi ma`lum. Shunday ekan, uchinchi shaxs olmoshi konkret shaxsni ifodalaganda, birinchi, ikkinchi shaxs olmoshlari bilan umumiylikka ega bo'ladi. Bu vazifada *u* olmoshi *men, sen* olmoshlari sirasida qaralishi lozim. Shu manoda *u* olmoshining gapda qo'llanmasligi *men, sen* olmoshlarining qo'llanmasligi kabi sintaktik norma bo'ladi. Shuning uchun bu tip gaplar eski o'zbek tilida:

I shaxsda ham: *Ikki ku'ndin son'ra yana alar xizmatiga yettim* (Navoiy, XM o'7). *a'l xazrat qashida astagina oqudum* (Navoiy, XM ah). *Barur kishidin ul gazalga tatabbu` qilib, nama yiba'rib erdim* (Navoiy, XM qg').

II shaxsda ham: *Xabar bolguncha salamatlig bila' azimat qilib ermish-siz* (Navoiy, MSh aan'). *Axbab, yigitlikni ganimat tutun'uz* (Navoiy, Mq ha).

III shaxsda ham: *Va sultani saxibqiran astanasida bolur erdi* (Navoiy, MN g'6). *XXa'jji mubarak safariga barib, sayr rasmi bila' Xind sari mutavajjix boldi* (Navoiy, MN ag') keng qo'llangan.

Shaxsi noma`lum gaplar. Bunday gaplarning kesimi uchinchi shaxs ko'plikda ifodalanadi. Bu jixatdan ular ko'plik shaklidagi shaxsi aniq gaplar bilan sinonimiyani xosil qiladi. Misollar: *Va padshaxana jashn tu'zu'b, azim ashlar berib, xatm qaidasin baja keltu'rdila'r* (Navoiy, XPM h7). Yan*a bir qatla ushbu nav` madrasada ham bu qit`ani aytib erdila'r* (KM g'a). Bu gap shaxsi aniq gap, chunki matnda aniq shaxs (Paxlavon Maxmud) haqida so'z ketmoqda. Shunga qaramay, shakl va mazmun jixatdan shaxsi aniq gaplar bilan aynan xususiyatga ega bo'lgan shaxsi noma`lum gaplar uchraydi: *Bu jixattin ani Zul-Aktaf dedila'r* (TMA g'an'). *Gayat yumshag so'zligidin ani Yazdijurdi Narm dedila'r* (TMA g'g'a).

Shaxsi noma`lum gaplarning kesimi fe`lning *–r(-ar,-a'r,-ur,-u'r)* qo'shimchali sifatdosh shaklidan xosil qilingan va aksariyat gaplarda kesim vazifasida *derla'r, ayturlar* fe`llari qatnashgan: *Va qimizni va' su'zma'ni va' bozani turkcha' ayturlar* (ML a6). *Va' ko'ka'lta'shni turkcha' til bila' derla'r* (ML ao').

Shaxsi umumlashgan gaplar. Bunday gaplar mazmunan har uchala shaxsga taalluqli bo'lishi barcha adabiyotlarda aytiladi. Bunday gaplar ikkinchi shaxs birlikda qo'llanilishi bilan harakterlanadi: *Muva'shshix xabarni chindur deb dostga yetku'rma' va' biravnin' aybi vaqe` bolsa, yu'ziga' (Navoiy, Mq). qila algancha ta`zim va' adab binasin yiqma, va' xurmat xilvatidin chiqma (Navoiy,Mq).*

Shaxssiz gaplar. Bunday gaplarda ifodalangan ish-harakat yoki biror holat bajaruvchining faol ishtirokisiz yuzaga chiqadi. Bunday gaplarda ega grammatik jixatdan ifodalanmaydi; shaxsi noma`lum yoki shaxsi umumlashgan gaplardan farqlangan xolda bunday gaplarning egalarini tiklab ham bo'lmaydi. Bunday gaplarning kesimlari majxul fe`llar, majxul fe`l manosida qo'llangan aniq fe`llar vositasida ifodalanadi (Abduraxmonov G., ko'rsatilgan asar, g'n'-bet). Misollar: *Va' shavq yu'zidin bashtin qadam qilib, Ka`bai maqsud azmiga qadam uruldi* (MSh 97). *Barcha salaxiyatin ushbu muammasidin ixsas qilsa bolur* (MN 9o').

Shaxssiz gaplarning kesimi *–maq/-ma’k* formali harakat nomi bilan ham ifodalanishi mumkin: *a’l kishini qutluq evdin tashqari su’rma’k kera’k (Mq).*

Atov gaplar. Eski o’zbek tilida atov gaplarning qo’llanish doirasi cheklangan. a’lar, asosan, badiiy va didaktik asarlar tilida qo’llanib, asar sarlavxalarini tashkil etgan: *Muhammad Xoʻa beg sifati (Muxabbatnoma). Xikayat. She`r.(qR).*

hozirgi o’zbek tilida atov gaplarning turli tiplari kelib chiqdi va qo’llanish doirasi kengaydi.

Savol va topshiriqlar:

Shaxsi aniq gaplarni misollar asosida tushuntirib bering.
Shaxsi aniq gaplar bilan shaxsi noma`lum gaplarning qanday farqli tomonlari bor?
Shaxssiz gaplarga xos bo’lgan xususiyatlar nima?

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O’rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O’zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O’zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To’ychiboyevB. O’zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza №14-15. Gap bo’laklari

Reja:

1.Bosh bo’laklar.
2. Gapning ikkinchi darajali bo’laklar:
a) aniqlovchi;
b) to’ldiruvchi;
v) hol va uning turlari

Tayanch tushunchalar:

Sintaksis – gap, gap bo’laklari, so’z birikmalari haqidagi bilimlarni aks ettiruvchi grammatikaning bir bo’limi.
Gap – predikativlik va intonatsion jixatdan shakllangan nutq va til birligi.
So’z birikmasi – kamida ikkita mustaqil suzning grammatik aloqasini orqali murakkab mazmunni ifodalovchi sintaktik hodisa.

. Ma`lumki, gap bo’laklari gapni tashkil qiluvchi so’z shakllari, birikmalari va boshqa sintaktik birliklarning tarkibiy va mano xususiyatlariga ko’ra farqlanadi. Bunda tarkibiy xususiyat tushunchasi gap bo’laklarining ifodalanishi, ularning gapdagi boshqa sintaktik hodisalar bilan boglanishiva sintaktik mavqe tushunchalarini o’zida birlashtiradi, ular ma`lum bir manoni tashishga xizmat qiladi.

Bosh bo’laklar. Ma`lumki, ega fikr ob`ektini, nutq predmetini ko’rsatuvchi bosh bo’lakdir. An`anaviy tilshunoslikda gapning xokim bo’lagi ega deb e`tirof etiladi. «Ega ikki

sostavli gapning bosh bo'laklaridan biridir: u xoqim sostavning grammatik markazi, shu sostavdagi bo'laklarga, shuningdek, tobe sostavdagi bosh bo'lakka – kesimga ham xokimdir. Ega absolyut xokim holatdagi bo'lakdir. a' gapdagi fikr, xukm o'ziga qaratilgan predmetning – nutq predmetining nomidir. Ega harakatni bajaruvchi yo qabo'l qiluvchi shaxsdir yoki kesim ifodalagan holat, yo belgi qarashli predmet» (Gulomova A., Asqarova M. hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T., a9h7, 77).

Keyingi yillarda gapning shakliy tomoni bilan bir qatorda, uning mazmuniy tomonini o'rganishga ham jiddiy e`tibor berilmoqda, ya`ni tilshunoslikda mazmuniy sintaksis degan yangi yo'nalish yuzaga keldi. Bu borada A.Berdialiev, R.Sayfullaeva, A.Nurmonov, N.Maxmudov, A.Axmedov, S.Solixo'jaeva, M.Abuzalova va boshqalarning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish joiz. Bu tadqiqotlarda gapning bosh bo'laklari xususida ham yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Bu, ayniqsa, N.Maxmudov, A.Nurmonov, M.Abuzalovalarning ishlarida o'z ifodasini topdi. Bu qarash bo'yicha o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi bo'lak kesimdir. Kesim gapning markaziy bo'lagi bo'lganligidan butun tavsifi – grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkorlik, shaxs, zamon, kommunikativ maqsad va xokazolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o'ynaydi. To'gri, kesim haqidagi bunday fikr-muloxazalar an`anaviy tilshunoslikda ham bor. Jumladan, A.Gulomov shunday yozadi: «Kesim ega bilan o'zaro boglangan bo'lib, gapning uyushtiruvchi markazlaridan biridir: u xukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini (modallik, zamon va shaxsni) – predikativlikni ko'rsatuvchi eng muxim bo'lak bo'lganligidan gapning mazmunini, strukturasini, harakterini belgilashda katta rol` o'ynaydi, ega nutq predmetini-temani (gapning nima to'grisida borishinigina) bildiradi, shu xaqda nima deyilishini, xabarni, harakteristikani kesim bildiradi» (Gulomov A., Asqarova M. hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis. T., a9h7, hn'). Olim xatto kesimning gapdagi eng zaruriy bo'lak ekanligini e`tirof etadi. Gapning shakllanishida kesim muxim rol` o'ynashini aytadi: «Gapni maydonga keltirish, fikrni ifodalash jixatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda kattadir: u kommunikatsiyada (aloqa – aralashuv, xabar berishda) asosiy vazifani bajaradi. Gapda kesimning ayrim bo'lak sifatida ifodalanmay qolishi kuchli sezilib turadi. Demak, gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan juda zich boglangandir. Predikativ aloqaning ko'rsatkichlari, odatda, kesimda bo'ladi» (Gulomov A., Asqarova M., yuqoridagi asar, a9h7, hn').

Ma`lumki, gapning harakterli belgilaridan biri predikativlikdir. Demak, kesim predikativ aloqaning muxim ko'rsatkichi, gap tushunchasi bilan juda zich boglangan ekan, u gapda xokim bo'lak xisoblanishi kerak.

Ega quyidagi mano xususiyatlarini bildiradi:

1. harakat, holat va belgini bildiradi: *hamul besh-on ku'nda' abtar devanani bozaxanada yana bir o'zidek abtar boynini chapib o'ldu'rdi (Navoiy, XM).*
2. Ish-harakat ob`ektini bildiradi: *Vazirga bu xabar yetishti (Navoiy, TMA).*
3. Ish-harakatning o'rnini bildiradi: *Va' ul xazratnin' mubarak murqadi Jam vilayatida harjud qasabasidadur (Navoiy, MN).*
4. Ish-harakat yoki belgining paytini bildiradi: *Va' Yalashnin' zamani besh yildin juzviy o'ksu'kdu'r (Navoiy, TMA).*

Tarkibiga ko'ra ega *sodda* va *murakkab* turlarga bo'linadi. Sodda ega bir so'z shakli bilan ifodalanadi: *Saxavat insaniyat baginin' barvar shajaridur (Navoiy, Mq). Miri majlisdagi axli majlisqa muttafiq boldi (Navoiy, MN).*

Murakkab ega bir necha so'zlar birikmasidan iborat bo'ladi: *Bu she`rga xazrat Maxdumi Nuran javab aytibturlar (Navoiy, MN).*

Kesim gap tarkibida muxim o'rin tutadigan bosh bo'lakdir, shuning uchun ham u sodda gaplarda eganing qo'llanishiga nisbatan muqimdir (Kesim haqidagi yangicha qarashlar yuqorida aytib o'tilgani uchun qaytarib o'tirmaymiz). Kesim ham xuddi ega kabi sodda va murakkab turlarga bo'linadi.

Sodda kesim bir so'z shakli bilan ifodalanadi. Sodda kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab *sodda fe`l kesim* va *sodda ot kesim*larga bo'linadi. Sodda fe`l kesimlar fe`l,

uning sifatdosh va ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi: *Va saltanatinin' zamanin ham muxtalif bitibtu'rla'r (Navoiy,TMA). Dostlar dostlar vafasin asragaylar (Navoiy, NM).*

*Sodda ot kesim*lar fe`ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadi: *Yalgan aytquchi gaflatdadur (Navoiy, Mq). a'l ham Andijandindur (Navoiy, MN).*

*Murakkab kesim*lar bir necha so'zlardan iborat bo'ladi. a'lar ham sodda kesimlar kabi murakkab fe`l kesim va murakkab ot kesimlarga bo'linadi.

Murakkab fe`l kesim adabiyotlarda *sostavli kesim* deb ham yuritiladi. Murakkab fe`l kesimlar asosan ko'makchi fe`lli so'z qo'shilmasidan iborat bo'ladi: *a'l dagi bashqara almadi (Navoiy, TMA).* Bundan tashqari, mustaqil fe`lqto'liqsiz fe`l qo'shilmasidan ham murakkab fe`l kesimlar xosil qilingan: *Sekiz min' shax va shaxzada xidmatin qilur erdi (Navoiy, TMA).*

Murakkab ot kesimlar otqfe`l va otqboglama qo'shilmalaridan iborat bo'ladi: *Va Shamda alarga ko'p muridlar payda boldilar (Navoiy, Nas.mux.). Jami` darveshla'r xazir erdila'r (Navoiy, Nas.mux.).*

Eski o'zbek tilida ham xuddi hozirgi o'zbek tilidagidek, ot kesimlar tarkibida *-tur, -men,-siz,-biz* kabi qo'shimcha- boglamalar, *erdi, ermish, bol, barur* va fors-tojik tilidagi *xast* boglamsidan nusxa ko'chirish asosida vujudga kelgan *bor* so'z boglamalari keng qo'llangan.

To'ldiruvchi. To'ldiruvchi gapning uzviy bo'laklaridan bo'lgan ikkinchi darajali bo'lakdir. To'ldiruvchi uchun asosan ot va olmosh turkumi ifoda ashyosi bo'lib xizmat qiladi. a' *vositasiz* va *vositali* kabi ikki turga bo'linadi.

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi. a'lar quyidagicha ifoda ashyosiga ega bo'ladi:

Ot bilan ifodalangan: *Bu zalimlar mu'lkni barbad bergu'chidu'rla'r (Navoiy, Mq).*

Otlashgan sifat bilan: *Aqil bu tariqni shiar qilmas va yaxshi-yamanni xaq yaratqandin artuq-o'ksu'k bilma's (Navoiy, Mq).*

Olmosh bilan: *Jamike ani ko'rdila'r (Navoiy, Mq).*

Fe`lning amaliy shakllari bilan: *Ishla'ri talay alganni talamaq (Navoiy,Mq).*

Vositali to'ldiruvchilar harakat o'ziga bevosita o'tgan predmetni emas, balki harakatga boshqa biror yo'l bilan boglangan predmetni ko'rsatadi va ular kelishikli va ko'makchili so'z shakllari bilan ifodalanadi. Vositali to'ldiruvchilar quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Rustamga jaxan palvanlig laqabi berib, sipaxsalar qildi (Navoiy, TMA).*
2. Olmosh bilan: u*la'rda' bu xasad daim bar erdi (Navoiy, TMA).*
3. Otlashgan sifat bilan: *Turkiy va' farsiyda tab`i yaxshi tasarruf qilur (Navoiy, MN).*
4. Son bilan: *Agarchi bu ma`ni ikka'lesige qabixdur, amma era'nla'rgga' ko'pra'k mujibi tafzixdur (Navoiy, Mq)*

Ko'makchili so'z shakllari bilan ifodalangan to'ldiruvchilar ham eski o'zbek tilida keng qo'llangan: *Ko'pra'k avqat Jayxun qiraginda bolub, atrak bila' urushub yu'ru'r erdi (Navoiy,TMA).*

Aniqlovchi. Aniqlovchilar ham mano xususiyatiga ko'ra ikki guruxga bo'linadi: *sifatlovchi aniqlovchi* va *qaratqich aniqlovchi.*

Sifatlovchi aniqlovchilar biror bo'lakning belgisini bildirib, quyidagicha ifodalanadi:

Sifat bilan: *Bu su'lu'k bila' ku'lliy maqsadga yetibturlar (Navoiy,Mq).*

Olmosh bilan: a*qil bu tariqni shiar qilmas (Navoiy, Mq).*

Ot bilan: *Va ul Maniy musavvirni va atbain xujjat bila' takfir qilib, jazalariga yetku'rdi (Navoiy,TMA).*

Sifatdosh bilan: *Va ul to'rt ay mu'lk surdi va barur mu'lkni o'zga'la'rga' tapshurdi (Navoiy,TMA).*

Son bilan: *Padshax ansiz bir ayag ichma's erdi (Navoiy, TMA).*

Ravish bilan: *Parviz Madayin taxtiga olturub, ko'p ma'ma'likni xiyta tasarrufiga kiyu'rdi (Navoiy, TMA).*

qaratqich aniqlovchilar quyidagicha ifodalangan:

Ot bilan: *Paxlavan Katib ham ul xazratnin' ash`aru musannafatin kitabat qilur (Navoiy,MN).*

Olmosh bilan: *Va anin' vasiyatnamalarini mutalaa qqilib, ul dastur bila' amal qilurga mu'rta'kib boldi (Navoiy, TMA).*

harakat nomi bilan: *Yana ishq atvarida kim, ashk va yiglamaq muqabalasida axu isig dam umdadur (Navoiy, ML).*

Sifatdosh bilan: *Va alar ma'zku'r bolganlarnin' ko'pin turkcha ayturlar (ML).*

Eski o'zbek tilida ham qaratqich aniqlovchilar belgisiz qo'llangan. Belgisiz qaratqich, asosan, ot va olmoshlar bilan ifodalangan: *Va el fayzi uchun vazn silkiga' nazm berma'k (Mq). Muamma fanida ham risala bitibdu'r (Navoiy, MN).*

Xol. Xol ham gapning tarkibiy va uzviy bo'laklaridan bo'lgan ikkinchi darajali bo'lakdir. hozirgi o'zbek tili sintaksisiga oid ishlarda xolning mano turlarini belgilashda turlicha tasniflar mavjud. F.a'baeva o'rin, sabab, payt, maqsad, natija, miqdor, tartib, birgalik-yolgizlik, ravish, o'xshatish, shart, to'siqsizlik, inkor xollarini farqlaydi (a'baeva F. Xol kategoriyasi.T., a97a, a9-b). Bu tasnifdagi natija xoli sabab xolining bir mano guruxi, tartib va birgalik, o'xshatish xollari esa ravish xolining bir mano guruxi ekanligini xisobga olinsa, an`anaviy xolning mano tasnifi o'zining ilmiy qimmatini yo'qotmaganligini sezish qiyin emas.

Eski o'zbek tilida ham xolning quyidagi mano turlari qo'llangan:

o'rin xoli. o'rin xoli hozirgi o'zbek tilidagidek, kelishikli va ko'makchili shakllar bilan ifoda qilingan: *qubad Rumga cherik tartib, muzaffar va mansur yandi (Navoiy, TMA). a'l Tabaristan sari tartib urushmadi (Navoiy, TMA).*

*Payt xoli.*Payt xollari asosan payt ravishlari bilan ifodalangan: *Emdi so'znin' asliga shuru` qilali (Navoiy, Mq).Va hamesha faqir musaxib erdi (Navoiy, MN).*

Ravish xoli. Bu bo'lak uchun holat ravishi morfologik ashyodir: *Gayibana shatranjni xub oynar (Navoiy,MN). Va qasidani puxta aytur (MN).*

Xuddi hozirgi o'zbek tilidagidek, sifat bilan ham ifodalanadi: *qafiyasini yaxshi aytmaydur erdi (MN).*

Sabab xoli. Sabab xoli uchun maxsuslashgan so'z turkumi yo'q. Bunday xollar ish-harakatning, kengroq manoda belgining mavqe`iga nisbatan boshqa so'z shakllarining tutgan mavqe`idan, ya`ni predikatga nisbatan sabab munosabatini bildirgan so'z shakli va iboralarning mavqe`idan belgilanadi. Sabab xoli ham kelishikli va ko'makchili shakllar bilan ifoda qilinadi: *Alar vaxxmdin ul tiflni bir qiymatiy nima'ga' chirma'b, ul chax bashida qoyub qachtilar (Navoiy, TMA). a'l xalayiq taajjub yu'zidin andin ul xal ka'yfiya'tin sorubturlar (Navoiy, NM).*

Maqsad xoli. Maqsad xollarining ham kelishikli va ko'makchili shakllari mavjud: *Shikayatga bu faqir qashiga keldila'r (MN).Ilm taxsili uchun shaxrga kelibtu'r (MN).*

Darja-miqdor xoli. Ma`lumki, bunday xol uchun daraja-miqdor ravishi ifoda ashyosi bo'lib xizmat qiladi, lekin sifat va boshqa so'z turkumlari ham daraja-miqdor xoli mavqe`ida kelgan: *Tab`i asru xub vaqe` bolubtur (MN). Gazal ko'pra'k aytur (MN).*

Xulosa qilib aytish mumkinki, gap bo'laklarining tarkibiy va mano xususiyatlarida hozirgi o'zbek adbiy tiliga o'xshash va yaqin turadigan o'rinlar anchagina. Bu, o'z navbatida, hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi eski o'zbek tili sintaksisining bevosita davomi ekanligini ko'rsatib turadi.

Savol va topshiriqlar

Teng va tobe birikmalarga Alisher Navoiy asarlaridan a0 ta misol yozing.

Gap bo'laklarining har biriga uchtadan misol yozing.

Eski o'zbek tili sintaksisi bilan hozirgi o'zbek tili sintaksisi o'rtasida qanday farqli tomonlar mavjud?

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.

2. O’rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O’zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O’zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To’ychiboyevB. O’zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ma’ruza №16-17.Eski o’zbek tilida qo’shma gaplar
Boglangan qo’shma gaplar taraqqiyoti

Reja:

1.Boglangan qo’shma gaplar bo’yicha nazariy ma`lumot.
2.Qiyoslash munosabatini ifodalovchi boglangan qo’shma gaplar.
3.Payt munosabatini iodalovchi boglangan qo’shma gaplar.
4.Sabab-natija munosabatini ifodalovchi boglangan qo’shma gaplar.

Tayanch tushunchalar

Qo’shma gap, boglangan qo’shma gap, qiyoslash munosabati, payt munosabati, Sabab-natija munosabati, ergash gapli qo’shma gap

An`anaviy tilshunoslikda boglangan qo’shma gaplarning mano jixatdan besh turi: a) qiyoslash munosabati; g’) payt munosabati; q) ayiruv munosabati; n’) sabab- natija munosabati; o’) izoxlash munosabati sanab utiladi va har bir turning formal-grammatik tomoni taxlil qilinadi (o’zbek tili grammatikasi, a976). S.Solixujaeva tadqiqotlarida esa boglangan qo’shma gaplar orasidagi mazmuniy munosabatlar haqida fikr yuritiladi (Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixujaeva S., a99g’, ag’0-g’00).

Rus tilshunosligida boglangan qo’shma gaplar tarkibidagi boglovchilarning ishtirokiga kura ikki guruxga ajratiladi: a) ochiq strukturali boglangan qo’shma gaplar; b) yopiq strukturali boglangan qo’shma gaplar (Beloshapkova V.A., a967, 6g’-69). S.Solixujaeva tadqiqotlarida ham o’zbek tilidagi boglangan qo’shma gaplar shu tamoyil asosida taxlil etiladi (Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixujaeva S., a99g’, ag’7).

Alisher Navoiy nasriy asarlaridagi bir bosh bo’lakli boglangan qo’shma gaplar taxlil etilganda, shu narsa ma`lum bo’ldiki, bunday gaplarni asosiy boglovchi vosita *va* biriktiruv boglovchisidir. Ma`lumki, va boglovchisi gapning uyushiq bo’laklarini ham, qo’shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ham bir-biriga boglaydi. hozirgi o’zbek tilida bu boglovchi bilan «qo’shma gap komponentlari sirasini davom ettirganda, birinchi va ikkinchi komponentni boglasa, keyingi komponent boshqa teng boglovchi orqali yoki intonatsiya orqali boglanadi. Boshqacha qilib aytganda, birinchi va ikkinchi komponentlarda bir teng boglovchi grammatik forma sifatida ishtirok etsa, qolgan komponentlar orasida boshqa bir teng boglovchi grammatik forma sifatida ishtirok etadi. Bu stilistik jixatdan ravonlikni ta`minlaydi» (Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixujaeva S., a99g’, ag’7). *Va* boglovchisining semantik

doirasi eski o’zbek tilida, shu jumladan, Alisher Navoiy asarlari tilida nisbatan ancha kengdir, u uyushiq bo’laklarda, ayniqsa qo’shma gap ko’chimidagi sodda gap kompenetlarinining turli mazmun munosbatlarini ifodalashda faol qatnashgan (Ashirboev S., a990, g’9o’-g’97).

Alisher Navoiy asarlari tilida esa *va* boglovchisi takroran qullana beradi. Misol: *Devanlar uchun fexrist bitib erdila’r va har birin mavsum bir ismga qilib erdila’r va bu ismga faqir bais bolganini dagi izxir qilib erdila’r* (XM o’7).

Fikrimizcha, bunga asosiy sabab *va* boglovchisining eski o’zbek tilida qullanish imkoniyatining kengligidir. Bu boglovchining Alisher Navoiy davrida uyushiq bo’laklarni boglash bilan birgalikda yangi gapning boshlanishini kursatuvchi ishora sifatida qullanishi G.Abduraxmonov tomonidan tadqiq etilgan (Abduraxmonov G., a960, g’a) va bu fikr boshqa turkiyshunos olimlar tomonidan ham ma`qullangan (Mirzazoda., a96h, 97). Demak, aynan mana shu holat, ya`ni, *va* boglovchisining yangi gapning boshlanishini kursatuvchi ishora sifatida ham qullanishi ochiq strukturali boglangan qo’shma gaplarda sodda gaplarni istagancha davom ettirish imkonini bergan. Ikkinchidan, bu holatni boglovchi shakliy vositalarning mavqei u qadar muxim emasligi bilan ham izoxlash mumkin.

Sintaktik konstruktsiyalar semantikasi haqida suz yuritilganda *modus* va *diktum* atamalariga tuxtalib utish lozim. Modus va diktum gaplarning semantik xususiyatini belgilab beruvchi tushunchalar xisoblanadi. Bu tushunchalar rus tilshunoslari va o’zbek tilshunoslari tomonidan ham e`tirof etilgan.

Ma`lumki, diktum gapda asosiy fikr-voqeaning ifodalovchisi sifatida tushunilsa, modus diktum voqeaning sub`ektiv interpretatsiyasi (CheremisinaM.I., Kolosova T.A., a9h7, qn’) xisoblanadi. Modus va diktum sodda gaplarda ham, qo’shma gaplarda ham mavjud bo’ladi. Ayniqsa, qo’shma gaplarda ularning aktuallashuvi o’ziga xos bo’ladi.

Ma`lumki, qo’shma gaplarda ikki yoki undan ortiq voqealar ifodalanadi. Mana shu voqealar semantik xususiyatiga kura g’ xil bo’ladi:

1. Diktum voqea.
2. Modus voqea.

Ergashgan qo’shma gaplardagi diktum va modus mazmunning ifodalanishi, ularning o’ziga xos xususiyatlari N.Maxmudovning tadqiqotlarida keng va atroflicha yoritilgan (Maxmudov N., Nurmonov A., a99o’, a66-g’ah).

Bu xususda N.Maxmudov shunday yozadi: “Bu o’rinda gap manosidagi ikki xil tabiatli mazmunni farqlash kerak bo’ladi. Mazmuniy sintaksisning taraqqiyoti munosabati bilan, - deb yozadi V.A.Beloshapkova, - juda ko’p tilshunoslar tomonidan turli vaqtlarda aytilgan gap manosida bir-biridan printsipial farqlanuvchi ikki tur mazmun – borliqni aks ettiruvchi xolis mazmun va fikrlovchining ana shu borliqqa munosabatini aks ettiruvchi sub`ektiv mazmun qo’shilgan, degan fikr aloxida dolzarblik kasb etadi”. *Va* boglovchili qo’shma gaplarda turli mazmun munosabatlari ifodalangan. a’lar quyidagilar:

a. qiyoslash munosabati. Bunday gaplarda ikki denotativ voqea uzaro qiyoslanadi. Mana shu qiyoslanish asosida har ikkala denotativ voqea uchun umumiy bo’lgan semantika namoyon bo’ladi. Masalan: *Xaq malin ku’ydirga’nni devana derla’r va’ yaruq ku’nda’ shami ka’furiy yaqqanni aqldin begana derla’r* (Mq aaa-aag’).

Birinchidan, ushbu gap tarkibidagi sodda gaplar tenglanish asosida aloqaga kirishgan, ya`ni har bir denotativ voqea yakka xolda ham qullana oladi. Lekin ikkinchi tomondan, jips mazmuniy boglanish bor. Avvalo, har ikkala gapda bitta umumiy semantika-aqlsizlik izoxlanmoqda. Birinchi denotativ voqea *(Xaq malin ku’ydirga’nni devana derla’r)* asosiy voqea, ikkinchi denotativ voqea *(Yaruq ku’nda’ shami ka’furiy yaqqanni aqldin begana derla’r)* izoxlovchi voqea ikkinchi denotativ voqeaga qiyoslangan xolda uning manosi yanada chuqurroq, kengroq izoxlanmoqda.

Xaq molini kuydirgan odam kunduzida sham yoqib yurgan kishiga uxshatilmoqda. a’z-o’zidan ma`lumki, kunduzi sham yoqishga xech qanday xojat yuq. Kunduzida sham yoqib yurgan kishi, albatta, hammaga kulgi, mashara bo’ladi. Xaq molini kuydirganlar aynan shunday kishilarga qiyos qilinmoqda. Bu gap asosida *Xaq molin kuydirgan yoruq kunda sham`i kofuriy yoqqan bilan barobar* degan mazmun yotadi.

qo’shma gaplar tarkibidagi gaplarning semantik boglanishida gaplar tarkibidagi oppozitiv vositalar muxim rol` uynaydi*. Bunday oppozitiv vositalar har ikkala gap tarkibida kelib xavola bo’laklar (Xavola bo’laklar haqida qarang: Maxmudov N.,Nurmonov A., a99o’, a7g’) kabi bir-birini talab etadi, semantik munosabatga kirishadi.

Yuqoridagi misolda denotativ voqealarning semantik boglanishida x*aq molin kuydirgan - yoruq kunda sham`i kofuriy yoqqan, devona – aqldin begona* oppozitiv vositalarning oppozitiv munosabati muxim vosita sifatida ishtirok etmoqda.

g’. *Payt munosabatini ifodalagan.* An`anaviy tilshunoslikda *va* boglovchisi sodda gaplarni bir-biriga boglaganda: a) o’zi boglagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-harakat, voqea va hodisalarning bir vaqtda bo’lganini; b) ish-harakatning ketma-ket bo’lganini ifodalash aytiladi (Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M. va b., a9h0, n’g’6).

G.Abduraxmonov to’gri ta`kidlaganidek, biriktiruv boglovchili qo’shma gaplarning boshqa mano turlari ham ma`lum darajada payt manosi bilan boglanadi, ammo ularda o’ziga xos mano etakchi bo’ladi. Shuningdek, ma`lum bir payt bilan bogliq bo’lgan qo’shma gaplarda ham qo’shimcha, boshqa mano ottenkalari bo’lishi mumkin (Abduraxmonov G.qo’shma gap sintaksisi asoslari.-T., a9o’h,).

Eski o’zbek tilida ham payt mazmuni quyidagicha ifodalangan:

qo’shma gap tarkibidagi har ikki denotativ voqea bir paytda sodir bo’ladi: *Bataxsis, «Kimyai saadat»din va shayx Azizi Nasafiy... rasailin ham ta`rif qilurlar erdi va andin so’zla’r naql qilurlar erdi* (XSXA 7h). Denotatlar mazmuniy boglanishi ***«Kimyoi saodat»din, rasoilin-andin*** leksik vositalari oppozitsiyasi orqali yuzaga chiqmoqda. *Andin* leksemasi yuqoridagi leksemalar bilan semantik munosabatga kirishgan xolda birinchi denotat bilan ikkinchi denotatning mantiqiy boglanishini ta`minlamoqda.

Denotativ voqealar birin-ketin sodir bo’ladi. Birin-ketin sodir bo’lishlik denotatlar tarkibidagi ayrim leksik vositalar semantikasi orqali reallashadi:

Axir leksemasi orqali: *Ko’p kishva’r aldi va’ axir rixlat ko’sin chaldi* (TMA g’aq).

Gax leksemasi orqali: *Va’ gax gurbatda alil va garib eliga’ zalil boldum va’ gax azizlar xizmatidin o’zu’mni baxramand va’ so’zu’mni dilpisand taptim* (Mq o’-6).

Necha’ yil: *Va’ necha’ yil alar xizmatiga barib, faqir tariyqin ixtiyar qildilar va’ necha’ yil alar suxbat va’ mulazamatlarida sulux qilib, xaaqaxlarida azim arbainlar chiqardilar* (XSXA hq).

Bir maxal: *Xax bir maxalda birav uchun aytgan, xax biravnin’ ruq`asiga javab yibargan* (XPM hg’).

Andin so’n’ra’: *Sabzavarda qaza mansabini an’a berga’ndu’rla’r, andin so’n’ra’ Isfarayinda qazi bolgandur* (MN o’h).

Muddatidurkim: *Va’ Kirman viloyatida xukumat qildi va’ muddatidurkim, padshax eshigida’ amarat devanida muxr basadur* (MN ahn’). a’shbu misolda voqealarning ketma-ket ro’y berishi predikatlar orqali ham shakllangan. Birinchi denotatning predikati o’tgan zamon fe`l shakli bilan ifodalangan bo’lsa, keyingi denotatning predikati hozirgi-kelasi zamon fe`l shakli bilan ifodalangan.

q. *Sabab-natija mazmuni ifodalangan.*

Sabab-natija munosabati haqida gapirar ekan, G.Abduraxmonov bunday munosabatning yuzaga kelishida faqat boglovchilar emas, balki sodda gaplar tarkibidagi ayrim bo’laklarning semantikasi rol` o’ynashini ta`kidlaydi (Abduraxmonov G., a9o’h, 7q).

Misollarga murojaat qilaylik: *«Minjoxun-najot» qasidasida xidayat tariyqin tu’zu’b-men va’ zalalat axliga najat shaxraxin ko’rgu’zu’b-men* (ML ag’n’).

a’shbu misolda *Xidoyat tariyqi – najot shoxroxi* so’z birikmasi oppozitiv munosabatni yuzaga keltirmoqda. *Xidoyat tariyqi* so’z birikmasining semantikasi *najot shoxroxi* orqali

---

* Oppozitiv vosita ataмasi ostida □zaro zid manoli, bir-biriga ya□in manoli s□zlar, sz birikмalari munosabati xususida fikr yuritiladi.

izoxlanmoqda. *Xidoyat tariyqi* leksik birikmasining mazmuni *to'gri yo'lga etaklash yo'li yoki qoidasi* demakdir. *Najot shoxroxi esa najotning katta yo'lidir. Xidoyat tariyqi – najot shoxroxi* izoxlovchi-izoxlanmish munosabati orqali sabab-natija mazmuni kelib chiqqan. Demak, zalolat axli uchun najot yo'li bu xidoyat tariyqidir, ya`ni uni o'rganish, undan ogox bo'lish. Zalolat axli xidoyat tariyqini o'rganish orqaligina to'gri yo'lga chiqish mumkin.

Ma`lumki, hozirgi o'zbek tilida *ammo* grammatik shaklining o'zaro zid bo'lgan sodda gaplarni bir-biriga boglashi tilshunoslar tomonidan e`tirof etilgan. Lekin eski o'zbek tilida bu shakl bir-biriga zid bo'lmagan sodda gaplar tarkibida ham qo'llanadi. *Va* shakli esa zidlov munosabatli qo'shma gaplar tarkibida ham kelgan. Bunday holatlar ham mazkur shakllarning sodda gaplarni boglashda asosiy vosita ekanligiga shubxa uygotadi.

Ammo boglovchisi quyidagi o'rinlarda uchraydi:

a. *Zid munosabatli qo'shma gaplarda***:** *Xushi barida yaxshi abyatlar aytib erdi, amma junun vaqtida bu baytni ko'p oqur erdi* (MN qo').

Denotatlar orasidagi zid munosabat *xushi bor-junun, yaxshi abyot - bu bayt* oppozitsiyasi orqali ifodalangan. *Xushi bor* - funktsional bo'lmagan predikativ birikmasi *junun* leksemasi bilan semantik jixatdan o'zaro zid munosabatni yuzaga keltira oladi, ya`ni asliy zidlik xisoblanadi. *Yaxshi abyotlar - bu bayt* so'z birikmalari, to'grirogi, *yaxshi - bu* leksemalari o'zaro zidlik oppozitsiyasini keltirib chiqara olmaydi, lekin *bu* leksemasi mazkur misolda *yomon* leksemasining substituti sifatida kelgan bo'lib, kontekstual jixatdangina shu leksemaning semantikasini o'ziga olgan. Demak, bunday zidlikni nisbiy zidlik deb atash mumkin. Mazkur gapni quyidagi ko'chimda ifodalaganda maqsad oydinlashadi. qiyoslang: *Xushi barida yaxshi abyatlar aytib erdi, amma junun vaqtida yaman baytlarin ko'p oqur erdi ya'ki yaxshi bayt aytmas erdi.*

*g'. Semantik jixatdan zid bo'lmagan qo'shma gaplar tarkibida***.** Bunday gaplarda *ammo* boglovchisi semantikasida zidlik tushunchasi bo'lmaydi, balki boglovchilik funktsiyasi saqlanib qolgan xolda, ammo so'zida ta`kid manosi ham birga anglashiladi, lekin ot va uning substituti oppozitsiyasi ikki gap semantikasining bir-biriga aloqadorligini ta`minlaydi. *Dagi Istaxrni bina qildi, amma ko'pra'k avqat anda bolur erdi* (TMA aho'). Shakliy tomondan qaraganda, zidlov boglovchi ishtirok etgan, demak, zidlov munosabat shakllanishi kerak, lekin bu misolda zidlash munosabati yo'q. Denotatlar *Istaxrni - anda* oppozitsiyasi orqali boglanmoqda. Mazmunan ketma-ket ro'y bergan ikki denotativ voqea teng mavqeda, payt munosabati ifodalangan. Mazkur gapning ikkinchi komponenti predikatida bo'lishlilik semasi aks etgan bo'lsa, «*Damovadni bino qildi, ammo anda gaxi bo'lur erdi* (TMA aho')» misolida predikatda garchand bo'lishlilik shakli reallashgan bo'lsa-da, mazmunan bo'lishsizlikni ifoda qiladi. Bir qarashda ammo boglovchisi o'zaro zid mazmun munosabatidagi gaplarni boglagandek ko'rinadi, lekin qo'shma gapning umumiy mazmunida bir komponent mazmuni ikkinchi komponent mazmunini inkor etayotgani yo'q, ya`ni *Damovadni bino qilgan*ligi, unda *gaxi bo'lishiga* qarshi qo'yilayotgani yo'q, boshqacha aytganda, ikkinchi gap birinchi gap mazmuniga zid emas, lekin gapda ziddiyati bo'lmagan *Damovad – anda* ot va olmosh (substitut) oppozitsiyasi mavjud.

Savol va topshiriqlar:

qo'shma gaplar bilan yoyiq sodda gaplar o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.
Eski o'zbek tilida boglangan qo'shma gaplar qanday boglovchilar yordamida boglangan?
Boglangan qo'shma gaplarga a0ta misol yozing.

A d b y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To'ychiboyevB. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.

5. G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O’zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.

Ergash gapli qo’shma gaplar

Ma`lumki, ergashgan qo’shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar o’zaro xokim-tobelik munosabati orqali boglanadi. Ergash gap bosh gapga tobe boglanib, bosh gapdagi biror bo’lakni izoxlab keladi. Bosh va ergash gap grammatik hamda mazmunan jips boglanib, yaxlit birlikni tashkil etadi va umumiy bir fikrni ifodalaydi. a’lar o’zaro fe`lning amaliy shakllarining qo’llanishi (turli grammatik vositalar bilan birikkan sifatdosh, ravishdosh va shart fe`li), yordamchi so’zlar orqali munosabatga kirishishi aytiladi (Abduraxmonov G., a996, aho’). Ergashgan qo’shma gaplarning guruxlanishi ergash gapning bosh gapdagi qaysi bo’lakni izoxlab kelishiga qarab belgilanadi. Shuni aytish kerakki, ergash gaplarning tasnifida tilshunoslar o’rtasida umumiylik bor. o’zbek tilshunosligida ergash gaplar mazmuniy – shakliy jixatdan an’ turga ajratiladi: a) ega, g’) kesim, q) to’ldiruvchi, n’) aniqlovchi, o’) ravish, 6) o’lchov- daraja, 7) chogishtirish-o’xshatish, h) sabab, 9) maqsad, a0) payt, aa) o’rin, ag’) shart, aq) to’siqsiz, an’) natija ergash gaplar (Gulomov A., Asqarova M., a9h7, ah7). N.Maxmudov ham ergashgan qo’shma gaplar semantikasini ayni shu tasnif asosida taxlil etadi (Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixo’jaeva S., a99g’, g’n’q). G.Abduraxmonov esa ularni quyidagi turlarga ajratadi: a) aniqlovchi, g’) to’ldiruvchi, q) ega, n’) kesim, o’) payt, 6) sabab, 7) shart, h) maqsad, 9) to’siqsiz, a0) natija, aa) ravish, ag’) qiyos, aq) umumlashtiruvchi-izox ergash gaplar (Abduraxmonov G., a996, a9a-g’a6). a’ning bu tasnifida yuqoridagi barcha qo’shma gaplar aks etgan bo’lsa-da, qiyos va umumlashtiruvchi ergash gaplar asossiz maydalashtirilib yuborilgan. Masalan, umumlashtiruvchi-izox ergash gapli qo’shma gaplar tabiati haqida to’xtalar ekan, u shunday yozadi: «Ergash gaplarning shunday turlari borki, ular bosh gapga analitik-sintetik yo’l bilan boglanadi. Bu xolda bosh va ergash gap o’zaro nisbiy olmoshlar orqali birikib, ergash gapning kesimi shart mayli orqali ifodalanadi. Demak, bunday ergash gaplar bosh gapga asosan leksik vositalar va shart mayli orqali boglanadi. Bu boglanish ikki tomonlama bo’lib, boglovchi leksik vositalar ham ergash gap, ham bosh gap tarkibida qo’llanadi» (Abduraxmonov G., a996, g’a6).

Eski o’zbek tilida ham ergash gapli qo’shma gaplarning yuqoridagi turlari qayd qilinadi. quyida ularni ko’rib o’tamiz.

Ega ergash gapli qo’shma gaplar. Ma`lumki, ega ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan egani izoxlab, to’ldirib keladi. Eski o’zbek tilida ega ergash gap bosh gapga quyidagicha boglangan:

hozirgi o’zbek tilidagidek, fe`lning shart mayli formasi yordamida: *har kim padshax bolsa, yana yan’i xazana yigmaq kera’k (BN). har kishi tu’rkicha’ aytsa, bir ayag ichsu’n (BN).*

–r(-ar,-a’r,-ur,-u’r) affiksli sifatdosh formasi yordamida: *a’l chin so’zni yalganga qatar, durri saminni najasatqa atar (Navoiy Mq).*

Fe`lning aniqlik mayli formasi yordamida: *har kishi kim tiriklik manziliga kelibtu’r, axir dunya gamxanasidin kechku’sidu’r (BN).*

–ke,-kim boglovchisi orqali: *So’n’ra’ ma`lum boldi kim, mujavirlarnin’ tazviri eka’ndu’r (BN).*

Eski o’zbek tilida ham ega ergash gap bosh gapda ifodalanmagan egani izoxlab kelgan: *har kimke vafa qilsa, vafa tapqusidur//har kimke jafa qilsa, jafa tapqusidur (BN)*

Kesim ergash gapli qo’shma gaplar. Kesim ergash gap bosh gapning olmosh orqali ifodalangan kesimini izoxlab, bosh gapga hozirgi o’zbek tilidagidek, *-ke,-kim* boglovchisi orqali boglangan. Bosh gapning kesimi vazifasida hozirgi o’zbek tilida *shu* olmoshi keladi. Eski o’zbek tilida esa ko’proq *bu, bo’lar, ul* ko’rsatish olmoshlari qo’llangan. Misollar: *Ximmati va’ garazi ul edikim, ul ishni kamalga tegu’rga’y (BN). a’mid andaqdurkim, ushbu ku’n tan’-la Xisravshaxnin’ jami` navkar va’ savdari kelib, padshax qullugin qabo’l qilgaylar (BN).*

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar. Ma`lumki, tuldiruvchi ergash gaplar bosh gaplardagi tuldiruvchi sintaktik vaziyatidagi leksemaning manosini tuldirib keladi va bosh gapga *–ki // -kim* shakliy vositasi orqali boglanadi: A*qibat an'a qarar tapti kim, saltanat tajin ikki ach arslan arasida qoygaylar* (Navoiy TMA). *Ish an'a yetti kim, biznin' el xandaq yaqasigacha barib, qul va' dadak keltu'ru'rla'r edi (BN).*

hozirgi o'zbek tilida to'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapga fe`lning shart mayli shakli, *deb* yordamchisi, *-mi,-chi, -ku* yuklamalari va *–ki* boglovchisi yordamida boglanadi. Eski o'zbek tilida esa asosan *–ke,-kim* vositasida boglangan.

*Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar***.** Ma`lumki, aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qullangan, ayrim suzlarning manosini konkretlashtirib keladi yoki bosh gapdagi predmetning aniqlovchisi vazifasini bajaradi. Aniqlovchi ergash gap ko'pincha bosh gapdagi predmet belgisini uning harakati yoki holatiga kura aniqlaydi. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi ot orqali ifodalangan turli bo'laklarni izoxlab keladi.

Aniqlovchi ergash gapning tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlasak, uni uzoq tarixga ega ekanini ko'ramiz. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar qadimgi turkiy tilda, shuningdek, eski o'zbek tilida ham keng qo'llangan.

hozirgi o'zbek tilida aniqlovchi ergash gaplar bosh gapga *–ki* boglovchisi hamda shart mayli formasi yordamida boglanadi. Eski o'zbek tilida ham shunday xolni kuzatish mumkin: *Xaja falanga dagi xukm bolsa kim, alar ishidin xabardar bolub, alarga madadkarligida taqsir qilmasa* (Navoiy MSh). *Sudurga xukm bolsa kim, vilayat avqafidin xabardar bolsalar* (Navoiy MSh). *Andaq rivayat qildilar kim, chumchuq bezga'k bolgandur (BN)*

Ba`zan aniqlanayotgan bo'lak shaklan ifodalanmasligi ham mumkin. Lekin mazmunan u tuliq anglashinaveradi: *Andoq eshitildikim, Astrobodda olamdin utubtur* (Navoiy MN). Mazkur misolda bosh gap tarkibidagi aniqlanayotgan bo'lak *(xabar)* shaklan ifodalanmagan. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aynan ana shu ifodalanmagan sub`ektni aniqlab, izoxlab kelgan. Implitsit sub`ekt *andoq* xavola bo'lagi orqali anglashilib turibdi.

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar. Bunday gaplarning mazmuni sabab munosabatidan iborat. Ergash gap sabab voqeani, bosh gap undan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi. Bunday ergash gaplarda sodda gaplarning semantik munosabatida *ul jixattin, bu jixattin* leksik birikmalarining semantikasi muxim ahamiyatga ega. Bu vositalar bosh gapning boshida kelib, sabab xoli semantik vaziyatini egallaydi. Sabab voqea ana shu vositalar yordamida natija voqeaning ichiga kiradi. Sabab voqea, ya`ni, shart ergash gap oldin, undan so'ng bosh gap keladi. Chunki sabab voqea ifodalangandan so'ng *ul jixattin, bu jixattin* vositalari bilan asosiy denotatning yuzaga chiqish sababi izoxlanadi. Shuning uchun ergash gapning bosh gapdan oldin o'rinlashuvi mantiqan to'gri.

Misollar: *Bard lafzidin achchigi kelu'r erdi, bu jixattin an'a tashvish beru'rla'r erdi* (Navoiy MN). *Chun siznin' tabugin'izda davlatxaxlig so'zini ayturga ma`murmen, ul jixattin gustaxlig bila' arzadasht bitildi* (Navoiy MSh).

Yuqorida ta`kidlanganidek, *chun* leksemasi sabab ergash gapli qo'shma gaplarda ham qo'llanib, ular o'rtasidagi semantik munosabatni reallashtirgan. Bunda ham ergash gap bosh gapdan oldin kelgan: *a'l xazratga chun ravshan bolub erdi, inaor qila almadim* (Navoiy MN). a'shbu misolda ham payt munosabatlari ifodalangan. Ya`ni, qachon inkor qila olmadi, deyish mumkin yoki nima sababdan, degan savol qo'yish mumkin. Lekin gapda payt manosiga nisbatan sabab mazmuni kuchli. Chunki asosiy gapning bajarilishidagi payt emas, balki sabab birinchi planga chiqarilmoqda, *inkor qila olmaslik* sababi aloxida ta`kidlanmoqda.

Endi quyidagi misolni ko'raylik: *Va qatl istida`si qildi ersa', qatl buyurdi* (TMA g'qa). a'shbu gapning ham mazmunini sabab-natija munosabati tashkil etadi. Yuqorida ta`kidlanganidek, *ijro maylidagi fe`lqto'liqsiz fe`l* shakli payt ergash gapli qo'shma gaplardagi sodda gaplarni o'zaro munosabatini ta`minlaydi. Lekin shuni ta`kidlash joizki, bunday qo'shma gaplarda payt mazmuni ham, sabab mazmuni ham ifodalanadi.

Sabab ergash gap bosh gapga *–ki, kim* vositasida ham boglanishi mumkin. Bunday qo'shma gaplarda bosh gap ergash gapdan oldin joylashadi: *Mavt marazida tajni anin' qarniga qoydi kim, Darabqa hamila erdi* (Navoiy TMA).

hozirgi o’zbek tilida ham sabab ergash gaplar bosh gapga ba`zan *-ki* shakliy vositasida boglanadi. Lekin yuqoridagi misoldan farqli ravishda, ergash gap bosh gapdan avval joylashadi: *Ayol borki, olam munavvar. Sen borsanki, shodman xayotdan* kabi.

Yuqorida ta`kidlanganidek, Alisher Navoiy asarlari tilida bosh gap ergash gapdan oldin joylashadi. Demak, bosh gap *(Tojni aning qorniga quyish)* ning yuzaga kelishiga ergash gap *(Dorobga xomila erdi)* sabab bo’lmoqda. Nutq talabiga kura ergash gapni bosh gapdan oldinga utkazish mumkin: *Darobqa xomila erdi, shuning uchun mavt marazida tojni aning qorniga quydi,* kabi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bunday boglanishda bosh va ergash gaplarning urinlashuvi erkin bo’ladi. qaysi gap ta`kidli ifodaga ega bo’lsa, suzlovchi uchun muxim bo’lsa, usha denotat avval joylashadi. Misoldagi asosiy voqea *(Tojni aning qorniga quydi)* suzlovchi uchun muxim, shuning uchun uni birinchi planga quygan.

Shu bilan birga, sabab ergash gap bosh gapga yana quyidagi vositalar yordamida boglanishi mumkin:

Nega’kim boglovchisi yordamida: *Bu fursatda Bajurni shax Mir Xusaynga inayat qilib, Xaja Kalanni tila’b erdu’k,nega’kim Xaja Kalan musaxib erdi (BN).*

o’tgan zamon sifatdoshiga uchinchi shaxs egalik affiksining qo’shilishi, so’ngra *uchun* ko’makchisini keltirish bilan: *qabo’lnin’ daramad va’ xasilini bilma’y mundaq taxmil bolgani uchun, vilayat xili harab boldi (BN).* Ba`zan sifatdosh tarkibidagi egalik affiksi tushib qolgan: *Atasi vilayatqa kirib, necha’ maxal sallaxliq qilgan uchun, qanbar Ali sallax der erdila’r (BN).*

-b(-ib,-ib//-ub,-u’b) affiksli ravishdosh vositasida: *Bu vaqea andin yad berib, cherik eliga’ vaxima galib boldi (BN).*

Shart ergash gapli qo’shma gaplar. hozirgi o’zbek tilida shart ergash gaplar bosh gap bilan fe`lning shart mayli shakli, o’rin-payt kelishigidagi sifatdosh shakli, kelasi zamon sifatdoshi hamda to’liqsiz fe`l, ravishdoshning bo’lishsiz shakli, o’rin-payt kelishigida sifatdosh hamda to’liqsiz fe`l shakllari orqali birikadi.

Bunday qo’shma gaplar mazmunini shart munosabati tashkil etadi. Ikki yoki undan ortiq denotativ gap shartlanganlik munosabatiga kirishadi. Shakliy funktsional jixatdan ergash gap bosh gapning sintaktik qurilishida shart xoli o’rnini egallaydi: *Dost visalin tila’r bolsan’, ashiq bol* (Navoiy Mq).

Ergash gapning predikati bo’lishsiz fe`l shakli bilan ifodalanishi mumkin. Buning natijasida shart voqea bir qadar ta`kidli ifodaga ega bo’ladi: *har vafaga yuz jafa tartmasan’, gu’na’xka’r-sen* (Navoiy Mq).

Eski o’zbek tilida *agar* boglovchisi shart ergash gapli qo’shma gaplar tarkibida keng qo’llangan bo’lib, u shart mazmunini kuchaytirib kelgan: *Agar shabixun barsaq, qarangu kecha’da’ kishi ko’rma’s (BN).*

Agar yordamchisi XI asrlardan boshlab fors-tojik tilidan o’zlashgan bo’lib, to hozirgi kungacha qo’llanib kelayotgan shart boglovchisidir. XI-XII-XIII asr adabiy tilida oz miqdorda ko’zga tashlanib, XIV-XVI asrlardan boshlab keng qo’llangan. Bu boglovchi *ar* shaklida ham qo’llangan: *Ma`zur tut ar vaslin’a kechra’k yetsa’m//nechara qilay azgina mani` bardur (BN).*

Ergash gapning o’rni, chegarasi va uning formal shakllanishida o’ziga xoslik ham ko’zga tashlanadi. Ma`lumki, hozirgi o’zbek tilida avval shart ergash gap, so’ngra bosh gapning kelishi doimiy qonuniyat. Lekin eski o’zbek tilida bosh gapning ergash gapdan oldin kelishi holati ham kuzatiladi: *Zeridastlarga naf` yetku’r, agar tila’sa’n’ ke, zabardastlardan zarar ko’rma’ga’y-sen*(Navoiy Mq). a’shbu gapni quyidagicha transformatsiya qilish mumkin: *Agar zabardastlardan zarar ko’rmaslikni tilasang, zeridastlarga naf` etkur.*

Endi quyidagi gaplarni taxlil qilib ko’raylik: *Desa’n’ ke, taamin’ zaye bolmagay – yedur; Tila’san’ ke, libasin’ eskirma’ga’y – kiydu’r* (Navoiy Mq). Shakliy jixatdan olib qaralganda, *desangki, tilasangki* so’zlari kirish so’z vazifasida qo’llangandek ko’rinadi. Chunki *zoe bo’lmagay, eskirmagay* kelasi zamon fe`l shakllari kesim vazifasida kelgan. Lekin mazmunan olib qaralganda, *desangki, tilasangki* leksemalari ergash gaplar predikatining bir qismi xisoblanadi. qiyoslang: *taoming zoe bo’lmagay – edur yoki libosing eskirmagay – kiydur,* deb olsak, mano chalaligi yuzaga keladi, shartlanganlik munosabati to’la reallashmaydi. Bu gaplarni quyidagicha transformatsiya qilish mumkin: *Taoming zoe bo’lmasin desang, edur yoki*

libosing eskirmaslikni tilasang, kiydur. Fikrimizcha, bunday konstruktsiyalar eski o’zbek tiliga fors-tojik tilidan o’zlashgan.

Shart ergash gapning kesimi buyruq maylidagi fe`l shakli bilan ifodalanadi. Bosh gap bilan *–ki (-kim)* vositasida shakliy sintagmatik munosabatda bo’ladi: *Mazlumga baxshayish ko’rgu’z ke, zalimdin asayish ko’rga’y-sen* (Navoiy Mq). Bunday shakliy vosita orqali birikish hozirgi o’zbek tilida kuzatilmaydi.

Shart ergash gap bosh gapga *–sa erdi* shakliy vositasida ham birikishi mumkin. Bunda shart voqea taxmin, gumon mano ottenkalariga ega bo’ladi: *Andaq ke, bir az nima’ bevuqufraq kishi qashida oqusa erdi, ko’p yaxshiliqqa o’tka’ru’r erdi* (Navoiy XM).

*To’siqsiz ergash gapli qo’shma gaplar***.** Ma`lumki, hozirgi o’zbek tilida to’siqsiz ergash gaplar bosh gapga *–sa ham, -ganda ham, -saqda, -gani bilan, qaramay* kabi shakliy vositalar yordami bilan boglanadi. Eski o’zbek tilida esa shart ergash gapning predikatlari ijro maylidagi fe`l shaklida bo’ladi. To’siqsizlik manolarini ifodalashda ergash gap tarkibidagi *agar, agarchi* leksemalari katta rol` o’ynaydi. Shu bilan birga, denotatlar tarkibidagi ayrim leksik vositalar ham ahamiyatli xisoblanadi. Bunday gaplarda bir paytning o’zida ikki xil munosabat, ya`ni, ham shart munosabati, ham to’siqsizlik munosabati mavjud bo’ladi. Chunki «to’siqsizlik» deganda, muayyan shartning tegishli voqeaning yuzaga kelishida to’siq bo’lmasligi nazarda tutiladi. Bunda shart munosabati bevosita emas, balki bilvosita ishtirok etadi, boshqacha qilib aytganda, shart munosabati gapda tagbilim sifatida mavjud bo’ladi. Agar tagbilim sifatida shart munosabati ishtirok etmas ekan, to’siqsizlik munosabatining yuzaga kelishi mumkin emas. Misol: *Va qamchini agar tazyana derlar, bo’ldurgasin va chuburgasin turkcha ayturlar* (Navoiy ML).

a’shbu misolda «qamchi tozyona deyilsa, bo’ldurgasi va chuburgasi ham forscha atalishi kerak» degan shart munosabatidagi tagbilim mavjud. Ana shu shart me`yorining buzilishi to’siqsizlikni yuzaga keltiradi: *Va’ qamchini tazyana desa’la’r ham, bo’ldurgasini va chuburgasini turkcha ayturlar.*

To’siqsiz ergash gaplarda bosh gap ergash gapdagi shart mazmuniga zid bo’lgan harakat, voqealarni ifodalaydi: *Agarchi bir necha’ vaqt bizzarurat ulum kasbiga ishtigal ko’rgu’zu’btu’rla’r, amma xech vaqt nazm ayinidin xali ema’s eka’ndu’rla’r* (Navoiy XM).

Ba`zan *agarchi, garchi* boglovchilari ishtirok etgan to’siqsiz ergash gapli qo’shma gaplarning keyingi komponenti- bosh gap oldida *va’le zidlov* boglovchisi kelib, u komponentlardagi zidlikning ortiq ekanligini ko’rsatadi: *Agarchi mundin burun xabarni bir piyada keltu’ru’b erdi, va’le sevinchiga’ ek Vays bir ayda keldi (BN).*

Ma`lumki, *agar, agarchi* boglovchilari eragash gap tarkibida kelib, eragsh gaplar doimo bosh gapdan oldin keladi. Lekin eski o’zbek tilida bunday to’siqsiz ergash gaplar bosh gapdan keyin ham kelgan: *Yazlar yaxshi xavasi bar, agarchi qabo’lcha yoqtur (BN).*

*Payt ergash gapli qo’shma gaplar***.** Ma`lumki, payt ergash gapli qo’shma gaplarda, asosan, ikki denotativ voqea ifodalanib, ularning biri ikkinchisining ichiga payt bildiruvchi uzv sifatida kiradi. Shuning uchun ham ikki denotativ voqea o’rtasidagi munosabat payt munosabati sifatida reallashadi va bu munosabat ifodalangan qo’shma gap payt ergash gapli qo’shma gap sifatida baxolanadi.

hozirgi o’zbek tilida payt ergash gaplar bosh gapga fe`l shakllari, ko’makchilar va ayrim yuklamalar yordami bilan birikadi.

Eski o’zbek tilida payt ergash gaplar bosh gapga quyidagicha boglanadi:

a. Ergash gapning predikati bosh gapga ravishdosh shakli vositasida boglanadi. Bunday gaplarda ergash gapda ifodalangan voqea-hodisa bo’lib o’tganidan so’ng bosh gapdagi voqea boshlanadi: *Va’ umrinin’ axirida No’shira’va’nni o’z ornida olturtib, o’zi go’sha’ tutti* (TMA g’g’n’).

g’. *Chun* shakliy vositasi yordami bilan shakllanadi. Ma`lumki, *chun* leksemasi hozirgi o’zbek tilidagi: a) *chunki, shu sababdan;* g’) *agar;* q) *qachonki* manolariga muvofiq keladi (Navoiy asarlarining qisqacha lug’ati, a99q, qa9). Shu sababli ham *chun* leksemasi eski o’zbek tilida payt, sabab, shart ergash gaplarning bosh gapga boglanishini ta`minlovchi vositalardan biri sanalgan. *Chun* ergash gapning tarkibida kelgan, ergash gapning predikati fe`lning analitik

yoki sintetik shakllari bilan ifodalangan. Bunday gaplarda ham asosiy denotativ voqea ergash gapdagi voqeadan keyin sodir bo'ladi: *Chun ta`zib shiddatidin hardilar, ul majmu`din sudrab chiqardilar* (Mq qh). *Chun atfal tashidin tuyar erdi, qachib gulxanga yuz qoyar erdi* (Mq h7).

Shu bilan birga, Alisher Navoiy asarlari tilida *-gach (-ga'ch,-qach,-ka'ch), -r(-ur)da* shakliy vositalari ham ergash gapni bosh gapga boglashda faol qo'llanganligini ko'ramiz. *–gach (-ga'ch,-qach,-ka'ch)* shakliy vositasi bilan boglangan qo'shma gaplarda asosiy denotativ voqea ergash gapdagi voqea sodir bo'lgandan so'ng boshlanadi.

Misollar: *Kayfiyatin ma`lum qilgach, taskin taptilar va Firuz Xurmuzga ta`n qildilar* (TMA g'qn'). *Tafaxxus qilgach, ul ish kayfiyatin ma`lum qildi* (TMA g'09).

Yuqorida ta`kidlanganidek, misollardan asosiy denotatlar *(Taskin taptilar va Firuz Xurmuzga ta`n qildilar – ul ish kayfiyatin ma`lum qildi)* tobe denotativ voqealar *(Kayfiyatin ma`lum qilgach – Tafaxxus qilgach)*dan so'ng sodir bo'lmoqda. a'shbu payt munosabatini *–gach (-ga'ch, -qach, -ka'ch)* shakliy vositasining semantikasi reallashtirmoqda.

- *r (ur)da* shakliy vositasi bilan boglangan payt ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapdagi denotativ voqea bilan asosiy denotativ voqea bir paytda ro'y beradi, chunki, - *r (ur)da* shakliy vositasining semantikasi ish-harakatining tugallanmaganligini ifodalaydi: *Va' qoshqun salurda, tepib axir qildi* (TMA).

hozirgi o'zbek tilida bunday mazmunli qo'shma gaplarni boglashda *-gan* sifatdoshi keng qo'llaniladi (Abduraxmonov G., a9o'h, an'g'-an'6). Ergash gapning predikati ijro maylidagi fe`lning *ersa'* shakli orqali ifodalanib, bosh gapga boglanishi mumkin. Bunda asosiy denotativ voqea ergash gapdagi voqea tugaganidan so'ng boshlanadi: *a'l ishni an'a zaxir qildi ersa', qabo'l qilib, yalgiz barib, ul pilni o'ldu'rdi* (TMA).

Boglovchisiz qo'shma gaplar

Boglovchi vositalarsiz birikkan qo'shma gaplarga mavjud adabiyotlarda bir xil ta`rif beriladi: ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik boglovchilar yordamisiz birikuvidan tuzilgan qo'shma gaplar boglovchisiz qo'shma gaplar bo'ladi (o'zbek tili grammatikasi, a976, q00). Yana bunday gaplarning tabiati to'grisida shunday deyiladi: «... bunday sodda gaplarning strukturasi leksik, morfologik, sintaktik parallellik bo'ladi. Bu xol gapda ega va kesimlarning bir xil shaklda bo'lishida, antonim egalarning va bir xil shakldagi kesimlarning kelishida, antonim aniqlovchilar va bir xil bo'laklarning takrorlanishida ko'rinadi» (O'zbek tili grammatikasi, a976, q00).

Shuni ta`kidlash lozimki, ikki bosh bo'lakli qo'shma gap satxida yoki bir bosh bo'lakli qo'shma gap satxida bo'lmasin, ular komponentlarining boglovchisiz ham o'zaro aloqada bo'lishi boglovchilarning qo'shma gaplardagi roli masalasini qayta ko'rib chiqish muammosini keltirib chiqaradi. Xaqiqatan ham, qo'shma gaplar boglovchisiz qo'llana olish imkoniyatiga ega ekan va shunday holatda ham murakkab denotativ voqealarni aks ettira olar ekan, unda boglovchi va boglovchi vositalarning qo'shma gapdagi o'rni masalasida tayinli fikrlar bildirish lozimligi ma`lum bo'ladi.

qadimgi turkiy tilda va eski o'zbek tilining dastlabki taraqqiyotida qo'shma gaplar, asosan, xech qanday boglovchilarsiz o'zaro birikkan (Abduraxmonov G., a97n', ag'). Bunga sabab u paytlarda xali boglovchilar juda kam bo'lgan. Bu xaqda G.Abduraxmonov shunday yozadi: «Xali teng va tobe boglovchilar bo'lmagan yoki juda kam bo'lgan davrlarga oid bo'lgan o'rxun yozuvlari va XI asr yodnomalarida murakkab fikr sodda gaplarni yonma-yon keltirish hamda ma`lum intonatsiya va boshqa vositalar orqali ifodalangan» (Abduraxmonov G., a97n', ag'). Boglovchisiz qo'shma gaplarning ba`zilari hozirgi zamon boglangan qo'shma gaplari uchun, ba`zilari hozirgi zamon ergash gapli qo'shma gaplari uchun asos bo'ladi, ayrimlari esa, ma`lum o'zgarishlar bilan hozir ham qo'llanadi (Abduraxmonov G., a97n', ag').

Demak, ilk davrlarda boglovchilar qo'llanilmagan ekan, shakliy vositalarsiz ham sodda gaplar uzaro boglangan ekan, keyingi davrlarda ularning qo'shma gap tarkibida kelishi shakliy ravonlikni, turli modallikni ifodalash uchun, deyishga asos bor. G.Abduraxmonov to'gri

ta`kidlaganidek, boglovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan qismlar orasidagi semantik munosabatlar quyidagi yo'llar bilan ifodalangan:

Turli intonatsiya; pauza;

Gap bo'laklari va gaplarning o'rinlashishi;

Ayrim gap bo'laklari (asosan, olmosh va fe`l bilan ifodalanuvchi) ning semantikasi;

Ayrim gap bo'laklarining takrori. Bunda olmoshlarning roli kattadir (takrorlangan bo'lak gaplarni semantik jixatdan boglaydi);

qo'shma gap qismlari orasidagi semantik munosabatni konkretlashtirish uchun ayrim leksik elementlar (*anda, ani, ul fursatda, ul jixatdin*) qo'llanadi (Abduraxmonov G., a97n', aq). Bu fikrlar boglovchilar vositasida boglangan qo'shma gaplarga ham taalluqli ekanini yuqorida ko'rib o'tgan edik. Bunday fikr-muloxazalarning tugilishi esa «Boglangan qo'shma gaplar», «Boglovchisiz qo'shma gaplar», «Biriktiruv boglovchili qo'shma gaplar» kabi tushunchalarni, avval aytganimizdek, qayta ko'rib chiqish lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki bu atamalar bu xil gaplarning tabiatini to'la ochib berolmaydi. Shuning uchun ularni soddagina qilib, A.Nurmonov taklif qilganidek, «Tenglanishli qo'shma gap», «Tobelanishli qo'shma gap» deb atash maqsadga muvofiq (Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixo'jaeva S., a99g', g'a).

quyida boglovchisiz qo'shma gaplarning mano munosabatiga ko'ra turlarini tavsif qilishga o'tamiz.

*Ayni bir payt munosabatini ifodalovchi boglovchisiz qo'shma gaplar***.** Bunday qo'shma gaplarda denotativ voqealar bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladi. Misollarga murojaat qilaylik: *Bu to'rt devan avazasin rub`i ma'sku'nga' yetku'ru'b-men, «hamsa» panjasiga panja urub-men* (ML ag'0). Mazkur misoldagi denotatlar birin-ketin sodir bo'lmoqda. Birinchi denotat (*bu to'rt devan avazasini rub`i ma'sku'nga' yetku'ru'b-men*)ning tugashi bilan ikkinchi denotat (*«hamsa» panjasiga panja urub-men*) sodir bo'lmoqda. Bu gaplar orasida mustaxkam ichki boglanish mavjud. Ikkinchi denotatning yuzaga kelishi birinchi denotatning bajarilishi bilan bogliq. Gaplarning pozitsion joylashishi ham qat`iy: birinchi denotatni ikkinchi o'ringa o'tkazib bo'lmaydi. Demak, semantik jixatdan ikkinchi denotat birinchi denotatni o'ziga tobelashtirib kelmoqda. Birinchi denotat ikkinchi denotatning bajarilish paytini bildirgan. Yuqorida ta`kidlanganidek, predikatlar oxangdoshligi sodda gaplarning boglanishida muxim vosita bo'lmoqda.

Yana bir misol: *Bo'lbo'l bila' Gul va Sham` bila' Parvana arasida munazara bitibdur, anda ko'b diqqat ko'rgu'zu'btu'r* (MN ah). a'shbu misolda denotatlar o'zaro payt munosabatidan tashqari, izoxlash munosabati orqali ham boglangan. Ikkinchi denotat birinchi denotatni izoxlab ham kelmoqda, ya`ni misolda *«Bo'lbo'l bila' Gul» va «Sham bila' Parvana»* nomli sermazmun, mukammal asarlar yozdi degan tagbilim mavjud. Denotatlarning o'zaro semantik boglanishida ba`zi leksik elementlarning (*munozara – anda*) ham muxim ahamiyati bor. Birinchi denotat tarkibidagi *munozara* leksik elementi ikkinchi denotat tarkibidagi *anda* leksik elementi orqali ifodalangan. a'larning joylashish tartibi ham qat`iy, o'zaro o'rin almashtirib bo'lmaydi, chunki ikkinchi denotatning yuzaga kelishiga birinchi denotat sabab bo'lmoqda.

*Zidlanish munosabatini ifodalovchi boglovchisiz qo'shma gaplar***.** Denotatlar o'zaro payt munosabati bilan birga, zidlanish munosabati orqali ham boglanishi mumkin. Misol: *har kimga' kim, bir vafa ko'rgu'zdu'm, yuz bevafalig ko'rma'gu'ncha' qutulmadim* (Mq ho'). Misoldagi zidlanish ikki xil shakl – ham leksik, ham morfologik shakl orqali ifodalangan. Birinchi denotatdagi *bir vafo* leksik elementi ikkinchi denotatdagi *yuz bevafolig* leksik elementi bilan, predikatlar bo'lishli-bo'lishsizlik (*ko'rguzdum – qutulmadim*) munosabati bilan oppozitsiyaga kirishgan. Denotatlarning joylashishi ham qat`iy, ikkinchi denotatning bajarilishi birinchi denotatni taqozo etmoqda. Yana bir misol: *Bavujudkim, Samarqandnin' a`lami ulamasi erdi, she`r va' muammaga dagi mayil erdi* (MN qg').

har ikkala gapning predikati shaklan ot kesim orqali ifodalangan. Ikkala denotatda ham sub`ektga xos bo'lgan xususiyatlar ifodalanmoqda, ya`ni birinchi denotatda sub`ektning mansabi ifodalanayotgan bo'lsa, ikkinchi denotatda sub`ekt faoliyati izoxlanmoqda.

Denotatlarning joylashishi erkin, ularning o’rnini almashtirish mumkin. a’larning semantik boglanishida *dagi* leksik elementi muxim rol` o’ynamoqda. *Dagi* leksemasi ikkinchi denotat bilan birinchi denotatning semantik aloqasini ta`min etmoqda.

Dagi leksemasi «o’zbek tilining izoxli lug’ati»da «takroran, qaytadan, yangidan, yana, bundan tashqari, buning ustiga» kabi manolarni anglatishi aytiladi (o’zbek tilining izoxli lug’ati, a9ha, n’hg’). Demak, *dagi* – yana fikrning xali tugallanmaganligini, ikkinchi denotat birinchi denotatning mantiqiy davomi ekanligini anglatgan.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, *dagi* leksemasi ishtirok etgan boglovchisiz qo’shma gaplarda mustaxkam semantik boglanish mavjud bo’ladi.

Navoiy asarlarida ravishdosh shakli mustaqil predikat bo’lib kela olgan: *Namus dastarin bashidin alib, bir jur`a uchun mayfurush ayagiga salib* (Mq qo’). a’shbu misolda ham payt mazmuni bilan bir qatorda, sabab-natija mazmuni ham ifodalangan. Birinchi denotat (*Namus dastarin bashidin alib*) sabab voqeani, ikkinchi denotat (*Bir jur`a uchun mayfurush ayagiga salib*) natija voqeani ifodalagan. Mantiqan olib qaralganda, or-nomus, xayoni unutgan inson har qanday pastkashliklarga, tubanliklarga borib etishi mumkin. Demak, bunday illatlarning sababchisi nomussizlik. Denotatlarning joylashish pozitsiyasi ham turgun, ularning o’rnini almashtirib bo’lmaydi.

*qiyoslash munosabatini ifodalovchi boglovchisiz qo’shma gaplar***.** Bunday qo’shma gaplar tarkibidagi denotativ voqealar bir-biriga qiyoslanadi. Bu qiyoslanish orqali ikki denotat o’rtasidagi o’xshash, farqli tomonlarni ko’rsatish yoki qo’shimcha mano ifodalashdir. Misol: *Tilab berga’nni ham saxadin yiraq bil, ibram bila’ berga’ndin berma’ga’nni yaxshiraq bil* (Mq aag’). Misoldagi ikki leksema (*tilab berishlik va ibrom bila berishlik*) semantikasi o’zaro qiyoslanmoqda, ya`ni so’ragandan so’ng berishlik ham «*ibrom*» (qistab turib olish bilan berishlik) ham saxiylikdan yiroq bo’lgan narsalar. Ikkala tushuncha o’zaro qiyoslangan xolda inson mana shunday xislatlardan yiroq bo’lishi lozimligi uqtiriladi. Birovdan biror narsa so’rab olinganda yoki qistash orqali olinganda, turli norozilik, kelishmovchilik kelib chiqadi. Avvalo, so’raguncha birovga bir narsa bermaslik, xasislik mardlar ishi emas. Demak, ushbu misol asosida «*Dono xech qachon nodon saxovatiga muxtoj bo’lmasin*» degan tagta`lim mavjud. Yana bir misol: *Birta’ o’tma’kni ikki bo’lu’b yarmini bir achga berga’nni saxiy de, o’zi yema’y barini muxtajga berga’nni axiy de* (Mq a6g’). Mazkur misolda ham ikki denotativ voqea o’zaro qiyoslanmoqda. gaplarning semantik boglanishida *yarmini - barini, och – muxtojga, saxiy – axiy* leksemalari muxim rol` o’ynagan. Bir mayizni ikki bo’lib, yarmini och qolgan kishiga bergan inson saxiy, saxovatli xisoblansa, o’zi emasdan hammasini muxtoj odamga bergan yanada saxiyroq, saxovatli inson ekan. Asosiy semantik munosabat *yarmini berishlik – barini berishlik* oppozitsiyasi orqali reallashgan. Demak, misolda *yarmini berishlik* leksik birikmasi bilan *barini berishlik* leksik birikmasi o’zaro qiyoslanmoqda.

Endi quyidagi misolni ko’raylik: *Fasiqdin xaya tilama, zalimdin vafa tilama* (Mq h0). a’shbu gaplar *fasiq – zolim, xaya – vafa* leksemalari munosabati orqali boglangan. Shu o’rinda bir narsani aytib o’tish joiz. Ma`lumki, fosiq (yolgon so’zlar aytuvchi, fisq-fasod gaplar qo’zgovchi), zolim (o’zgalarga zulm o’tkazuvchi) shaxslar salbiy harakterli toifaga kiritiladi. Bu leksemalar *xayo, vafo* leksemalari bilan semantik jixatdan boglana olmaydi. Chunki fosiq odamdan sharm-xayo, uyat, ibo, zolim insondan mexr-vafo kutib bo’lmaydi. a’larda bu kabi xususiyatlar bo’lmaydi. Shuning uchun ham mazkur gaplarning predikati inkor shaklda ifodalangan.

quyidagi misolda ham xuddi shunday holatni kuzatish mumkin: *Tame`din karam tilama, gadadin dira’m tilama* (Mq 70). a’shbu misolda ham «*Tome` – ta`ma qiluvchi - gado*» leksemalari o’zaro qiyoslanmoqda. Tome` – tamagirlar birovga ozgina yordami, foydasi tegsa, biror narsa talab qiladilar, har bir xatti-harakatini pul, mol-dunyo bilan o’lchaydilar. Bunday shaxslar savob, odamiylik nuqtai nazaridan yaxshilik, saxovat qilish kerak, degan xayolni qilmaydilar, shuning uchun ulardan saxovat kutib bo’lmaydi. Gado esa tilanchilik bilan, birovlarning sadaqasi evaziga xayot kechiradi. Sadaqa so’rovchidan biror narsa so’rab bo’lmaydi. Ta`magir shaxslar qanchalik boy-badavlat bo’lmasin, insonlarga yordam ko’rsatmas ekan, ular gadodan ham battaroqdir. Lekin *tome`* va *gado* leksemalari unchalik bir-

biriga yaqin tushunchalar emas. Chunki *tome`* leksemasi salbiy toifadagi kishilarga nisbatan qo'llanadi, *gado* leksemasida esa salbiylik semasi yo'q. Demak, avvalgi misolda bir-biriga yaqin tushunchalar (*fosiq – zolim*) munosabatga kirishgan bo'lsa, mazkur misolda semantik jixatdan turlicha leksemalar (*tome` - gado*) munosabati ifodalangan.

quyidagi misol shu jixatdan harakterlidir: *Maxallida aytur so'zni asrama, aytmas so'z tegrasiga yo'lama* (Mq hq). Mazkur misolda bir-biriga zid leksik birikmalar (*aytur so'z – aytmas so'z*) o'zaro qiyoslanmoqda. Demak, vaqti kelganda aytadigan so'zni aytish kerak, aytish kerak bo'lmagan so'zni umuman aytmaslik lozim.

*Izoxlash munosabatini ifodalovchi boglovchisiz qo'shma gaplar.*Bunday qo'shma gaplar haqida fikr yuritar ekan, G.Abduraxmonov shunday yozadi: Boglovchisiz qo'shma gaplarning ayrim turlarida qo'shma gaplarning tarkibidagi bir qismdan anglashilgan voqea, hodisa ikkinchi gapdan anglashilgan voqea, hodisaga bogliq bo'ladi, bir qism ikkinchisini yoki uning tarkibidagi ayrim bo'laklarni izoxlab, to'ldirib keladi. Bunday boglovchisiz qo'shma gapning tarkibidagi qismlar bir-biriga mazmunan bogliq bo'lib, oralaridagi mazmun munosabati yaqin bo'ladi. Boglovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan qismlar orasidagi murakkab mazmun munosabati ayniqsa izoxlash munosabatida yaqqol ko'rinadi (Abduraxmonov G., a996, an'q). Bu fikrlar juda o'rinli, albatta. Lekin murakkab mazmun munosabati faqat bunday tip gaplarda emas, umuman, har qanday qo'shma gaplarda ifodalanishi yuqorida misollar asosida aytib o'tildi.

Izoxlash munosabatini ifodalovchi boglovchisiz qo'shma gaplarda quyidagi mazmun munosabatlari ifodalangan:

a. Shart-natija munosabati: *har kimgaki bir xizmat qildin' – on shiddatga muxayya turmaq kerak* (Mq n'9). a'shbu misolda birinchi denotativ shart voqeani ifodalagan, ikkinchi denotatga semantik jixatdan tobe xisoblanadi. Bu gap *asa* shakliy vositali shart ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'la oladi. *har kimgaki bir xizmat qildin' – on shiddatga muxayya turmaq kerak – har kimgaki bir xizmat qilsan', on shiddatga muxayya turmaq kerak.* Xuddi shu holat ham sodda gaplarni boglovchi shakliy vositalar ikkilamchi ekanligini ko'rsatadi. Bunday gaplar haqida aytilgan quyidagi fikrlar ham mazkur muloxazamizni tasdiqlaydi: «Birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar birikish munosabatini; oltinchi, ettinchi va sakkizinchi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar zidlov munosabatini ifodalovchi voqea-hodisani bildirgan. Shuning uchun oldingi to'rtta qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga biriktiruv boglovchisini, keyingi uchta qo'shma gap orasiga zidlov boglovchisini qo'yib ishlatish mumkin» (Asqarova M., Abdullaev Y., Omilxonova M., 1997, 121. Ergashgan qo'shma gaplar xususida ham shunday fikrlar aytiladi: «Keltirilgan misollarning birinchi, uchinchi va beshinchisida sabab mazmuni ifodalangani uchun *chunki, shuning uchun* bogovchilarini qo'llab, sabab ergash gapli qo'shma gap xosil qilish mumkin. Ikkinchi va ettinchi gapda esa o'xshatish mazmuni ifodalanganidan *go'yo* yordamchisini qo'llab, o'xshatish ergash gapli qo'shma gapni xosil qilish mumkin» (Asqarova M., Abdullaev Y., Omilxonova M., 1997, 172).

Demak, boglovchi vositalarini ishlatib ham, olib tashlab ham boglovchisiz qo'shma gaplarni qo'llash mumkin ekan, ularning gapdagi tutgan o'rni unchalik muxim emas.

2. Sabab-natija munosabati: *Tilin' bila ko'n'u'lni bir tut, ko'n'li va tili bir kishi aytqan so'zga but* (Mq a6q). a'shbu misolda birinchi denotat sabab voqeani ikkinchi denotat natija voqeani ifodalamoqda. Gaplarning o'zaro mazmuniy boglanishini *til, ko'n'u'l, bir* leksik elementlari ta`minlamoqda. Mazkur sodda gaplar orasiga ham *chunki* shakliy vositasini qo'yish mumkin.

3. O'xshatish munosabati: Nafsni taqva riyazati bila zeridast qildilar – shaytanni zalilliq bila yerga past qildilar (Mq ha). Misolda «Nafsni taqvo riyozati bila zeridast qilishlik» «Shaytonni zalilliq bila erga past qilish»ga o'xshatilmoqda. Denotatlar tarkibidagi leksik elementlar oppozitsiyasi (nafsni – shaytonni, taqvo riyozat bila – zalilliq bila, zeridast qildilar – erga past qildilar) zich mazmuniy boglanishni ta`minlagan.

Ma’ruza №18. Leksika.

Reja:

1.Eski o’zbek tilida o’z va o’zlashma qatlam.
2.Eski o’zbek tilida ko’p ma’noli so’zlar.
3.So’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari.
4.Punktatsiya.

Tayanch tushunchalar

Leksika, o’z va o’zlashma qatlam,
ko’p ma’noli so’zlar, omonim, sinonim, antonym, punktatsiya.

Leksikologiyaning obyekti tilning lug’at boyligidir. Bu boylik tilshunoslikda *leksika* deb ataladi, u muayyan tildagi barcha so’zlarni va shu so’zlar bog’lanishidan tarkib topgan ko’chma ma’noli turg’un konstruksiyalarni (frazemalarni) o’z ichiga oladi. *Leksika* atamasi ba’zan tor ma’nolarda ham qo’llanadi: dialektal leksika, kasb-hunar leksikasi, ilmiy leksika, vulgar leksika, Tohir Malik asarlari leksikasi kabi.
Leksikologiyaning predmeti- lug’at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatik sath) bilan aloqasini tadqiq qilish.
Leksikologiyaning vazifalari: a) muayyan til lug’at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlarini, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillarning ishtirokini o’rganish; b) lug’aviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarini, tematik guruhlari va mikrosistemalarini aniqlash, lisoniy va uslubiy xususiyatlarini yoritish; d) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularda leksik-semantik tahlil ko’nikmalarini shakllantirish.

Leksik monosemiya

Leksik monosemiya (yunoncha: *monos*-«bir»+*semia*- «belgi»)-leksemaning faqat bitta ma'noga ega bo'lishi. Masalan, o'zbek tilidagi guruch leksemasi «sholidan oqlab olinadigan oshlik don» ma'nosini, abadiy leksemasi «mangu, doimiy» ma'nosini, tun leksemasi «sutkaning kun botishidan chiqqunigacha, oqshomdan tong otgunigacha bo'lgan qismi» ma'nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa ma'nolari yo'q.
Monosemiya hodisasi o'zbek tilida *bir ma'nolillik* deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir: *to'rtburchak* (matem. termin), *go'mmaxona* (yangi yaratilgan leksema), *supermarket* (yangi o'zlashtirilgan so'z) va b.lar/
Yangi yaratilgan yoki yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'p ma'noli so'zlarga aylanib qolishi mumkin.
Atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi.[1]

Tilda ma'no ko'chishining quyidagi turlari uchraydi:
M e t a f o r a y o' l i b i l a n ma'no ko'chirilishi:
ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida: *burun («odamning burni»*-bosh, leksik ma'no*)- burun («choynakning burni»*-hosila ma'no*);*

[1] Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh., Ko’rsatilgan asar, 80–b.

ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: tez («*oz vaqt ichida, darrov*-bosh leksik ma'no»: *majlis tez tugadi*)- tez («darrov achchig'lanadigan, jizzaki»-hosila ma'no: *tez odam*): cho'qqi («tik narsalarning eng yuqori nuqtasi- bosh leksik ma'no: *tog' cho'qqisi*»)- cho'qqi («erishilgan yoki erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori pag'ona, daraja, ko'rsatkich»-hosila ma'no: *ilm-fan cho'qqisi, baxt cho'qqisi*);

2. V a z i f a d a g i o' x sh a sh l i k a s o s i d a ma'noning ko'chirilishi (funksional ko'chirish); tomir (*anat.* «qon tomirlari»-bosh leksik ma'no)- tomir (*biol.* «o'simlik tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar»-hosila ma'no). Tomir leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma'no shu leksema bilan atalayotgan «qon tomirlari» va «o'simlik tanasidagi to'qima naychalar» bajarayotgan vazifasidagi o'xshashlikka asoslangan: har ikki holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik organizm uchun kerakli moddalarning butun tana va to'qimalar bo'ylab tarqalishi uchun xizmat qiladi.

3. M e t o n i m i y a y o' l i b i l a n ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: *metonimia*-«qayta nomlash»). Bunday ko'chirilishlar predmetlar yoki hodisalarning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi. Buning quyidagichako'rinishlari bor:

o'simlikning nomi shu o'simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan mahsuloga ko'chiriladi: muskat (uzumning bir navi)-muskat (shu uzum navidan tayyorlangan vino); choy (o'simlikning bir turi)- choy (shu o'simlikning barglaridan tayyorlangan ichimlik), qahva (qahva daraxti)- qahva (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik, kofe);

b) zamon va makonda bir-birining bo'lishini taqozo qilgan hamda birga qo'llanadigan ikki (yoki bir necha) predmetlardan brining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi: *bir piyola choy ichmoq* (*piyola* o'z ma'nosida) – *bir piyola ichmoq (piyola*- ko'chma ma'noda*);*

4. S i n e k d o x a y o' l i b i l a n ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: *synekdoche* – "birga anglamoq", "qo'shib anglamoq"). Bunday ko'chirilish nomlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi:

a) butunning nomi qismga ko'chiriladi: **qo'l** (butun) – **qo'l** (qism: "barmoq" ma'nosida. *Besh qo'l barobar emas.*), **bosh** (butun) – **bosh** (qism: "miya", "aql-xush" ma'nolarida, *Tog'ning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki bosh bilan*);

b) qismning nomi butunga ko'chiriladi: **olma** (qism- "meva") – **olma** (butun-"meva daraxti": *olma gulladi*); **eshik** (qism: "uyning eshigi", "hovlining eshigi") –**eshik** (butun: "uy", "hovli": *Eshigimda juda ko'p odam ishlagan.*), **tirnoq** (qism) - **tirnoq** (butun: "bola", "farzand": *Sizga og'ir. Peshonangizga tirnoq bitmadi. Ko'nglingiz yarim.*); **tuyoq** (qism) – **tuyoq** (butun: "uy hayvoni", "mol". *Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko'rmagan.*)

Leksik sinonimiya

Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: *yelka, kift, o'miz* (birinchi guruh); *in, uya, oshyon* (ikkinchi guruh); *nur, shu'la, yog'du, ziyo* (uchinchi guruh) kabi. Bunday guruhlar tilshunoslikda *sinonimik qatorlar* deb nomlanadi. Har bir sinonimik qatorda:

leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqlari, subyektiv baho, qo'llanish doirasi) har xil bo'ladi. Masalan, *ozod, erkin, hur, sarbast* leksemalari bitta denotatni- "o'z erki, haq-huquqiga egalik"ni ataydi. Biroq ularda o'zaro farqlanuvchi ifoda semalari ham bor. Xususan, **erkin** leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, **ozod** leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, **hur** leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, **sarbast** leksemasi esa eskirgan, kitobiydir. Qiyos qiling: ***Erkin*** *nafas olmoq* (O'TIL, 2-tom,-451). *Toki, bizdan olis avlodlarga* ***ozod*** *va obod Vatan qolsin!* (I. Karimov). *Yashnagan el tillarda doston, Qutlug' nomi* ***hur*** *O'zbekiston* (M. Sh.). *Podshohning nikohida bo'lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisoblashmay, ko'pincha ularni qo'lga olib,* ***sarbast*** *yashaydilar* (O.);

b) ifoda semalari ba'zan darajalanadi: *yuz, bet, aft, bashara, turq* leksemalarining barchasida ("yuz"dan boshqalarida) salbiy bo'yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy bo'yoqning ifodalanish darajasi har xil: u "bet"dan "turq"qa tomon ortib, kuchayib boradi. Qiyos qiling: *U*

betlari *yumdalangan, oppoq sochlari yulingan bu telba xotinni o'zining qirq yillik umr yo'ldoshiga o'xshata olmadi.*

Yuqoridagi xususiyatlardan, ayniqsa, ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, lekik sinonimlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, *achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrlanmoq* leksemalari "g'azabi kelmoq" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u "achchiqlanmoq"dan "g'azablanmoq"qa, "g'azablanmoq"dan esa "qahrlanmoq"qa qarab kuchayib boradi.

2. Uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan *jimaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq* leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no "ovoz chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no **jilmaymoq** leksemasida biroz ijobiy, *iljaymoq* leksemasida biroz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq *irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarida yanada ortib boradi.

3. Nutqiy sinonimlar- nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, *ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha* qatoridagi *ozgina* leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgan holda, *picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha* leksemalari faqat s'zlashuv nutqiga xoslangandir.

Kontekstual sinonimiya

Kontekstual sinonimiya- til birligi sifatida o'zaro sinonim bo'lmaganleksemalarning ma'lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kirishishi. Masalan, **chinni** va **kosa** so'zlarining leksik ma'nolari birxil emas: **chinni** "idish-tovoq, izolatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loy"ni, **kosa** esa "piyoladan kattaroq idish"ni ataydi, shunga ko'ra ular sinonim hisoblanishmaydi, ammo ayrim shevalarda **chinni** leksemasi "kosa" ma'nosida ham qo'llanadi, binobarin, shu shevaga xos konrekst ichida u **kosa** leksemasining sinonimiga aylanadi. Masalan, *Xoljonbika... xitoyi* ***chinnida*** *moy olib keldi.* (J. Sh.).

Tilda leksik manolari o'zaro teng bo'lib, farqlovchi semalari bo'lmagan leksemalar ham uchraydi: *so'roq va savol, xabar va darak, tema va mavzu, ot va nom* kabi. Tilshunoslikda bu kabi leksemalar *absolut sinonimlar* yoki *leksik dubletlar* deb ikki xil nomlanmoqda.

Leksik antonimiya

Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir: *oq va qora, qalin va yupqa* kabi.

Antonimiya hodisasi, asosan, bir so'z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi.[1]

Sifatlarda: a) hajm belgisiga ko'ra: *katta va kichik, baland va past*, b) harorat belgisiga ko'ra: *issiq va sovuq;* d) yosh belgisiga ko'ra: *yosh va qari;* e) xarakter-xususiyat belgisiga ko'ra: *saxiy va xasis, botir va qo'rqoq, aqlli va ahmoq;* f) shakl belgisiga ko'ra: *to'g'ri va egri;* g) maza-ta'm belgisiga ko'ra: *achchiq va shirin* kabi.

Kontekstual antonimiya

Kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir. Buni quyidagi she'riy misralar tahlilida ko'rish mumkin:

[1] *Antonimlarni tavsiflash va tasvirlashda ko'proq quyidagi adabiyotlarga tayanildi.*
Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R., "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati".-T.: "O'qituvchi", 1980.
Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh., Ko'rsatilgan asar. 120-126-b.
Usmonov S. Antonimlar // "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurn., 1958, 2-son, 38-b.
İsabekov V. O. Leksicheskaya antonimiya v sovremennom uzbekskom yazıke. AKD.-T.: 1973.
Shukurov R. Leksiko-semanticheskaya priroda antonimov. AKD. –T.: 1973.
Shukurov R., O'zbek tilida antonimlar.-T.: 1977.

Ushoq **qand** oq **tuzga** monand erur,
Va lekin biri **tuz,** biri **qand** erur.
Navoiy)
Aytur so’zni **ayt,**
Aytmas so’zdan **qayt**!
Navoiy)
Sichqonlarga nisbatan
Poyloqchiman **to’g’riman.**
Ko’rsam tekin go’sht ba’zan
Chidolmayman- **o’g’riman.**

(O. Q.)

Enantiosemiya

Enantiosemiya bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit talabiga ko’ra zidlanishning ifodalanishidir. Chunonchi, *ofat* so’zining ma’nosi “falokat”, “balo”dir, ammo u “Ulug’ yo’l” romanidagi bir epizodda shu ma’noga zid ravishda “go’zal”, “maftunkor” ma’nolarini anglatgan: “Adibaxn alifday nozik, yuzi tiniq, oq, yirik ko’zlari ustidagi ingichka qoshlari *ofat...*”[1] Tabiiyki, bunday holatda ham antonimiya yuzaga kelmaydi.

Antonimiya va polisemiya

Antonimiya va polisemiya hodisalari o’zaro bog’liqdir: ko’p ma’noli leksema o’zining bosh ma’nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma’nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan, *achchiq qalampir va shirin olma* birikmalarida **achchiq** va **shirin** leksemalari o’zlarining bosh ma’nolari orqali antonimik munosabatga kirishgan; *achchiq gap va shirin gap* birikmalarida esa *achchiq va shirin* leksemalarining hosila (ko’chma) ma’nolari antonimiyaga asos bo’lgan.

Leksik omonimiya

Leksik omonimiya-leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, o't («olov»)- o't («maysa»), kamar («qayish, ko'ndan ishlangan belbog'»)- kamar («daryo, tog'larda suv o'yib ketgan chuqur joy») kabi.

Leksik omonimiyada ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar.

1. Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir. Ular (yuqoridagi misollar), *omonim omoleksemalar* deb ham ataladi. Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi. Qiyos qiling: *ot* («ism»)- *otim, oting, oti; otni, otning, otga...* kabi, *ot* («hayvon»)- *otim, oting, oti; otni, otning, otga...* kabi. Yana: *bo'sh* (sifat)- «*ichiga hech narsa solinmagan»: bo'sh chelak* kabi, *bo'sh* (sifat)- «*tarang tortilmagan»: arqonni bo'sh tortib bog'lamoq* kabi.

2. Omoformalar ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular *omoforma omoleksemalar* deb ham nomlanadi. Masalan, *sur* (ot: “qorako’l teri navi”) va *sur* (sifat: “och kulrang”) leksemalari ayni shu shaklda lug’atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi *sur* leksemasi turlanganda (*surni, surga, surning...* kabi) sur (ot) va sur (sifat) o’rtasidagi shakliy tenglik yo’qoladi. Demak, bu ikki leksema o’rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi sur so’zi bosh kelishik shaklida bo’lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida yo’qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemalardan farq qiladi.

O’t (ot: “olov”) va *o’t* (fe’lning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi shakli) munosabatida boshqacharoq holat kuzatiladi: *o’t* fe’l shakli lug’atga *o’tmoq* shaklida kiritiladi, binobarin, *o’t* (ot) va *o’tmoq* (fe’l) ortasidagi shakliytenglik yo’qligi ma’lum bo’ladi, shunga qaramay fe’lning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi *o’t* shaklli bilan otning bosh kelishigidagi *o’t* shakli omoforma omoleksemalar sanaladi.

Omonim omoleksemalarning turlanish va tuslanish sistemalariga munosabati

[1] Oybek. Asarlar. 8-tom.-T. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973 176-b.

Omonim omoleksemalar nutqda turlanib yoki tuslanib turli shakllarga kiradi. Qiyos qiling: *bog'-1* (ot turkumi: "mevazor, daraxtzor") va *bog'-2* (ot turkumi: "beda, o't bog'lami"). Bu ikki ot nutqda turlanib, o'zaro teng bo'lgan so'z formalarini (grammatik shakllarini) hosil qiladi:

Bog'-1: bog'ni, bog'ning, bog'ga, bog'lar... kabi.

Bog'-2: bog'ni, bog'ning, bog'ga, bog'lar... kabi.

Bunday shakllar so'z formalari sanaladi. So'z formalaridagi tenglik omoforma omoleksemalarga ham xos (yuqorida ko'rib o'tildi). Demak, nutqda omonimlar ham, omoformalar ham *so'z formalari omonimiyasini* yuzaga keltirishi mumkin.

Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar

Omofonlar- talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo'lgan leksemalar: *to'rt* (son turkumidagi so'z)- *tort* ("konditer mahsuloti"), *to'n* ("kiyim") –*ton* ("tovush toni"), *bob* (talaffuzda: **bop**)-*bop* kabi.

Omograflar- yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan leksemalar: *soya* ("quyosh nuri tushmaydigan salqin joy")- *soya* ("dukkakli o'simlikning bir turi va uning doni"), *rom* (oyna o'rnatilmagan deraza)- *rom* (spirtli ichimlikning bir turi) kabi.

Tilda urg'usinig o'rni bilan farq qiladigan, ammo bir xil yoziladigan leksemalar ham bor: **atla`s** ("mato") -**a`tlas** ("geogr. atlas"), **fizi`k** ("fizik hodisa") - **fi`zik** ("fizika mutaxassisi") kabi. Bular urg'u belgisisiz yozilganda omograflar sanaladi, urg'u belgisi qo'yilganda (*atla`s va a`tlas, fizi`k va fi`zik*) esa omograf bo'lmaydi. Biroq bunday holatlar tilshunoslikda maxsus nomga ega emas.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. Leksikologiya nimani o'rganadi ?
2. Leksika nima ?
3. Leksikologiyaning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
4. Leksikologiyaning qanday turlari bor ?
5. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi?
6. Leksik monosemiya hodisasini qanday tushunasiz ? Leksik polisemiyani-chi
7. Monosemiya hodisasi qanday lug'aviy birliklarga xos ?
8. Polisemiyaning yuzaga kelishi qanday sodir bo'ladi ?
9. Ko'p ma'nolilikka olib keluvchi lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillar haqida ma'lumot bering.
10. Ma'no taraqqiyotining qanday yo'llari bor ?
11. Leksik ma'no hajmining o'zgarishi: ma'noning kengayishi va torayishi.
12. Leksik ma'no miqdorining o'zgarishida polisemiya va omonimiyaning yuzaga kelishi.

A d a b i y o t l a r

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B., Aliyev A., Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A., Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996.
4. To'ychiboyevB. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996.
5. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.